


СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

1 МАХСУС СОН
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО
СЛОВА

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART
SPECIAL ISSUE 1



САНЪАТШУНОСЛИК
ЙЎНАЛИШИ



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART
№SI-1 (2026)

Санъатшунослик йўналиши Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Мелиқўзиев Иқбол Мамасодиқович
Тошкент шаҳридаги “С.А.Герасимов номидаги Бутунроссия
давлат кинематография университети” филиали директори,
санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
профессор, кинооператор-кинорежиссёр

Акбаров Тошпўлат
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти,
Фарғона минтақавий филиали доценти

Ахмедов Рафик
“Фидокорона хизматлари учун” ордени, “Шуҳрат” медали
соҳиби

Хурсаной Умарова
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист
Пўлатов Джурахон
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист
Абдурахимов Ахмад
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси
Юлдашев Карм
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби
Хатамова Ёркиной
Ўзбекистон халқ артисти
Раҳматуллаева Шафоатхон
Ўзбекистон халқ артисти,
“Фидокорона хизматлари учун” ордени соҳиби
Хулкар Ҳамроева,
Ўзбекистон давлат хореография академияси
Усмонов Шамсиддин
профессор

Утаганов Равшан
профессор

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1.	Meliqo'ziyev Iqbol Mamasodiqovich	O'zbekistonda kinooperatorlik san'atining dastlabki izlanishlari	4
2.	Таджиханов Авазхон Бахадирович	Ўзбек киносида продюссерлик тизимининг вужудга келиши ва илк ривожланиш босқичлари	24
3.	Tashpulatova Ikbol Sabirdjanovna	XX–XXI asrlarda maqom san'ati evolyutsiyasining dinamikasi: ijrochilik, kompozitsiya va musiqiy ta'lim tizimi omillari	30
4.	Таджиханов Авазхон Бахадирович	Кино санъатида продюссерлик фаолиятининг назарий-амалий асослари	35
5.	Ismailov Kamoliddin Saidaxmadovich	O'zbek hujjatli kinosida tarixiy va zamonaviy prinsiplar	41
6.	Qalandarov Izzat Omonboyevich	Kino ishlab chiqarish va prokat tizimi tushunchasi hamda uning kino sanoatidagi o'rni	49
7.	Sobirov Samandar Sobir o'g'li	Shaxs madaniy ehtiyojlari shakllanishida milliy qo'shiqchilik san'atining madaniyatshunoslik talqini	59
8.	Арипов Хуршид Қобилович	Чолғу ижрочилиги санъатини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар ва унинг илмий-назарий асослари	69
9.	Samadov Rahmatulla Sunatullayevich	Doira usullarini notatsiyalash muammolari va an'anaviy ritmik formulalarni yozma qayd etish tizimlarining qiyosiy tahlili	76
10.	M. Shukurlayev	Activities of karakalpak dance ensembles and creative-methodological research of ballet masters	84

O‘zbekistonda kinooperatorlik san’atining dastlabki izlanishlari

Meliqo‘ziyev Iqbol Mamasodiqovich

Toshkent shahridagi “S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti” filiali direktori, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
professor, kinooperator-kinorejissyor
e-mail: iqbol.1981.nozxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda o‘zbek kinooperatorlik san’atining shakllanishi, o‘ziga xos an’analarini yuzaga kelishi, badiiy maktabi paydo bo‘lishi, ijodiy uslublar yaratilishi kino san’atining har bir davriga xos badiiy ifoda tili bilan bog‘liqlikda kechdi.

Kuzatilganlardan ko‘rinadiki, o‘zbek kinooperatorlik sohasining san’at darajasiga ko‘tarilishi va o‘z an’analarini yaratilishida katta ahamiyat kasb etdi. Kinooperatorning tafakkur darajasi texnika vositasi takomilidan ustun turadi.

Yuksak rivojlangan texnika hamisha ijodiy muvaffaqiyat garovi deb bilish operatorlik sohasini biryoqlama tushunishdir.

Kalit so‘zlar: operator, san’at, tarix, o‘bektiv, fotokamera, rang, yorug‘lik, kompozitsiya, simmetriya, kino, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, badiiylik, tasviriy yechim.

Первые поиски в области кинооператорского искусства в Узбекистане

Директор Ташкентского филиала Всероссийского государственного университета кинематографии имени С. А. Герасимова, доктор философии (PhD) по искусствоведению, профессор, кинооператор-кинорежиссёр
Меликузиев Икбол Мамасадыкович

Аннотация: В данной статье процесс формирования узбекского кинооператорского искусства, становление его самобытных традиций, появление художественной школы и создание творческих стилей рассматриваются во взаимосвязи с художественно-выразительным языком, характерным для каждого исторического этапа развития киноискусства.

Проведённый анализ показывает, что становление узбекской кинооператорской деятельности на уровне искусства и формирование собственных традиций имели большое значение для развития национального кинематографа.

Уровень профессионального мышления кинооператора превосходит степень совершенства технических средств. Рассматривать высокоразвитую технику как неизменную гарантию творческого успеха означает односторонне и упрощённо понимать сущность операторского искусства.

Ключевые слова: Оператор, искусство, история, объектив, фотокамера, цвет, свет, композиция, симметрия, кино, кинооператорская школа, творческая личность, художественность, визуальное решение

The Initial Explorations of Cinematographic Art in Uzbekistan

Director of the Tashkent Branch of the S. A. Gerasimov All-Russian State University of Cinematography, Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies, Professor, cinematographer and film director

Ikbol Mamasodikovich Melikuziev

Abstract: This article examines the formation of Uzbek cinematography, the emergence of its distinctive traditions, the development of a художественная school, and the creation of creative styles in close connection with the artistic and expressive language characteristic of each historical period of cinema.

The analysis demonstrates that the elevation of Uzbek cinematography to the level of an art form and the establishment of its own traditions played a significant role in the development of national cinema.

The level of a cinematographer's creative and intellectual thinking surpasses the degree of technical advancement of the equipment. To regard highly developed technology as a constant guarantee of creative success reflects a one-sided and simplified understanding of the essence of cinematographic art.

Keywords: Cinematographer, art, history, lens, camera, color, light, composition, symmetry, cinema, school of cinematography, creative individual, artistry, visual solution.

KIRISH

Kinematograf yurtimizga kirib kelar ekan, tasvir san'ati dastlab fotografiyadan boshlandi. XIX asrdan Yevropaning turli o'lkalaridan kelgan operatorlar kamerasi nigohi qadimiy shaharlarimiz, xalqimiz turmushi, ko'cha va bozorlarga qadaldi. Turkiston o'lkasiga safarbar qilingan yevropalik sayyoh va o'lkashunoslar Buxoro, Samarqand, Toshkent shaharlarini suratga oldilar, ko'chalar, karvonsaroylar, bozorlar, kishilarning yurish-turishi kadrlarga muhrlandi.

Ana shunday ilk fotograflardan biri "Anton Murenko (1837-1875) bo'lib, u 1858 yilda polkovnik N.Ignatevning harbiy-diplomatik safari vaqtida "ochiq muzeylar shahri" – Xiva ko'rinishlarini suratga olgan. Uning izdoshlaridan biri Stanislav Nikolaev 1837 - yilda Toshkentda ilk fotografiya atelesiga tamal toshini qo'ygan"¹. Chet el madaniyatining kirib kelishi mahalliy aholi

¹ Каримов Н. Илк ўзбек фотографи. <http://www.e-tarix.uz/milliyat-insholari/maqolalar/374-ilk-fotograf>.

o'rtasida turlicha qabul qilindi, qarshi va betaraflar bilan bir qatorda hayrihoh, qiziquvchilar ham bo'ldi.

Professor N.Karimov o'rgangan arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, "1910 - yilda birgina Toshkentning o'zida 20 ta fotografiya atelelari mavjud"² bo'lgan ekan. Yana shu olim ma'lumotlariga ko'ra, yuqoridagi ro'yxatga 1902-yil 14-aprelda Shayxontahur dahasining Hovuzbog' mahallasida ochilgan "Ilhomjon Inog'omovning musulmon fotografiyasi" ham kiritilgan. Bunday qator omillar mahalliy xalq orasida suratga olish kasbiga ishtiyoqmandlarni paydo qildi. "Chetdan kelgan operatorlar tub aholining tashqi ko'rinishi tasvirga oldilar. Haqqoniy turmush tarzi, ularning yuz-ko'zidagi ifoda, hayoti, muammolarining asl negizini Xudoybergan Devonovdek hech kim suratga tushira olmagan"³.

Xudoybergan Devonov – birinchi o'zbek fotografi edi.

U 1879 - yili Xorazmda ziyolilar oilasida tug'ilgan. Bolalikdan qo'shiq aytish va raqsga tushishga ishqiboz bo'lib, san'atga qiziqishi ham oilada shakllangan. Ma'lum bo'lishicha, ko'plab adabiyotlarda yozilganidek, Xudoybergan Devonov Peterburgda emas balki, "Xivadan 25 kilometr narida bo'lgan "Oq machit" qishlog'iga joylashgan nemislar koloniyasi bilan aloqa o'rnatib, ulardan foto va kinokamera bilan muomala qilishni o'rganadi"⁴. Nemislarning mennonit urug'idan bo'lgan Vilgelm Pinner bilan uchrashuv X.Devonovning kelajak taqdirini belgilab bergan. Pinner yoki "Panar buva" o'zbek yigitining iqtidorini anglab, uni foto bilan tanishtirdi. Xudoybergan Devonov shaxsiy hayotini o'rganib, uni ko'rgan-bilganlar hamda qarindoshlari bilan uchrashgan H.Akbarov mana bunday yozadi, "X.Devonovning yaqin qarindoshi Hasan Chitkarev "Oq machit" qishlog'ida o'ttiz-qirqa yaqin nemis xo'jaligi mehnat va ma'rifat sohasida faoliyat ko'rsatgani "mulla Pinner" esa nemis tilini ikki yil davomida Xudoyberganga o'rgatganini, so'ngra foto-kino ishlariga e'tibor berganini aytgan edi"⁵.

X.Devonov fotograf sifatida Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz va uning hamrohlari bilan Peterburgga safar qiladi. Rossiyada fotokinostudiyalar faoliyati bilan tanishadi, xorijiy firmalar vakolatxonalaridan grammofon, stereoskop, "Rathe Rremer" kinoapparati va boshqa zarur anjomlar sotib oladi. Fotografiya va operatorlik san'ati bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Uni tasvirga olgan Xiva hayotiga oid bir qancha fotosuratlar va kino

² Ўша манба.

³ Абул- Касымова Х., Тешабаев Дж., Мирзамухаммедова М. Кино Узбекистана. – Ташкент: изд. Г.Гуляма, 1985. - С.11

⁴ Акбаров Х. Кино ва телевидение: креатив таълим жараёни. – Тошкент: Musiqa. 2012. – 84 б.

⁵ Ўша манба.

lavhalari - ilk o'zbek kinotasmalaridandir. "Feruz davrida u metraji katta bo'lmagan kinolavhalarni suratga olib, negativ va pozitivni uy sharoitida ximikatlar bilan qayta ishlab, Xivaning gavjum joylarida, bozor va maydonlarida bepul ko'rsatgan"⁶. X.Devonov tomonidan olingan suratlar hujjatlik xarakteri bilan diqqatga molik bo'lib, hayotni pardoqlab, bo'yab emas, balki o'ta haqqoniy ko'rsatganligi, kishilarning yuz ifodasini to'laqonli bera olganligiga ko'ra o'sha davr ruhiyati, odamlar kayfiyati-holatini o'rganishda muhim manbadir. Kinoshunos N.Karimova monografiyasida X.Devonovning "Xalq sayli"⁷ fotosurati berilgan. Mazkur surat etnografik ahamiyati va o'sha davr muhitini bera olishi bilan bir qatorda kompozitsiyasi, tabiiy yorug'likning belgilanishi, jonli hayot manzarasini ifoda etishiga ko'ra nihoyatda qimmatlidir.

USULLAR

1917-1920 - yillarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ko'plab ziyolilir qatori X.Devonov hayotiga ham ta'sir qildi. "Suratga olinayotgan hamda ko'rsatilayotgan xronikal kadrlar qattiq nazorat ostiga olindi, davr ziddiyatlarini, zo'rovonlik siyosatining xunuk ko'rinishlarini tasmaga muhrlash taqiqlangani bois kinoning qaldirg'och arbobi faollik ko'rsatolmadi. U operator sifatida emas, kino-foto murabbiysi sifatida ish olib bordi"⁸. H.Akbarov Xudoybergan Devonov suratga olgan tasvirlarni sho'rolar davri kinopublitsisti Malik Qayumov kadrlari bilan o'zaro solishtirgan va ilk kinooperator ishidagi hayotiylikni alohida ta'kidlagan edi, "Xudoybergan Devonov yaratgan hayotiy kinolavhalarda changdan, loydan bir-birini tanimas holga kirgan xorazmliklar qish kunlari tuproq va qumga to'lgan anhorlarni tozalamoqda, ..yupun kiyingan, yalangoyoq holda bir-biriga goh tuproq, goh tosh uzatayotganlarning horg'in chehralari aks etgan. Devonovni suv oqimi emas, tomorqasi uchun obi – hayotga yo'l ochayotganlarning qudratli oqimi ko'proq qiziqtirgan"⁹. O'z kamerasi obektini haqqoniy hayotni ko'rsatishga qaratgan birinchi o'zbek operatorining taqdiri fojiali kechdi, sovet hokimiyati uni millatchilikda ayblab, surgun qildi, 1938 yilda esa otib tashlandi. "Sobiq "NKVD" arxivida saqlanayotgan tergov qaydnomalarida, X.Devonov ataylab hayotimizning ko'rimsiz manzaralarini suratga olib, ingliz razvedkasiga yetkazib turgan, sotsialistik tuzumdan Xorazmshoh davrini afzal ko'rgan, deb yozilgan"¹⁰. X.Devonov tashkiliy-amaliy va ijodiy faoliyatini O'zbekistonda yangi kinooperatorlik san'atining ilk qadami sifatida

⁶ Ўша манба. - 88 б.

⁷ Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. - Ташкент: San'at, 2016. – С. 56.

⁸ Акбаров Х. Кино ва телевидение: креатив таълим жараёни. – Тошкент: Musiqa. 2012. - 87 б.

⁹ Ўша манба. б- 96 .

¹⁰ Ўша манба. б - 88 .

baholash mumkin. U yangi texnik kashfiyotning kommunikativ, ma'rifiy va ma'naviy imkoniyatlarini ko'ra bilgan hamda ulardan

oq-qora, ovozsiz kino chegarasida foydalangan ilk o'zbek kinooperatori sifatida esga olinadi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga harakatlanuvchi fotografiya kirib keldi va mahalliy aholi orasida "shayton surat", "afsungarlar qo'yayotgan attraksion", "illyuzion" sifatida qarshi olindi. "1901 - yil 18 - mart, kech soat 08:00. Samarqand shahridagi Sherdor madrasasining marmar toshlar bilan bezalgan keng hovlisiga mingga yaqin kishi yig'ilgan. Bugun bu yerda birinchi marta "harakatchan fotografiya" – kinematografiya seansi bo'ladi. Oq surpdan ekran yasaldi va asetilen yog'dusi bilan ishlaydigan bahaybat apparat ishga tushdi. Apparatdan birdaniga qandaydir "sehrli" nur chiqdi-yu, oq pardada stansiyaga yaqinlashayotgan poyezd, yelib, chopib borayotgan otlar, turli shahar manzaralari paydo bo'la boshladi. Tomoshabinlar bir necha daqiqa davomida allaqancha voqealarni tasvir etgan harakatchan fotosuratlarni ko'rib, hayratda qoldilar"¹¹. Keltirilgan misoldan minglab odamlar hayratini qozongan narsa fotosuratning harakatlanishi, jonlanishi ekanligi va bu o'z navbatida kinokamera ortida turgan inson yaratgan mo'jizadan iboratligi ma'lum bo'ladi. Turkiston o'lkasida dastlab 5-10 daqiqali kichik seanslar ko'rsatilgan bo'lib, tez orada sinematograf o'ziga xos sarmoya manbayiga aylandi. Katta shaharlarda bir qator kinoteatrlar paydo bo'lib, ularda xorij mamlakatlarining turli saviyadagi filmlari bilan bir qatorda o'lkada olingan ayrim kartinalar ham ko'rsatila boshlandi.

"1905 - 1912 yillarda Turkiston shahar-qishloqlarini suratga olish uchun xorijiy kinokompaniya vakillari kelishadi. Bular orasida kinokamerasi bilan Yevropa va Osiyoni kezib chiqqan afsonaviy fransuz kinooperatori Feliks Mesgish ham bor edi. 1933 - yilda uning "Kinoapparat tutqichini aylantirib" (Vertya ruchkoy kinoapparata) deb nomlangan yodnomalar kitobi nashr etiladi. Kitobda operator Turkiston o'lkasiga qilgan sayohatini mana bunday eslaydi, - Men Minorai Kalon zinalarini bosib chiqishga jur'at etdim. ... Bu muqaddas shaharda turib namozga chaqiruvchi azonni tinglash nihoyatda qiziqarli. Quyosh nuri yog'du sochib turarkan men panoramali syomkaga hozirlanaman. Oldingi plandagi arkka, "Bolaxon" katta masjidiga va qadimda gunohkorlar tashlab yuborilgan "O'lim minorasi"ga obektiv nigohini qarataman... F.Mesgish Samarqanddagi suratga olish ishlari haqida yozib, turli epizodlar, ko'rinishlar, qadim shaharning maishiy hayoti manzaralarini

¹¹ Акбаров Х. Сеҳрли ёғду. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт, 1977. – 5 б.

tasvirlaydi...¹²

N.Karimovanning Turkistonga xorijiy operatorlar kelib, hujjatli xronikalarni suratga olgani hamda bu lavhalar yerli xalqqa namoyish etilgani haqida keltirgan faktlari nihoyatda ahamiyatlidir. Mazkur manbalar *birinchidan*, XX asr boshlarida yurtimizda olingan kinotasvirlar kishilarni “shayton o‘yin, illyuzion” kabi tushunchalarini tarqatib, sinematografga bo‘lgan ishonch va qiziqishlarini shakllantirgani, ularni yangi san‘atga birmuncha yaqinlashtirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. *Ikkinchidan*, sohada tajriba orttirgan operatorlarning yurtimizga kelib, kutilmagan joylarda va vaziyatlarda suratga olishlari o‘ziga xos panoramalar qilishi, turli planlarni qo‘llashidek sohaning spetsifik xususiyatlarini namoyon etganliklari, kinokadrni o‘rganish borasida ahamiyatli bo‘lishi mumkin. *Uchinchidan*, dini, madaniyati, turmush tarzi, qiziqishlari butunlay o‘zgacha bo‘lgan kinooperatorning mutlaq begona yurtga kelib tasvirga olishi mahalliy kishilar uchun odatiy, ko‘nikma bo‘lib qolgan muhitga boshqacha ko‘z bilan qarashi, o‘z maishiy turmushiga tashqaridan nigoh solishiga xizmat qilishi mumkin.

Dastlabki davrda kinooperatorlar nigohi nimalarga tushgani va qanday tasvirlar ko‘rsatilgani qiziq, albatta. Tadqiqotchi N.Karimovanning o‘rganishicha, “Turkestanskije vedomosti” gazetasi 1912-yil avgust, oktabr, noyabr oylarida Turkiston o‘lkasida suratga olingan bir qator kinokartinalarning ko‘rsatilishi haqida xabar qilib boradi. Ularning syujeti turlicha bo‘lib, jumladan, Turkiston shaharlari ko‘rinishi; bepoyon cho‘ldagi kanal qurish ishlari; “Xiva” kinoteatridan Kaufman xiyoboniga qadar ko‘chalarda sayr qilib yurgan kishilar; poyezdning vokzalga kirib kelishi va jo‘nab ketishi; Rossiya Imperatorining taxtga o‘tirgan kuni munosabati bilan harbiy qo‘shinlar namoyishi; Toshkentning markaziy ko‘chalarini aks ettirgan tasvirlar shular jumlasidandir”¹³.

Kino-sinematograf tasvirlari, albatta, har qanday ssenariyning aralashuviziz faqatgina rejissor va operatorning ishi ekanligini takidlash lozim. “Filmlar 5-7-10 minutgina davom etgan kino tarixining dastlabki davrlarida ssenariylar bo‘lmagan edi, deb yozadi X.Abulqosimova, sahnalashtiruvchi rejissorlar bo‘lajak film nima haqida bo‘lishini, ya’ni faqat mavzuni bilganlar xolos. Suratga olish chog‘ida bu mavzu rejissor o‘ylab chiqargan tartibda ochib berilgan”¹⁴.

1924 - yil Buxoro Xalq Respublikasi hamda Leningrad Kinobirlashmasi “Sevzapkino” o‘rtasida shartnoma imzolandi. Bu shartnoma asosida rus-buxoro do‘stlik birlashmasi “Buxkino” tashkil topdi. Bu davrda o‘lkada soha mutaxassislari

¹²Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. - Ташкент: San‘at, 2016. – С. 34

¹³ Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. - Ташкент: San‘at, 2016. - С.34.

¹⁴Абулқосимова Х. Кинотеледраматургия асослари. – Тошкент: ЎзДСИ, 2009. – 6 б.

ham, texnik anjomlar ham mavjud emas edi. Shu bois rejissor, operator, rassom va aktyorlar boshqa mamlakatlardan taklif etildilar, texnik vositalar chetdan olib kelindi. “Turkiston xalqini asosan savodsiz deb bilgan tuzum rahnamolari barchaning ongiga darhol yetib boradigan sodda tasvir, yuzaki syujet, primitiv yechimni ta’minlovchi o’ziga xos missionerlarni o’lkamizga yuborib, ulardan “O’lim minorasi” (1925), “Moxov xotin” (1927), “Makrli changal”(1932) kabi o’nlab badiiy filmlarda o’zlari ilgari surgan siyosiy konsepsiyaning badiiy ifodasini ta’minlashni talab etdilar. Bunday mahsulot mahalliy xalq vakillari ishtirokida bunyod etilishi, ayniqsa, o’zbekning libosi, yurish-turishi, xatti-harakatlarini, imo-ishorasini ko’rsatishdek uncha og’ir bo’lmagan vazifani bajarishga qodir bo’lgan tipajlardan foydalanish yo’llari izlandi”¹⁵. Kinoning ommaviy san’at turi ekanligi dastlab chorizm, keyinchalik sho’rolar hukumatining yurtimizda olib borgan siyosatiga nihoyatda qo’l keldi. Kino targ’ibot-tashviqotchilik faoliyatini keng ko’lamda olib bordi. Biroq shu bilan birgalikda kino yaratish texnologiyasi, tasvirga olish madaniyati ham dastlabki yaratilgan filmlar orqali kirib kelganligini qayd etish lozim.

O’lkamiz tabiati, quyoshning obektivga to’g’ridan - to’g’ri kuchli ta’siri suratga olishda murakkabliklar tug’diradi. Shu o’rinda mazkur murakkab o’ziga xoslikka aynan dastlabki yillardagi rus operatori mahorati orqali yechim topilgani diqqatga molik. “Sharq yulduzi” kinofabrikasida suratga olingan “Quyoshli baxt” hujjatli filmida operator N.Gasilov bu muammoni hal etadi. Rossiya tabiatning mayin yog’dularida suratga olishga o’rganib qolgan operator bu masalani yechar ekan, “naturada suratga olish uchun yorug’lik qaytargichlar (otrajatellar)dan foydalanadi. Ko’zgular yetishmaganligi bois yorug’lik qaytargichlar o’rniga operator so’zanalarni ishlatgan”¹⁶. Ta’kidlash joizki, quyosh nuridan bu tariqa foydalanish hozirga qadar suratga olish amaliyotida keng qo’llanadi.

Kinematograf sir-sinoatlarini tobora o’zlashtirish filmlar yaratish jarayonlari bilan bog’liqlikda kechdi. Bu jihatdan 1927 yilda suratga olingan “Ikkinchi xotin” filmi tahlilida N.Karimovanning operator V.Dobryanskiy san’atini alohida ta’kid etib, bildirgan fikrlari diqqatga molik, “Mazkur film yuksak did va o’lchov asosida muvaffaqiyatli qurilgan kadrlari bilan ajralib turadi. O’z navbatida ifodali rakurslar topish ustida qunt va sabot bilan izlangani seziladi. Operatorning yoritish uskunalaridan foydalanish mahorati diqqatga molik. Filmida nafaqat yirik planlar, balki portret xarakteridagi o’rta planlar ham ifodali chiqqan”¹⁷. N.Karimova film munosabati bilan

¹⁵ Акбаров Х. Кино ва телевидение: креатив таълим жараёни. – Тошкент: Musiqa. 2012. - 92 б.

¹⁶ Файзиев Х. Овозсиз кинематографдаги операторлик санъати тарихидан. – Тошкент: ЎзДСИ, 2009. 92 б.

¹⁷ Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. - Ташкент: San’at, 2016. – С. 98.

“Pravda Vostoka” gazetasida berilgan taqrizdan parcha keltiradiki, unda operator ishiga katta baho berilgan: “O‘zbek kinosining yangi filmidan tomoshabin nima kutishi mumkin? Kartina o‘ziga jalb qilolmaydi, syujet jo‘n, yangi emas, tezda unutiladi. Ammo operator V. Dobrjanskiyning tasvirlari yaxshi. Eski turmush qoldiqlariga xos maishiy hayot ko‘rinishlarini mahorat bilan qamrab olgani katta taassurot qoldiradi. O‘zbekistonga yaqinda kelgan rejissor Doronin esa O‘rta Osiyo maishiy hayotiga chuqur kirib bora olmagan, chinakam turmushni aks ettirmagan, biroq uni batamom noto‘g‘ri talqin qilgan deb ham bo‘lmaydi, bir qadar yaqinlashish yo‘lini tutgan”¹⁸.

Tadqiqot ishlarida bu yillarda yaratilgan filmlarning qimmatini asosan tasvirlarda ekanligi qayd etiladi. Ma‘lumki, filmlar asosan naturada suratga olingan bo‘lib, o‘z navbatida tabiiy muhit, shahar ko‘chalari, ko‘rinishlari, liboslar, turli bezaklar u yoki bu tarzda ko‘hna kadrlarda muhrlanib qolgan. “Endilikda kinoning alohida poetikasi bilan bir qatorda 1920-1930-yillardagi qadim Toshkent ko‘chalari, uylar, etnik tipajlar, liboslar, an‘anaviy hunarmandchilik, kashtachilik, zargarlik buyumlari aks etgan kinokadrlar muhim ahamiyat kasb etadi”¹⁹.

Ma‘lumki, kinooperatorning tasviriy yechim yaratishdagi hammaslagi rassomdir. “1920-yillar oxiri 30-yillar boshlarida o‘zbek kinematografiyasida teatr rassomlari B.Chelli, G.Sentorn, rangtasvirchi rassom S.Fedorchenkolar faoliyat yuritishgan. O‘zbek kinosining dastlabki davrlarida bu rassomlar ijodi muhim o‘rin tutgan. Lekin u davrda kinodagi rassomning faoliyati lentaga tushirilayotgan epizod uchun rekvizit tanlash, ba‘zi hollarda esa teatr qonuniyatlariga javob beruvchi eskiz yaratish bilan cheklangan. Bu eskizlar tarixiy, etnografik yoki geografik shart-sharoitlar tasavvurini uyg‘otsa, rassom o‘z vazifasini bajardi deb hisoblangan. Shu sababli yuqorida tilga olingan rassomlar ijodi hozirgi zamon o‘zbek kino dekoratsion san‘ati rivojida, bu san‘at an‘analari o‘zagini barpo etishda unchalik ahamiyat kasb etmagan”²⁰.

Operator faoliyati kino san‘atining barcha davrida birdek muhim bo‘lganligini dastlabki shakllanishdan boshlab keyingi rivojlanish jarayonlariga qadar kuzatish mumkin. Obektivning sezgir nigohi kinematograf rivojining har qanday davrida oddiydan murakkabga tomon o‘sib borib, o‘z xususiyatlari va vositalarini namoyon etdi. Shu o‘rinda kinoshunos H.Akbarovning quyidagi fikrlari diqqatga molik, “Soveskiy yekran” jurnalida “Ravot qashqirlari” filmining rejissori Kezimir Gertel tipaj jihatidan to‘g‘ri keladigan kinoaktyorlarni topish imkoniyatiga ega

¹⁸Правда Востока, 14 декабря 1926 года.

¹⁹Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. - Ташкент: San‘at, 2016. - С. 98

²⁰Расулов С.Экран санъатида тасвирий ечим ва унинг асослари. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. – 110 б.

bo‘lmaganimiz tufayli ssenariyni aktyor o‘yiniga emas, harakatga (bu yerda rejissor kinematografik harakat va obrazli tasvirni nazarda tutgan bo‘lsa kerak-H.A.) moslab yozdik, deydi. .. Bu o‘sha yillardagi o‘zbek kinosidagi aktyor muammosini ko‘rsatadi”²¹. Keltirilgan misoldan ma’lum bo‘ladiki, aslida film harakatli kadrlar jamlanmasini tashkil etib, kadrning funksiyasi esa tasvirlash, ta’kidlash, belgilash, aniqlash, izohlash kabi ko‘plab qirralarni o‘zida umumlashtiradi.

1927-yilda suratga olingan “Ravot qashqirlari” filmida rejissor K.Gertel va postanovkachi operator A.Dorn tasvirga tushirish texnikasi, vositasi, suratga olish uslubi, umuman film yaratish amaliyotining o‘ziga xos jihatlarini namoyon etganlar. Operator A.Dorning “Rathe Rremer” kamerasida suratga olingan bir qarashda sodda kadrlari, rakurslar, panoramalar, fokus siljishlari film syujetining rivoji, talqin xarakteri, g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishini ochib berishga xizmat qilgan. Film Chimyon tog‘larida suratga olingan bo‘lib, bog‘ va dalalar, quyoshning zarrin yog‘dusi kadrlarni boyitib, operatorga katta imkon bergan. Ta’kidlash joizki, N.Gasilov, A.Dorn singari operatorlarning quyosh nuridan samarali foydalana bilishidek mahorati keyinchalik boshqa ijodkorlar tomonidan ham qo‘llanilib, D.Demuskiy tomonidan O‘zbekiston kinooperatorlik maktabiga asos solinganida ham tasvirga olishning yetakchi sifatlaridan biri bo‘lib qoldi.

Ma’lumki ovozsiz filmda syujet yo‘nalishi, voqealar drammatizmi, qahramonlar xarakteri asosan tasvir orqali ifoda etiladi. “Ravot qashqirlari” filmi Karomat ismli qizning qarz evaziga boyga xotin qilib berilishidek murakkab taqdiri haqida hikoya qiladi. Syujet yo‘nalishi, qahramonlar tabiati, voqealar dinamikasi A.Dorn tasvirlarida o‘z aksini toparkan, Karomatning boy tomonidan tahqirlanishi, Karomat va Jalil, Karomat va Sodiq, bosmachilar bilan konfliktli vaziyatlarni ko‘rsatishda operator murakkab rakurslarga, yirik va o‘rta planlarga ko‘proq e’tibor qaratgan. Shu tariqa rejissorning bosh maqsadi, filmdan ko‘zda tutilgan fikr, g‘oya, qahramonlar fe’l atvori, to‘qnashuvlar mohiyati ochib berilgan. Tadqiqotchi M.Mirsoatova “Ravot qashqirlari” filmi haqida “Soveskiy yekran” gazetasining 1927-yil 5-fevral sonida V.Bulax degan muallif tomonidan yozilgan taqrizdan quyidagi fikrlarni keltiradi, “Filmning muvaffaqiyati-tasviriy jihatdan boyligi, kadrlarning bir-biriga uzviy bog‘langanligi, o‘xshatishlardan, so‘z va tasvir munosabatlaridan unumli foydalanilganidadir. Filmda o‘zbek xalqi, hayoti, tabiati qanday bo‘lsa shundayligicha, haqqoniy tasvirlangan. Bu yerda ortiqcha bo‘rttirish, to‘qima obrazlarga o‘rin berish hollari bo‘lmagan”²².

²¹ Акбаров Х. Сехрли ёғду. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт, 1977. – 27 б.

²² Мирсоатова М. Малик Қаюмов ижоди ва кинопублицистикада маҳорат масалалари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. Тошкент: 2000 б.-12 .

Mazkur asar rejissor va operator hamkorligini ifoda etib, badiiy filmda postanovkachi operator suratga olish guruhining asosiy figurasi sanalmish rejissorga hammaslak, hammuallif ekanligini ko'rsatdi. H.Akbarovning "Sovetskiy ekran" jurnalidan olgan iqtibosidan quyidagilarni o'qiymiz, "Rejissor K. Gertel mana bunday deydi: asar mening O'zbekistondagi birinchi ishim. Filmida o'zbek xalqi hayoti haqidagi maishiy kartina suratga olishni ko'nglimga tugib, shu maqsadda eng chekka, olis qishloqni tanladik. Bu yerdagi tabiatning Sharqona go'zalligi va hashamati Dorn ikkimizga kadr kompozitsiyasini belgilab berdi"²³.

Bu davrda o'zbek kinostudiyasida tayyorlangan badiiy filmlar o'zining siyosiy-mafkuraviy, g'oyaviy-badiiy xarakteridan qat'iy nazar, kino texnikasini o'rganish, tasvirga olish madaniyatini shakllantirish, kinematografiya jabhasini o'zlashtirish yo'lida ahamiyatli edi. Mamlakatimiz hududida ilk badiiy filmlarning yaratilishida ssenariychi va rejissorlar D.Basaligo, M.Doronin, I.Chertel, O.Frelis, N. Klado kabi ijodkorlar faoliyat olib bordilar. Ular "Ikkinchi xotin", "Ravot qashqirlari", "Chodir", "Moxov qiz", "Yopiq furgon", "Masjid gumbazlari ostida", "So'nggi bek", "Avliyo qizi" singari birinchi o'zbek filmlarini yaratdilar. Mazkur filmlar badiiyati borasida kinoshunoslar o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Shu bois ularga to'xtalib o'tirmaymiz, lekin bu asarlarning ilk o'zbek kino ijodkorlari shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatganini qayd etamiz. Filmlarning yaratilishida rus kino arboblari bilan birga yosh o'zbek kinematografchilari ham ishtirok etdilar. Nabi G'aniyev, Sulaymon Xo'jayev, Ergash Hamroyev, Komil Yormatov, Malik Qayumov, Yo'ldosh A'zamovlarning milliy kinosan'atimiz ravnaqi yo'lidagi izlanishlarida dastlabki davrda yaratilgan filmlar, ulardagi operatorlik va rejissorlar izlanishlari ahamiyatli bo'lganini ta'kidlash lozim.

1937-yil rejissor A. Usolsev-Garf va operator V.Simbirsevlar "Qasam" deb nomlangan birinchi o'zbek ovozi filmini suratga oldilar. Unda 1926-yildagi yer-suv islohoti, ayollarning ozodlik harakatlari, batraklar hayotidagi o'zgarishlarga nazar tashlangan. Aktyorlar Asad Ismatov (Azim), Shahodat Rahimova (Saodat), Lutfixon Sarimsoqova (Ona) va boshqalar obrazlar ruhiyatini, ichki kechinmalarni jamiyat o'zgarishlariga nisbatan fikr va qarashlarga uyg'un holda chuqur ochib berganlar. Ijrochilarning teatr aktyori ekanligi obraz yaratishda o'z ahamiyatini ko'rsatib, qahramonlar xarakterli xususiyati yuz, ko'z ifodasi, nigohlar, mimikalarda aks etgan. Mazkur filmida rus kinematografining eng tajribali operatorlaridan biri Vasiliy Simbirsev ishlab, qahramonlar tabiatini to'laqonli ochib berishda yirik plan va o'rta planlar ahamiyatini ko'rsata bilgan. Operator teatr aktrisasi Shahodat Rahimovanning ichki kechinmalarini mimika, yuz-ko'zidagi ifodalari va xatti-harakati vositasida,

²³Советский экран, 1925. № 5. - С. 12.

turli planlar va rakurslar orqali yetkazib bergan. Ayniqsa, paranjisini tashlab ketayotgan qizni olomon tomonidan la'natlanishi epizodi o'zining ta'sirchanligi bilan diqqatga molik.

O'rta plandagi kadrda Saodat – o'zbek ayoli zulmatni tark etib, paranjini uloqtirib, hurlik, ozodlik izlab, odamlar orasidan tez-tez yurib ketayapti. Atrofdan yog'ilayotgan haqoratli so'zlardan uyalib, yuzlari lov-lov yonib, ko'zlari bilan o'z xaloskorini axtaradi. Ommaviy sahnalardagi kishilarning qahr-g'azabli nigohlari panorama qilinadi, so'ngra kamera qizning tasvirida to'xtaydi. Qizning o'rta plandagi mag'rur ko'rinishidan, olomonning umumiy planiga o'tiladi, kishilar qizni toshbo'ron qila boshlaydilar. Qadamlarini tezlatarkan, qiz yiqiladi, yuz-ko'zi loyga belanganicha, olomonga chap berishga harakat qiladi. Mazkur epizodda voqealar rivojini musiqa ohanglari kuchaytirib turgani holda kadr kompozitsiyasi unga munosib belgilanganini ta'kidlash joiz.

Yana bir lavhada paranji tashlaganini eshitgan qaynona o'zbek ayollari ko'nikib ketgan to'rt devor ichidagi hayotni tan olmagan kelinining jasoratini ich-ichidan yoqlab, qo'lida pichoq bilan xotini Saodatga tashlanmoqchi bo'lgan o'g'lining oyoqlaridan mahkam ushlab oladi. Ona timsoli L.Sarimsoqova ijrosida o'tkir dramatik kechinmalarda talqin etilgan. Operator V.Simbirsev turli rakurslar hamda yirik va o'rta planlardan foydalanib, ona obrazidagi aktrisa ichki tug'yonini yorqin tasvirlagan.

Asad Ismatov yaratgan Azim obrazidagi qat'iyatsizlik, ikkilanish, adashishlar orqali o'zi, o'zligini tanigan, oqibat oq-qorani ajratgan yigit xarakteri voqealar rivojida ochib boriladi. Filmni suratga olish jarayonida rejissor A.Usolsev-Garf bilan Nabi G'aniyev ijodiy hamkorlik qiladi.

“Rossiyaning qator malakali rejissor va operatorlari milliy kinoning shakllanishi hamda yosh mutaxassislarni tarbiyalashda faollik ko'rsatdilar. Biroq ijodlarida ular yevropacha an'analarni targ'ibotchilari bo'lib qoldilar. O'z ishlarida o'zbek tomoshabini emas, balki yevropacha va rossiyalik keng omma didiga moslashishdi”²⁴. Mazkur filmlardan ko'zda tutilgan g'oyaviy-siyosiy maqsad nechog'lik yuzaga chiqqanidan qat'iy nazar, suratga olishning texnik-texnologik jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davr filmlarining ko'pchiligi milliy kino ishlab chiqarishni shakllantirish va yosh kinematografchilarni tarbiyalashda diqqatga molik bo'lib, Respublikaga rus kino ishlab chiqarish madaniyati va tajribasini olib kirdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Odessa kinostudiyasi, “Mosfilm”, “Lenfilm”, “Belarusfilm” va Kiyev kinostudiyalarining kinoguruhleri Toshkentga evakuatsiya

²⁴ Акбаров Х. Кино ва телевидение: креатив таълим жараёни. – Тошкент: Musiqa. 2012.- 95 б.

qilindi. Shu munosabat bilan amalga oshirilgan ijodiy hamkorliklar o'zbek milliy kino san'atida professionallik qaror topishida ahamiyatli bo'ldi. Qisqa vaqt ichida Toshkent kinostudiyasi filmlar ishlab chiqarish uchun zarur uskunalar bilan jihozlandi, ijodkor kino mutaxassislarini birlashtirdi. Studiya uchun qo'shimcha binolar ajratildi. O'zbek kino ijodkorlari atoqli rejissorlar M.Romm, Y.Protazanov, I.Keyfis, V.Braun, E.Pensil, operatorlar D.Demuskiy, A.Pankratev, A.Ginzburg, V.Simbirsev, A.Lavrik, M.Krasnyanskiy kabilar bilan muloqotda bo'lish, kasb sirlarini o'rganish, birgalikda ijod qilish orqali o'ziga xos maktabni o'rgandilar. Ayrim rejissorlar ilgari boshlagan filmlarini Toshkentda yakunlashga kirishdilar. Ana shu jarayonlarni kuzatish, ayrim hollarda hatto ishtirok etish, o'zbek kinochilari tomonidan mahorat sirlarini o'zlashtirishida e'tiborli bo'ldi. Jumladan, L.Lukovning "Ikki jangchi", "Aleksandr Parxomenko", M.Rommning "№217 Odam", I.Keyfisning "Uning nomi Suxe Botir" filmlari Odessa, Kiyev kinostudiyalarida boshlanib, tasvirga olish ishlari Toshkent kinostudiyasida yakunlangan.

Bu davrda rus kinooperatorlik san'atining yorqin namoyondasi D.Demuskiyning o'zbek kinorejissori Nabi G'aniyev bilan hamkorlikda "Tohir va Zuhra" filmini yaratishi tarixiy voqea bo'lgan deyish mumkin. O'sha yillari yaratilgan "Nasriddin Buxoroda" (rejissor Y.Protazanov, operator D.Demuskiy), "Alisher Navoiy" (rejissor K.Yormatov, operator M.Krasnyanskiy) kabi filmlar mamlakatimizda kino san'ati asoslarini shakllanishida ahamiyatli bo'ldi.

1930-yillar boshida o'zbek kinematografiyasiga Varsham Yeremyanning (1897-1963) kirib kelishi rassomning film yaratilishidagi alohida o'rni va rolini tushunib yetishga turtki bo'ldi. U keng ijodiy salohiyatli rassom, nozikta'b rangtasvirchi va usta grafik, hayotning ijtimoiy xususiyatlarini o'tkir his qiluvchi ijodkor edi. "Rassom V.Yeremyanning "Nasriddin Buxoroda", "Nasriddinning sarguzashtlari", "Tohir va Zuhra" kabi filmlarini tomosha qilib, filmdagi muhitning xilma-xilligini, unda sodir bo'layotgan voqealar ruhiyatining muhit bilan chambarchas bog'liqligi, rassom yaratgan manzaralarda romantikani, milliy koloritni, milliy arxitektura tizimining voqelik ruhiga moslashtirilganligini, personajlar kostyumlaridagi obraz tipajlarini ochishda ularga berilgan urg'uning aniqligi"²⁵ diqqatga molik.

Mamlakatimizda taniqli kinorejissor, rassom va operatorlar ijodiy hamkorligida yaratilgan tasviriy yechim, kadr kompozitsiyasi, nur va soylarning qo'llanishi borasidagi izlanishlar natijasida muayyan ijodiy maktab shakllanishi uchun poydevor yaratildi. O'z ijodining katta qismini o'zbek kinosan'ati taraqqiyotiga bag'ishlagan, milliy madaniyatimiz ruhiyatini chuqur bilgan, tasviriy

²⁵ Расулов С. Экран санъатида тасвирий ечим ва унинг асослари. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – 111 б.

yechim yaratishda o'lkamiz tabiatidan kelib chiqib, uslubiy vositalar, munosib kolorit, badiiy ifoda tilini yaratgan Daniil Demuskiy O'zbekiston kinooperatorlik maktabiga asos soldi. U aslida Ukrainada tug'ilgan bo'lib, uzoq yillar o'zbek yurtida yashab, ijod qildi va ko'plab shogirdlar tayyorladi.

Har qanday soha singari operatorlik san'ati ham dastlabki davrda turli uslubiy yo'nalishlar, muayyan shakllar va keyinchalik davrlar sinovidan o'tgan vositalar ta'sirida shakllana boradi. Bu jarayon texnikaning o'zgarib borishi bilan muvofiqlikda kechdi. Dastlabki yillarda turli rejissor va operatorlarning kirib kelishi, ularning suratga olishdagi turli uslubi, muayyan stereotiplarning paydo bo'lganligi o'zbek kinosida ham o'ziga xos badiiy ifoda tili yaratish mumkinligini ko'rsatar edi. Operator D.Demuskiy ishlarida, ayniqsa rejissor N.G'aniyev bilan hamkorlik qilgan "Tohir va Zuhra" filmida tasviriy yondashuv milliy xususiyat kasb etdi. Bunga bir tomoni bungacha suratga olingan rejissor Y.Protazanovning "Nasriddinning sarguzashtlari" filmi ham turtki bo'lgan deyish mumkin. Milliy kolorit, nur va soyalar, issiq ranglarning ko'p qo'llanishi, quyosh nuridan maksimal darajada foydalanish film tasviriy yechimida alohida ko'zga tashlandi.

D.Demuskiy tasvirlarida o'lkamizning tabiiy ranglari, quyosh yog'dusining mo'l-ko'lligidan unumli foydalanish, yorug'lik, nur va soya qo'llanishidagi yorqin kombinatsiyalar, portret va peyzaj yaratishdagi chuqur ifodaviylik o'z aksini topib, milliy operatorlik maktabi vujudga kelayotganidan darak berardi. Uning koloristik palitra va obrazlar dunyosi yaratishda qo'llagan ranglari, nur va soyalar xarakteri hududimiz tabiatidan kelib chiqib, milliy xususiyatlarni ifoda etdi.

Daniil Demuskiy asos solgan O'zbekiston kinooperatorlik maktabi boshqa ijodiy maktablardan farqi va o'ziga xoslik jihatlari bilan ajralib turardi. Shu o'rinda operatorlik maktablari xususida ikki og'iz so'z. Sobiq sho'rolar hududida ish boshlagan respublikalarda kinooperatorlik asosan ikkita maktab an'alariga tayangan, bular Moskva va Leningrad operatorlik maktablaridir.

E.Tisse asos solgan Moskva kinooperatorlik maktabi "jivopis uslubi" (jivopisniy stil') deya ataladi. Uning xarakterli jihati tasvirning mo'yqalam kartinalari darajasida namoyon bo'lishi, anturaj, liboslar, qiyofalar ifodasida tasviriy san'atga yaqinlashishdadir. Unda tabiat, intererlar, liboslar go'zal va ko'rkamligini naturada yoki pavilonda tabiiy yorug'lik orqali alohida diqqat bilan ko'rsatishga e'tibor qaraladi. Suratga olingan tabiat ko'rinishida quyoshning tabiiy nurlari, xonada esa narsa va buyumlardagi asliylikni nur-soyalar orqali yorqin ko'rsatilishi diqqatga molik. S.Bondarchuk va operator A.Petriskiyning "Urush va tinchlik" (1965-1966.), rassom M.Bogdanov), A.Zarxi va operator L.Kalashnikovning "Anna Karenina" (1967.), rassom A.Borisov) filmlarida Moskva maktabi o'zining yorqin an'alarini

ko'rsatadi. Bal epizodlari aks etgan hashamatli saroylar, personajlar qiyofasi va liboslaridagi ifodaviy bezaklar filmlar ko'rimlilikini oshiradi. Moskva maktabi kinokomediylarda ham o'zini namoyon etib, E.Ryazanovning "Ishqdagi ishq" (operator V.Naxabsev, 1977-y.) filmidagi dekoratsiyalarda (rassom A.Borisov) aks etadi. Unda statistika idorasi o'z davridagi bir xillikdan ko'ra anchayin boyitilgan dizaynda ko'rsatiladi.

A.Moskvin asos solgan leningrad maktabi esa kamerlilik xarakteri bilan ajralib, insonning borlig'i bilan tabiiylikda aks ettirishga qaratiladi. Uning zaminida A.Moskvinning S.Eyzenshteyn rejissorligidagi "Ivan Grozniy" filmidan boshlangan obrazli-emotsional ifoda, yirik planlilik, portret kompozitsiyalar yaratish uslubi yotadi. Mazkur filmning naturadagi syomkalarida E.Tisse ishlagan bo'lsa, pavilonda A.Moskvin suratga olgan. Operator tasviriy plastikaning barcha vositalari (yorug'lik, rang, kadr tonalligi)ni muvofiqlashtirib, yirik planda ifodalaydi. Bunda so'zsiz yoki kam so'zli psixologik portret yaratish orqali tasvirga chuqur ma'nodorlik olib kirishga e'tibor qilinadi. 60-yillarda mazkur maktab o'zining ko'tarilish davrini boshidan kechiradi, shu yillarda yaratilgan soxta g'oyaviylik asarlar haqida Olga Shervud "Filmlarning g'oyaviy mazmuniga nisbatan tasvirlarda haqiqat ko'proq aks etgan"²⁶, deya baholagan edi. Bundan ko'rinadiki, mazkur maktab asosida insonning tabiiy muhiti asli holatda ko'rsatilishiga e'tibor qaratilgan.

Badiiy-ifoda tilining ko'pqirraligi, hamisha yangi ifoda vositalari izlashga undaydi.

O'zbek kinooperatorlik maktabining asosiy o'ziga xoslik jihati filmning g'oyaviy mazmuni va uning dramaturgik-rejissorlik traktovkasiga tasviriy shakl, badiiy ifodaviylikni organik ravishda birlashib ketishiga e'tibor qaratishdan iborat. Rakurs va kadr kompozitsiyasi aktyor ijrosining jo'shqinligini hamda materialga bo'lgan mualliflik yondashuvini kuchaytirishga xizmat qilsa, nur va soyalar qahramonlar xarakterini yorqin ifodalash, kameraning harakatchanligi esa dramaturgiyaning emotsional ta'sirini oshirish vositasi sifatida qo'llaniladi.

O'zbek kinooperatorlik maktabi tabiiy intererlardan foydalanish, quyosh yog'dusiga uyg'unlashish, real kishilar va tabiiy fonlar ko'rinishida aktyorlar hamda tipajlarni birlashtirish, tasvirning hujjatlilik fakturasiga ko'ra boshqalardan ajralib turadi. Mazkur maktab ijodkorlari yuksak professionalizm va turli badiiy usullarda hayotiy materialni chuqur tasviriy ifodasini ochish hamda talqin qilishda uslublar rang-barangligiga asoslanadi.

O'zbek badiiy filmlaridagi tasvirlar o'z koloriti bilan ajralib, unda sharqona xususiyatlar bo'y ko'rsatadi, Behzod miniatyuralaridagi boy kompozitsiya va serjilo

²⁶ Бутовский Я. Операторское искусство в период застоя. Э-журнал "Сеанс" 2010, 24 ноября.

bo'yoqlar uyg'unligi his qilinadi. Ma'lumki, miniatyuralar Sharq xalqlarining boy fantaziyasi, go'zallikni uyg'unlikda tasvirlash, kompozitsion yaxlitlikni aks ettiruvchi badiiy-estetik hodisa bo'lib, muayyan doira o'lchamini to'g'ri tanlay bilgan holda, undagi jism yoki buyumlarni belgilangan o'lchamga chiroyli joylashtira bilishdan iborat.

Kinokadrda asarning janri, mavzusi, g'oyaviy yo'nalishi, tuzilishi, ranglar tanosibi, shakl va voqealar mutanosibligi jihatdan uyg'unlik kasb etishi nazarda tutiladi. Tarixdan ma'lumki, Behzod ijodida tasvir kompozitsiyasi, talqin yo'llari chuqur ramziy umumlashma xarakterida kechadi, bir-biriga zid va keskin ranglarni nozik muvozanat hamda uyg'unlikda ifodalash san'ati diqqatni tortadi. Bulardan kelib chiqib, o'zbek kino tasvirlarida kompozitsiya Behzod miniatyuralaridan ta'sirlanganini qayd qilish mumkin.

D.Demuskiy boshlagan O'zbekiston operatorlik maktabi M.Krasnyanskiy va A.Pann ijodida yanada sayqallanib bordi. Sohaga mahalliy mutaxassislar kirib kelgan 50-yillar oxiri 60-yillarda mazkur maktab o'zining qonuniyatlariga, yashovchan an'analarga ega ekanligi ko'proq sezildi. Bu davrda oliy ma'lumot olib, sohaga kirib kelgan Anvar Mukarramov, To'lqin Ro'ziyev, To'lqin Bobojonov, Miron Penson, Hotam Fayziyev, Dilshod Fatxullinlar mahorati aynan D.Demuskiy boshlab bergan an'analarni davom ettirishda namoyon bo'ldi.

1950-yillar "O'zbekfilm"da katta hajmdagi filmlar yaratila boshlandi. Studiyaga K.Yormatov, Y.A'zamov, Z.Sobitov, L.Fayziyev, A.Beknazarov kabi qator rejissorlar bilan bir qatorda M. Karyukov, M.Krasnyanskiy, V.Morozov, N.Ryadov, K.Brovkin kabi operatorlar o'zining yangi tasviriy yechim ustida izlanishlari, munosabatlarini olib keldilar.

Rejissor Y.A'zamovning "Maftuningman" musiqali komediyasida operator M.Krasnyanskiy suratga olgan kadrlar tasvir texnikasini o'zlashtirish yo'lidagi izlanishlar sifati oshgani, mahorat darajasi o'sganligini ko'rsatdi. Yosh iqtidorlarni izlash, yoshlarning o'z yo'li, maslagi, kechinmalari yo'lidagi kurashlari mavzusini yoritgan mazkur filmda operatorning har bir qahramon xarakteristikasi, ichki olami, dunyoqarashi, fe'l atvoridagi o'ziga xoslikni tasviriy ifoda vositalari orqali to'laqonli yoritib berganligi kuzatildi. Mazkur quvnoq komediya obrazlar mohiyatini yoritishda tasvirchining portret texnikasiga asoslanib ish tutganligi o'z navbatida yangi qiyofalarni kashf etishga imkon berganligini ko'rsatdi. San'at Devonov, Turg'un Azizov, Klara Jalilova kabi aktyorlarning obraz yaratish borasidagi ichki imkoniyatlarini ochishda ham mazkur filmning betakror tasvirlari nihoyatda ahamiyatli bo'ldi.

Bu davrga kelib, ilgari Shayxontaxurning Beglarbegi madrasasida 1925 yilda “Sharq Yulduzi” kinofabrikasi” nomida ochilib, 1936 yildan “O‘zbekfilm”, 1941 yilda Toshkent badiiy filmlar kinostudiyasi va nihoyat 1958 yildan yana “O‘zbekfilm” nomini olgan mamlakatning asosiy kinostudiyasi Chilonzor dahasiga ko‘chib o‘tdi (1961y). Studiya eng yangi texnologiya bilan jihozlangan ishlab chiqarish sexi va ikkita zamonaviy pavilonga ega bo‘ldi. Ijodiy va texnik xodimlar tarkibiga Rossiya shaharlaridagi kino san’ati oliy o‘quv yurtlarini tamomlagan yuksak malakali mutaxassislar kelib qo‘shildi. Bu yillarda o‘zbek kinosida kinooperatorlik san’atining yangi namoyandalari shakllanib, qizg‘in ijodiy faoliyat boshlandi. Shu davrdagi kino ustalari M.Qayumov, A.Saidov, A.Tursunov, Sh.Zohidov, A.Rahmonovlar yoniga H.Fayziyev, D.Fatxullin, L.Traviskiy, T.Eftimovskiy, A.Ismoilov, N.Ataullaev, D.Salimov, T.Bobojonov, T.Nodirov, N.Azimov, M.Ismoilov va boshqalarning qo‘shilishi o‘zbek kinooperatorligi rivojida ahamiyatga molik bo‘ldi. Ijodiy uslublari, yangicha vositalar, tasviriy topilmalar izlashdagi rang-barangliklar kuzatildi. O‘zbek kinooperatorlari film mavzularini kengaytirish, yangi uslublarni topish, tasvir imkoniyatlarini oshirish borasida izlandilar.

60-yillarda H.Fayziyevning Sh.Abbosov rejissorligidagi “Sen - yetim emassan!” (1962), “Toshkent – non shahri” (1967), T.Ro‘zievning “Qaydasan Zulfiya?” (rej.) A.Hamroyev, 1964), A.Pannning “Sinchalak” (rej.) L.Fayziyev, 1964), “Ulug‘bek yulduzi” (rej.)L.Fayziev, 1964), D.Fatxullinning “Oq-oppoq laylaklar” (rej.) A.Hamroyev, 1966), “Nafosat” (rej.)E.Eshmuhammedov, 1967) A.Mukarramovning “Sayyod qo‘ng‘irog‘i” (rej.)Y.A‘zamov, 1966), M.Pensonning “Inqilob chavandozlari” (rej.)K.Yormatov, 1968) filmlarida bu an‘analar barqarorligi o‘z aksini topdi.

Y.A‘zamov rejissorligida M.Krasnyanskiy va A.Mukarramovlar tomonidan suratga olingan “O‘tgan kunlar” badiiy filmida milliy maktab o‘zining tugal tasdig‘ini topdi. Mazkur filmda Mixail Krasnyanskiy pavilonda ishlagani holda, Anvar Mukarramov tabiatda suratga olgan. Filmni ko‘rgan tomoshabin ikkita katta ijodkor, mahoratli operatorlar bitta maktab an‘analariga sodiq holda ishlab, betakror uyg‘unlik yaratganligini his qiladi. Bu uyg‘unlik esa ularning film tasviriy yechimida kolorit, yorug‘lik, nur va soya qo‘llashdagi o‘ziga xosligida, tabiiy ranglardan foydalanishida, rakurslar, planlar o‘zgaruvchanligi, birinchi va oldingi planlarni to‘ldirishga ko‘proq diqqat qaratishida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa mazkur kartina tasvirlari mamlakatimiz kinooperatorlik maktabidagi an‘analar barqaror ekanligini yorqin ifoda etdi.

Rus kinosida S.Urusevskiyning “Turnalar uchganda” filmida kamerani qoʻlda tutib olingan tasvirlaridan keyin 60-yillarda koʻpchilik bu usulga eʼtibor qaratdi. Iliqlik davri filmlarida buningday usul oʻzbek kinosida ham ekspressiv tasvirlar paydo boʻlishiga ilhomlantirdi. E.Eshmuhammedovning “Nafosat”, A.Hamroyevning “Oq-oppoq laylaklar” filmida D.Fatxullin kadrlari joʻshqinligi, romantikasi, samimiyati, borliq goʻzalligidan bahramand boʻlishga undashidek hissiy-emotsional taʼsiri bilan eʼtiborni tortdi.

Sh.Abbosovning operator A.Pann, H.Fayziyev bilan hamkorlikdagi “Mahallada duv-duv gap”, “Sen - yetim emassan!” filmlari milliy kino sanʼatimizning oʻz yoʻliga ega boʻlganligini koʻrsatish bilan bir qatorda, kinooperatorlik jabhasida mazmunan teran, oʻziga xos ijodiy maktab yaratilganligini ifoda etdi. Bu maktab asosida tasvir poetikasi va polifoniyasi, uslubiy rang-baranglik, dramatik tasviriy yechimlarga erishish kabi badiiy xususiyatlar oʻz aksini topdi.

70-yillarga kelib, kinokamera yana “qoʻzgʻalmas” holatga qaytdi, ilgari kadr ichi montajining qoʻllanishi deyarli sezilmay, bir xildagi turgʻun kamera tasvirlari koʻpaydi. Filmlardan rakurs ekspressiyasi va kamerani qoʻlda tutib suratga olishlar yoʻqoldi. Tasvirda muayyan yoʻnaltirilgan joyni yoritish (zonalʼnoe osveshenie) dan yoyiq tarqalgan yomshoq chiroq yogʻdularidan foydalanishga oʻtildi. Aslida muayyan joyni yoritish 20-yillar operatorlik mahoratiga xos edi. Bu yillarga kelib, Hotam Fayziyev, Abdurahim Ismoilov, Timur Qayumov, Najmiddin Gʻulomov, Shuhrat Mahmudov kabi operatorlar, Varshaam Yeremyan, Baxtiyor Nazarov singari kinorassomlar ishlarida muayyan ijodiy anʼanalar doirasida faoliyat olib borish kuzatildi. A.Ismoilovning “Jazirama quyosh ostida” (rej.)A.Xachaturov, 1970.), “Shiddat” (rej.)U.Nazarov, 1971.), “Bu Qoʻqonda boʻlganda” (rej.)U.Nazarov, 1977.), T.Qayumovning “Shum bola” (rej.)D.Salimov, 1976.), H.Fayzievning “Yilning toʻrt fasli” (rej.)X.Ahmar, 1976.), Sh.Mahmudovning “Ajoyib xayolparast” (rej.)R.Botirov, 1977.), A.Pannning “Zulmatni tark etib” (rej.)Y.Aʼzamov, 1973.), “Chinor ostidagi duel” (rej.)M.Abzalov, 1978.) filmlaridagi tasviriy yechim badiiy xususiyati milliy maktabning boy anʼanalarini ifoda qildi.

Rejissor Sh.Abbosovning 1977-yilda 17 qismli “Olovli yoʻllar” filmi televideniye uchun suratga olingan. Unda kinooperatorlar A.Ismoilov hamda T.Eftimovskiylar hamkorlikda ishlaydilar. Televizion sanʼatning tasviriy yechim borasida oʻz talablari mavjud boʻlib, mazkur filmda ular inobatga olingani holda, kompozitsiya, plastika, yorugʻlik, nur va soyalar xarakterida kinokadr vositalarida unumli foydalanilgani kuzatiladi. Ushbu film oʻzbek kinooperatorlik maktabining serqatlamligi, ijodiy eksperimentlar uchun ochiq ekanligi, anʼanalar doirasida yangi

uslubiy tamoyillar yaratish imkoni kengligini ko'rsatdi. Mutaxassislar bu asarda ko'p qismli televizion badiiy film imkoniyatlari ochilganligini qayd qildilar.

80-yillarda N.G'ulomov, H.Hasanov, R.Ibrohimov, D.Abdullayevlarning kirib kelishi milliy operatorlik maktabi mavjud an'alarini yangi vositalar bilan yanada boyitishga asoslandi. Rejissor M.Abzalov va operator N.G'ulomovlar hamkorligida yaratilgan "Suyunchi" (1982), "Kelinlar qo'zg'oloni" (1984), U.Nazarov rejissorligida operatorlar N.G'ulomov va H.Hasanov hamkorligida suratga olingan "Bardosh" (1982), rejissor A.Hamroevning operator R.Ibragimov tomonidan suratga olingan "Vodillik kelin" (1984), rejissor H.Fayziyev va operator H.Hasanovning "Oq bino oqshomlari" (1988), rejissor I.Ergashev va operator R.Ibragimovning "Temir xotin" (1990) kabi filmlari shular jumlasidandir.

Rejissor Latif Fayziyev hindistonlik kinoijodkorlar bilan hamkorlikda filmlar yaratganida o'zbek kinoperatorlari hind hamkasblari bilan birgalikda suratga olishga jalb qilindilar. Mazkur jarayon ko'plab murakkabliklariga qaramay, bir-biriga hissiy-emotsional xususiyatlari bilan o'zaro yaqin bo'lgan madaniyatlar mushtarakligini ifoda etdi. "Ali bobo va qirq qaroqchi sarguzashtlari" (1980) filmi "Iglfilmz" bilan hamkorlikda yaratilgan, ssenariy mualliflari B.Saakov va P.Bakshi. Filmda rejissorlar L.Fayziyev va U.Mexra, operatorlar L.Traviskiy, P.Pereyra, rassomlar E.Kalandarov va B.Podar ishlaganlar.

"Sevgi afsonasi" (1984), "Ovchi" (1990) filmlari ham mana shu kinostudiya bilan birgalikda yaratilgan bo'lib, rejissorlar L.Fayziyev va U.Mexra operatorlar D.Abdullayev, L.Traviskiy, Abdu Gashid Paku, rassom S.Ziyomammedovlar bilan hamkorlik qildilar. Mazkur qo'shma loyihalarning tasviriy yechimida hind filmlaridagi yorqinlik, peyzajning metaforik imkoniyatlaridan foydalanish, kompozitsiyaning keng planliligi o'zbek kinosidagi perspektivalar, sharq miniatyuralariga xos kompaktlik bilan o'zaro uyg'unlashib, betakror mushtaraklik yuzaga kelgani kuzatiladi.

Mustaqillik davriga kelib, H.Fayziyev, A.Ismoilov, R.Ibrohimov, H.Hasanov, R.Galiyev, N.G'ulomov, U.Hamroyev, S.Mirzaahmedov, M.Soliev, T.Mansurov kabi kinooperatorlar ijodi davom etdi. Ular yangi texnik-texnologik jarayonlarda milliy maktab an'alarini saqlab qolish, boyitish, shuning bilan birgalikda yangi uslubiy vositalar va ijodiy tendensiyalar yaratishga urinayotgan, izlanuvchan yosh operatorlarni tarbiyalash ishiga ham e'tibor qaratdilar. O'zbek operatorlik maktabining mavjud an'analari davom etib, yangicha uslub va uslubiy vositalar hisobiga kengaydi. Bu davrda keng tarmoq otgan yangi texnik va texnologik jarayonlar, raqamli texnikaning kirib kelishi kadr sifatiga, qolaversa, badiiy film tasviriy yechimi, hissiy-estetik quvvatiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Shu tariqa O'zbekistonda XX asrning 20-yillari oxirida kirib kelgan kinooperatorlik san'ati badiiy madaniyatning o'ziga xos hodisasi sifatida shakllandi, rivojlandi. Mazkur san'atni rivojlanish yo'lini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkinligi tahliliy xulosalardan ma'lum bo'ldi:

1-bosqich – kinooperatorlik san'atining kirib kelishi, sohaning shakllanish davri (1929) (1940-)yillar boshlariga qadar)

2-bosqich – o'zbek kinooperatorlik maktabining qaror topish davri (1940-1960- yillar oxiriga qadar)

3-bosqich – milliy maktabning ustuvor an'analari rivojlanishi davri (1960-1980 -yillar oxiriga qadar)

4-bosqich - milliy kinematografda yangi uslub va tamoyillarning paydo bo'lishi davri (1980-yillar oxiridan to bugungi kunga qadar bo'lgan jarayon).

Kinooperatorlik san'atining rivojlanish bosqichlaridan ma'lum bo'ladiki, bosib o'tilgan davrda o'zbek kinooperatorlik san'ati taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Suratga olishning alohida nuqtalari, rakurslarini topish, optikaning eng maqbulini tanlash orqali operator ekranda o'z dunyosini yaratdi, olamni o'ziga xos tarzda ko'rish maylini shakllantirdi. Shu tariqa kino atrofimizni o'rab olgan voqelikka chuqur kirib borish, tahlil etib qarash imkoniyatini yaratdi. Bu esa boshqa san'at turlariga nisbatan kinoda inson va olam obrazini to'laroq anglashga olib keldi.

XULOSA

Kinooperator kamera va obektiv yordamida ijod qilib, ssenarist, rassom, rejissor g'oyasini va aktyor fiziologik-ruhiy holatini tomoshabinga yetkazib beradi. Agar teatr spektaklida sahnadagi aktyorlarning jonli muloqoti tomoshabinga ishtirok effektini bersa, badiiy filmda bu vazifa operator tasvirlariga yuklanadi.

Tasvir vositasida nafaqat jarayonni kuzatish, balki qahramonlardan birining nigohi bilan ikkinchisiga qarash yoki aksincha ko'z, yuz, nigohlar vositasida javob qilishidek so'zsiz, sirli muloqotlar guvohi bo'lish mumkin.

Kinokameraning sezgir obektivi qahramonlar kechinmasini beixtiyor tomoshabin qalbiga ko'chirar ekan, ularning quvonchidan sevinib, qayg'usidan birgalikda iztirob chekish holati yuzaga keladi. Shu tarzda teatr sahnasidagi aktyorlardan farqli o'laroq, badiiy filmda qahramonlar kechmishlariga ularning o'ziga xos nigohi sifatida bog'lanish orqali ishtirok effekti paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dr. Tadjibayeva O.K.; Melikuziev I.M.; Khusanov Sh.T., Issues of the using the Special Effects as means of Visual expression in the Cinema art. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7, 2, 2020, 2204-2215.
2. Iqbal Melikuziev. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554-1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
3. Iqboljon, M., & Tirkashaliyevich, K. S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat.A2948.109119
4. Iqboljon Melikuziev. (2016). Duties of a Cinematographer in Creating a Film. Journal of Literature and Art Studies, 6(7). <https://doi.org/10.17265/2159-5836/2016.07.013>
5. Melikuziev, I. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1554–1567.
6. Meliq'oziev, I. . (2023). TARIXIY FILMLARDA SYUJET RIVOJI VA KOMPOZISIYA. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 3(2),126–133. <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/10042>.
7. HATAM FAYZIEV -A BRIGHT REPRESENTATIVE OF THE UZBEK CINEMATOGRAPHY SCHOOL Iqbal Mamasodikovich Melikuziev Uzbek State Institute of Arts and culture, "Voicedirecting and operatic skills" head of the department, doctor of philosophy in art Sciences (PhD), professor, e-mail: iqbol.1981.nozxon@gmail.com <https://doi.org/10.5281/zenodo.7509691>.

ЎЗБЕК КИНОСИДА ПРОДЮССЕРЛИК ТИЗИМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ИЛК РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Таджиханов Авазхон Бахадирович

Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирининг биринчи ўринбосари, Тошкент шаҳридаги “С.А.Герасимов номидаги Бутунроссия давлат кинематография университети” филиали “Кинооператорлик маҳорати” кафедраси
доценти, кинопродюсер

Аннотация. Мазкур илмий мақолада Ўзбек киносида продюсерлик тизимининг шаклланиши, унинг тарихий илдизлари, совет давридаги марказлашган кино ишлаб чиқариш модели, мустақилликдан кейин продюсерлик институтининг вужудга келиши ҳамда илк ривожланиш босқичлари кенг қамровда таҳлил қилинади. Шунингдек, давлат кино сиёсати, Кинематография агентлиги фаолияти, хусусий киностудиялар пайдо бўлиши ва бозор иқтисодиёти шароитида продюсерлик фаолиятининг трансформацияси илмий жиҳатдан ёритилади. Мақолада тарихий-қиёсий, тизимли таҳлил ва манбашунослик усулларида фойдаланилган.

Калит сўзлар: ўзбек киноси, продюсерлик тизими, киноиндустрия, Ўзбеккино, миллий кино, кино сиёсати, бозор иқтисодиёти.

THE ESTABLISHMENT OF THE PRODUCTION SYSTEM IN UZBEKISTAN CINEMA AND THE EARLY STAGES OF DEVELOPMENT

Avazkhan Bakhadirovich Tadjikhanov

First Deputy Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan, Associate Professor of the “Cinematography (Camera Operation)” Department of the Tashkent Branch of the S. A. Gerasimov All-Russian State University of Cinematography (VGIK), Film
Producer

Abstract. This scientific article comprehensively analyzes the formation of the production system in Uzbek cinema, its historical roots, the centralized film production model during the Soviet era, the emergence of the production institute after independence, and its early stages of development. It also scientifically covers the state film policy, the activities of the national Cinematography agency, the emergence of private film studios, and the transformation of production activities in the conditions of a market economy. The article uses historical-comparative, systematic analysis, and source research methods.

Keywords: Uzbek cinema, production system, film industry, Uzbekkino, national cinema, film policy, market economy.

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПРОИЗВОДСТВА ФИЛЬМОВ В УЗБЕКИСТАНСКОМ КИНО И РАННИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

Таджиханов Авазхон Бахадирович

Первый заместитель министра культуры Республики Узбекистан,
доцент кафедры «Операторское мастерство» Ташкентского филиала
Всероссийского государственного университета кинематографии
имени С. А. Герасимова (ВГИК),

кинопродюсер

Аннотация. Данная научная статья всесторонне анализирует формирование системы кинопроизводства в узбекском кинематографе, её исторические корни, централизованную модель кинопроизводства в советскую эпоху, появление производственного института после обретения независимости и его ранние этапы развития. Также научно освещаются государственная кинополитика, деятельность национального Кинематографического агентства, появление частных киностудий и трансформация производственной деятельности в условиях рыночной экономики. В статье используются историко-сравнительный, систематический анализ и методы исследования источников.

Ключевые слова: узбекское кино, система кинопроизводства, киноиндустрия, узбеккино, национальное кино, кинополитика, рыночная экономика.

Кириш

Ўзбек киноси миллий маданиятнинг муҳим таркибий қисми сифатида жамият маънавий ҳаётида алоҳида ўрин тутди. Кино нафақат бадиий санъат тури, балки ижтимоий онгни шакллантирувчи, тарихий хотирани сақловчи ва миллий ғояни тарғиб этувчи кучли восита ҳисобланади. Шу боис кино ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш масаласи ҳар бир даврда долзарб бўлиб келган.

Жаҳон кино амалиётида фильм ишлаб чиқариш жараёни продюсерлик тизими орқали мувофиқлаштирилади. Ўзбек киносида эса ушбу тизим маълум тарихий босқичлардан ўтиб шаклланган. Айниқса, совет давридаги марказлашган давлат модели ва мустақилликдан кейин бозор муносабатларига ўтиш жараёни продюсерлик институтининг пайдо бўлишига асос яратди.

Мазкур мақоланинг мақсади — Ўзбек киносида продюсерлик тизимининг вужудга келиши, унинг илк ривожланиш босқичлари ва тарихий хусусиятларини илмий таҳлил қилишдан иборат. Мақолада кино ишлаб чиқариш жараёнининг институционал асослари, давлат сиёсатининг таъсири ва замонавий продюсерлик фаолиятининг шаклланиши кенг ёритилади.

Ўзбек киноси миллий маданиятнинг таркибий қисми сифатида жамият маънавий ҳаётида муҳим ижтимоий-маданий функцияларни бажаради. Кино санъати нафақат бадиий ижод маҳсули, балки миллий ўзликни англаш, тарихий хотирани сақлаш ва жамиятдаги ижтимоий жараёнларни акс эттирувчи комплекс маданий институт сифатида намоён бўлади. Шу боис кино ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш ва уни бошқариш механизмларини илмий жиҳатдан ўрганиш долзарб аҳамият касб этади.

Жаҳон кино амалиётида фильм ишлаб чиқариш жараёни продюсерлик тизими орқали мувофиқлаштирилади. Продюсер киноиндустрияда ижодий, ташкилий ва иқтисодий жараёнларни бирлаштирувчи асосий субъект сифатида фаолият юритади. Ўзбек киносида эса продюсерлик институти маълум тарихий босқичлардан ўтиб шаклланган бўлиб, унинг ривожланиши мамлакатдаги сиёсий-иқтисодий ўзгаришлар билан узвий боғлиқдир.

Совет даврида Ўзбек киноси тўлиқ марказлашган давлат бошқаруви модели асосида фаолият юритган бўлиб, продюсерликка хос функциялар алоҳида институт сифатида мавжуд бўлмаган. Мустақилликдан кейин эса бозор иқтисодиёти муносабатларига ўтиш жараёни кино соҳасида янги бошқарув механизмларини жорий этишни тақозо этди. Натижада продюсерлик фаолияти миллий киноиндустриянинг муҳим таркибий қисми сифатида шакллана бошлади.

Ўзбек киносида продюсерлик тушунчасининг назарий асослари

Продюсерлик тушунчаси кино соҳасида фильм яратиш жараёнини комплекс бошқариш тизимини англатади. Назарий жиҳатдан продюсерлик тизими фильм ишлаб чиқаришни режалаштириш, молиялаштиришни таъминлаш, ижодий жамоани шакллантириш, маркетинг ва прокат стратегияларини белгилаш каби функцияларни ўз ичига олади.

Ўзбек кино амалиётида мазкур тушунча нисбатан кеч шаклланган бўлса-да, унинг айрим элементлари аввалги даврларда ҳам мавжуд бўлган. Айниқса, совет даврида студия директори, бадий раҳбар ва давлат идоралари томонидан бажарилган вазифалар мазмун жиҳатдан продюсерлик фаолиятига яқин бўлган. Продюсерлик тушунчаси ўзбек кино амалиётига нисбатан нисбатан кеч кириб келган бўлса-да, унинг айрим функциялари аввалги даврларда ҳам мавжуд бўлган. Совет даврида продюсер вазифалари асосан студия директори, бадий раҳбар ва давлат органлари томонидан бажарилган.

Назарий жиҳатдан продюсерлик тизими қуйидаги функцияларни ўз ичига олади:

- фильм ишлаб чиқаришни режалаштириш;
- молиялаштиришни таъминлаш;
- ижодий жамоани шакллантириш;
- прокат ва тарғиб жараёнларини мувофиқлаштириш.

Ўзбек киносида бу функциялар узоқ вақт давомида марказлашган давлат бошқаруви доирасида амалга оширилган.

Совет даврида Ўзбек киноси ва марказлашган ишлаб чиқариш модели

1920–1930 йилларда Ўзбекистон ҳудудида кино ишлаб чиқариш давлат сиёсати доирасида шакллана бошлади. 1925 йилда «Бухкино» студиясининг ташкил этилиши миллий кино тарихида муҳим воқеа бўлди. Кейинчалик ушбу студия «Ўзбекфильм» номи билан фаолият юритди.

Совет даврида кино тўлиқ давлат назоратида бўлиб, молиялаштириш марказий бюджет ҳисобидан амалга оширилар эди. Продюсерлик фаолиятига хос бўлган иқтисодий мустақиллик мавжуд эмас эди. Барча қарорлар сценарийдан тортиб прокатгача давлат идоралари томонидан қабул қилинган.

“Ўзбекфильм” киноконцерн ДУК ва продюсерлик функцияларининг шаклланиши

“Ўзбекфильм”киноконцерн ДУКда фильм ишлаб чиқариш жараёни қатъий режа асосида амалга оширилган. Студия директори ва бадий кенгаш продюсерликка хос вазифаларни бажарган.

Масалан, фильм мавзусини тасдиқлаш, бюджет ажратиш, режиссёрни тайинлаш ва прокат масалалари давлат режасига мувофиқ ҳал этилган. Бу эса ижодий эркинликни маълум даражада чеклаган бўлса-да, барқарор ишлаб чиқариш тизимини таъминлаган.

Мустақилликка қадар бўлган даврда кино бошқаруви хусусиятлари

1980-йиллар охирига келиб совет кино тизимида ислохотларга эҳтиёж пайдо бўлди. Ижодкорларнинг иқтисодий мустақиллиги ва бозор муносабатларига яқинлашиш масалалари кун тартибига чиқди.

Ўзбек киносига ҳам бу жараёнлар сезила бошлади. Айрим фильмлар кооператив асосида суратга олина бошлади, аммо продюсерлик институти ҳали тўлиқ шаклланмаган эди.

Мустақилликдан кейин продюсерлик йўналишининг вужудга келиши

1991 йилда Ўзбекистон мустақилликка эришгач, кино соҳасида ҳам туб ўзгаришлар бошланди. Давлат кино сиёсати қайта кўриб чиқилди, кино ишлаб чиқаришда янги иқтисодий механизмлар жорий этилди.

1996 йилда «Ўзбеккино» давлат агентлигининг ташкил этилиши миллий кинони бошқаришда муҳим қадам бўлди. Ушбу агентлик давлат буюртмаси асосида фильмлар ишлаб чиқаришни мувофиқлаштирди ва продюсерлик фаолияти учун институционал асос яратди.

Илк миллий продюсерлар ва хусусий киностудиялар

1990-йиллар охири — 2000-йиллар бошида Ўзбекистонда илк хусусий киностудиялар пайдо бўлди. Бу эса продюсерлик фаолиятининг амалий жиҳатдан шаклланишига олиб келди.

Илк миллий продюсерлар фильм ишлаб чиқаришда молия, реклама ва прокат масалаларига эътибор қарата бошлади. Бу жараён ўзбек киносига янги босқични бошлаб берди.

Давлат буюртмаси ва продюсерлик муносабатлари

Давлат буюртмаси тизими Ўзбек киносига продюсерлик фаолиятининг ўзига хос моделини шакллантирди. Продюсерлар давлат томонидан ажратилган маблағлар асосида фильм ишлаб чиқаришни ташкил этдилар.

Бу модел ижтимоий аҳамиятга эга мавзуларни экранга олиб чиқиш имконини берди, аммо бозор механизмларининг чекланганлиги айрим ҳолларда тижорий муваффақиятни пасайтирди.

Ижодий эркинлик ва бозор муносабатлари

Продюсерлик тизимининг ривожланиши ижодий эркинлик масаласини ҳам долзарб қилди. Бозор иқтисодиёти шароитида продюсер томошабин талаби ва миллий ғоя ўртасида мувозанатни сақлаши лозим.

Ўзбек киносига продюсерлик таълими ва кадрлар масаласи

Продюсерлик фаолиятини ривожлантириш учун малакали кадрлар тайёрлаш муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтида кино менежменти ва продюсерликка оид фанлар жорий этилган.

Илк ривожланиш босқичларининг умумий таҳлили

Ўзбек киносида продюсерлик тизимининг илк босқичи қийинчиликлар билан кечган бўлса-да, у миллий киноиндустрия шаклланишига замин яратди.

Хулоса

Ўзбек киносида продюсерлик тизимининг шаклланиши узоқ ва мураккаб тарихий тараққиёт жараёни натижасидир. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, совет даврида кино ишлаб чиқариш тўлиқ марказлашган давлат бошқаруви асосида амалга оширилган бўлиб, продюсерликка хос иқтисодий ва ташкилий функциялар студия раҳбарияти ҳамда давлат идоралари зиммасига юклатилган. Бу ҳолат миллий кинонинг мафкуравий ва маданий вазифаларини таъминлаган бўлса-да, бозор механизмлари ва тижорий самарадорликнинг чекланганлиги билан характерланади.

Ўзбекистон мустақилликка эришгандан кейин кино соҳасида амалга оширилган институционал ислохотлар продюсерлик тизимининг вужудга келиши учун зарур шарт-шароитларни яратди. Айниқса, «Ўзбеккино» миллий агентлигининг ташкил этилиши миллий кинони давлат сиёсати доирасида қўллаб-қувватлаш билан бирга, продюсерлик фаолиятининг ҳукукий ва ташкилий асосларини шакллантирди. Бу даврда кино ишлаб чиқариш жараёнида давлат буюртмаси тизими устувор аҳамият касб этди ва продюсерликнинг ўзига хос миллий модели юзага келди.

1990-йиллар охири ва 2000-йиллар бошида хусусий киностудиялар ва мустақил продюсерлар фаолиятининг пайдо бўлиши ўзбек киносида бозор муносабатларига босқичма-босқич ўтиш жараёнини тезлаштирди. Продюсер фильм ишлаб чиқаришда нафақат молиялаштиришни ташкил этувчи шахс, балки ижодий жамоани бирлаштирувчи, маркетинг ва прокат стратегиясини белгилаб берувчи асосий субъект сифатида намоён бўла бошлади. Бу эса миллий киноиндустрияда рақобат муҳитининг шаклланишига хизмат қилди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, Ўзбек киносида продюсерлик тизимининг илк ривожланиш босқичлари қатор муаммолар билан кечган бўлса-да, ушбу жараён миллий кино саноатининг замонавий моделини шакллантириш учун мустаҳкам пойдевор яратди. Айниқса, ижодий эркинлик, миллий ғоя ва томошабин талаби ўртасида мувозанатни сақлаш масаласи продюсерлик фаолиятининг стратегик вазифаси сифатида намоён бўлмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбек киносида продюсерлик тизимининг шаклланиши миллий маданият, давлат кино сиёсати ва бозор иқтисодиёти ўртасидаги ўзаро таъсир маҳсулидир. Мазкур тадқиқот натижалари келгусида миллий киноиндустрияни ривожлантириш, продюсерлик таълими ва амалий фаолиятини такомиллаштириш учун назарий-методологик асос бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

I. Миллий манбалар

1. Каримов И.А. **Юксак маънавият – енгилмас куч.** — Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. **Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари.** — Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
3. Хабибуллаев А. **Ўзбек киноси тарихи.** — Тошкент: Санъат, 2015.
4. Абдуллаев Ш. **Ўзбек киноси: тараққиёт босқичлари ва муаммолари.** — Тошкент: Фан, 2012.
5. Расулов Б. **Мустақиллик даврида миллий кино жараёнлари.** — Тошкент: Akademnashr, 2018.
6. Юсупов А. **Кино ва маданий сиёсат.** — Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг кино соҳасига оид фармон ва қарорлари. — Тошкент, 2017–2023.
8. «Ўзбеккино» миллий агентлиги архив материаллари. — Тошкент.

II. Рус тилидаги манбалар

9. Ждан В.Н. **История мирового кино.** — Москва: Искусство, 2010.
10. Лисса И.А. **Продюсер в киноиндустрии.** — Москва: Юрайт, 2016.
11. Трофименков М. **Кино и рынок.** — Санкт-Петербург: Сеанс, 2014.
12. Разлогов К.Э. **Кино как индустрия культуры.** — Москва: Прогресс-Традиция, 2011.
13. Шнейдер С. **Экономика кино.** — Москва: ВШЭ, 2018.

III. Халқаро (инглиз тилидаги) манбалар

14. Monaco J. **How to Read a Film.** — Oxford: Oxford University Press, 2009.
15. Finney A. **The International Film Business: A Market Guide Beyond Hollywood.** — London: Routledge, 2014.
16. Vogel H.L. **Entertainment Industry Economics.** — Cambridge: Cambridge University Press, 2015.
17. Wyatt J. **High Concept: Movies and Marketing in Hollywood.** — Austin: University of Texas Press, 2013.
18. Miller T., Govil N., McMurria J. **Global Hollywood.** — London: BFI Publishing, 2008.
19. De Vany A. **Hollywood Economics: How Extreme Uncertainty Shapes the Film Industry.** — London: Routledge, 2004.

IV. Электрон манбалар

20. UNESCO. **Cultural Policy and Film Industry Development.** — Paris, 2019.
21. European Audiovisual Observatory. **Film Production and Distribution Trends.** — Strasbourg, 2020.
22. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги расмий сайти материаллари.

Динамика эволюции искусства макама в XX–XXI веках: факторы
исполнительства, композиции и системы музыкального образования

Ташпулатова Икбол Сабирджановна

И.о. профессора кафедры «Исполнительство на макаменных инструментах»
Институт Узбекского национального музыкального искусства имени Юнуса
Раджабий, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье исследуется процесс исторического становления и современного развития узбекского искусства макама как уникального феномена восточной музыкальной культуры. Автор анализирует основные этапы эволюции макамной традиции — от устных форм исполнительства до современных интерпретаций и академической исполнительской практики. В исследовании особое внимание уделяется взаимосвязи традиционных эстетических принципов макама с инновационными процессами, проявляющимися в современной музыкальной практике.

Также в статье раскрываются социально-культурные и художественные факторы, способствующие сохранению и развитию макамного наследия в условиях глобализации и цифровизации. Анализируется роль современных исполнителей, педагогов и исследователей в обеспечении преемственности традиций, а также влияние академического образования и современных технологий на развитие макамного исполнительства. В результате проведенного анализа выявлены механизмы адаптации макамной системы к требованиям времени, пути её интеграции в современное музыкальное пространство и способы сохранения духовно-эстетических ценностей, составляющих основу узбекской национальной культурной идентичности.

Ключевые слова:

узбекский макам, музыкальное наследие, традиция и инновация, исполнительское искусство, культурная преемственность, музыкальная эволюция, этномузыкология.

**XX–XXI asrlarda maqom san’ati evolyutsiyasi dinamikasi: ijrochilik,
kompozitsiya va musiqiy ta’lim tizimi omillari**

Tashpulatova Iqbol Sabirdjanovna

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institute “Maqom cholg‘u
ijrochiligi” kafedrası v.b. professori

Annotatsiya Ushbu maqolada sharq musiqiy madaniyatining noyob fenomeni hisoblangan o‘zbek maqom san’atining tarixiy shakllanishi va zamonaviy rivojlanish jarayoni tadqiq etiladi. Muallif maqom an’alarining asosiy rivojlanish bosqichlarini, ularning og‘zaki ijrochilik shakllaridan tortib zamonaviy talqinlar va akademik ijrochilikka qadar bo‘lgan evolyutsiyasini tahlil qiladi. Tadqiqotda maqomning an’anaviy estetik tamoyillari bilan bugungi musiqa amaliyotida namoyon

bo'layotgan innovatsion jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, globallashtirish sharoitida maqom merosini asrashga xizmat qilayotgan ijtimoiy-madaniy hamda badiiy omillar yoritib beriladi. Zamonaviy ijrochilar, pedagoglar va tadqiqotchilarning an'anaviy davomiylilikni ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, akademik ta'lim va zamonaviy texnologiyalarning maqom ijrochiligiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. O'tkazilgan tahlil natijasida maqom tizimining zamon talablari asosida moslashuv mexanizmlari, uning zamonaviy musiqiy makonga integratsiyalashuvi hamda o'zbek milliy madaniy identifikatsiyasining asosini tashkil etuvchi ma'naviy-estetik qadriyatlarining saqlanish yo'llari aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'zbek maqomi, musiqiy meros, an'ana va innovatsiya, ijrochilik san'ati, madaniy vorislik, musiqiy evolyutsiya, etnomusiqashunoslik.

Dynamics of the evolution of maqom art in the 20th–21st centuries: factors of performance, composition, and the music education system

Tashpulatova Ikbol Sabirdjanovna

Acting Professor, Department of Performance on Maqam Instruments Yunus Rajabiy
Institute of Uzbek National Musical Art, Tashkent, Uzbekistan

Annotation: This article examines the historical formation and contemporary development of Uzbek maqom art as a unique phenomenon of Eastern musical culture in the 20th–21st centuries. The study explores the evolution of the maqom tradition from oral transmission to academic performance and modern interpretations, highlighting the relationship between traditional aesthetic principles and innovative trends in contemporary musical practice.

Special attention is given to socio-cultural factors that contribute to the preservation and development of maqom heritage in the context of globalization and digitalization. The article analyzes the role of modern performers, educators, and researchers in maintaining continuity of tradition, as well as the influence of academic music education and modern technologies on maqom performance. The findings identify key mechanisms of adaptation of the maqom system to contemporary cultural demands, its integration into the modern musical space, and its significance as an essential component of Uzbekistan's national cultural identity.

Keywords: Uzbek maqom, musical heritage, tradition and innovation, performance art, cultural continuity, musical evolution, ethnomusicology.

Ilmiy yangilik

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbek maqom san'ati evolyutsiyasining ijrochilik, kompozitsion amaliyot va musiqiy ta'lim tizimi nuqtayi nazaridan kompleks tarzda o'rganilganidadir. Ilk bor XX asrda shakllangan ijrochilik an'analarning ikki asosiy yo'nalishi — ustoz-shogirdga asoslangan og'zaki an'ana va akademik yo'nalish — bir tadqiqot doirasida qiyosiy tahlil qilinib, XXI asr boshlarida yuzaga kelgan ularning sintezi ko'rsatib berilgan. Maqomni o'qitishda

zamonaviy metodologik yondashuvlar, jumladan, maxsus o'quv kurslari, raqamli arxivlar va analitik tayyorgarlikning yangi shakllari aniqlangan. Shuningdek, zamonaviy bastakorlarning maqom modal tuzilmasi bilan ishlash tamoyillari aniqlashtirilib, maqom faqat saqlanadigan meros emas, balki dinamik rivojlanayotgan badiiy tizim sifatida talqin etiladi.

Asosiy qism

An'anaviy ijrochilik san'ati, xususan, o'zbek maqomi kabi klassik musiqa an'analari asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bebaho madaniy meros hisoblanadi. O'zbek musiqa madaniyatida maqom ijrochiligini saqlash va qayta tiklash jarayoni an'anaga hurmat va ijodiy yangilanish o'rtasidagi nozik muvozanatni talab etadi. Tarixan musiqiy merosni ilmiy o'rganish va badiiy talqin qilish ijrochilarning musiqiy savodxonligi va ifodaviy mahoratini yuksaltirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, zamonaviy ijodiy izlanishlar har bir davrning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettirib, an'anaviy shakllarni yangi badiiy g'oyalar bilan boyitadi. Bu yondashuv an'ananing yaxlitligini saqlagan holda, uning uzluksiz rivojini ta'minlaydi.

XX asr boshlarida o'zbek musiqa san'atida tub o'zgarishlar yuz berdi. Tuhtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Muhammadjon Mirzayev kabi yirik san'atkorlar an'anaga sodiq qolgan holda yangicha ijodiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etdilar. Ularning ijodi texnik mukammallik bilan birga davr ruhini ifodalagan asarlar yaratishga xizmat qildi va keyingi avlod musiqachilari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

XX asr davomida maqom ijrochiligida ikki asosiy yo'nalish shakllandi:

1. **An'anaviy yo'nalish** — og'zaki ijrochilik va ustoz-shogird tizimiga asoslangan;
2. **Akademik yo'nalish** — musiqa maktablari va konservatoriyalar faoliyati natijasida shakllangan.

Birinchi yo'nalish vakillari (Xorazm hamda Farg'ona–Toshkent maktablari ustozlari) maqomning kanonik shakllarini saqlagan bo'lsa, akademik yo'nalish ijrochilari nota yozuvi, ansambl ijrosi va konsert shakllarini kengaytirishga e'tibor qaratdilar. XX–XXI asrlar chegarasida ushbu yo'nalishlar sintezi yuzaga kelib, yangi ijrochilik uslublari shakllandi.

XXI asrda maqom ijrochilik san'ati yangi sharoit va imkoniyatlarga mos ravishda rivojlanmoqda. Yosh ijrochilar orasida maqomga bo'lgan qiziqishning ortishi an'anani saqlash va yangilash jarayonlarini uyg'unlashtirdi. Musiqiy ta'lim tizimining rivojlanishi, ilmiy tadqiqotlarning faollashuvi va turli madaniy ta'sirlarning kengayishi o'zbek musiqiy merosining chuqurroq anglanishi va ommalashuviga xizmat qilmoqda. Maqomning teatr, kino va boshqa san'at turlari bilan integratsiyasi esa uning xalqaro miqyosda tanilishiga yo'l ochmoqda.

So'nggi yillarda yaratilgan metodik qo'llanmalar va audioarxivlar talabalar uchun XX asr ijrochilik an'analarini chuqur tahlil qilish imkonini bermiqda. Bu holat maqom an'analarini akademik asosda o'rgatish jarayonini barqarorlashtirmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek musiqasi bir qator murakkab muammolarga duch kelmoqda. Yangi asarlar ko‘plab yaratilayotgan bo‘lsa-da, ularning oz qismi klassik maqom san‘atiga xos falsafiy va badiiy chuqurlikka ega. Bu yosh ijrochilar va bastakorlarning nazariy hamda amaliy bilimlarini yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, fanlararo hamkorlikni rivojlantirish va o‘zbek musiqasining xalqaro maydondagi ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tuhtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G‘ani Jon Toshmatov, Nabijon Hasanov, Imomjon Ikromov, Muhammadjon Mirzayev, Juraxon Sultonov, Doni Zakirov, Fattokhon Mamadaliev va Orifxon Xotamov kabi san‘atkorlar nafaqat yuksak ijrochilar, balki iste’dodli bastakorlar sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Ularning “Etmasmidim”, “Nazzora qil”, “Yolg‘iz”, “Ey sabo”, “Guluzorim qani?”, “Kezarman”, “Qadimiy usshoq”, “Dardu dilim” kabi asarlari o‘z davrining yuksak badiiy yutuqlari hisoblanadi.

Xulosa

Bugungi kunda O‘zbekistonda maqom ijrochilarini tayyorlash uch bosqichli ta’lim tizimiga asoslangan: bolalar musiqa va san‘at maktablari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari hamda konservatoriyalar. O‘quv dasturlariga intonatsion eshituvni rivojlantirish, maqomning lad-intonatsion tabiatini o‘rganish, klassik repertuar va improvizatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan fanlar kiritilgan.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek maqom san‘ati hayotiyligi an‘ana va innovatsiya o‘rtasidagi uzluksiz muloqotga bog‘liq. Ushbu dinamik jarayon milliy madaniy identifikatsiyani mustahkamlash bilan birga, o‘zbek musiqasining jahon madaniy makonidagi o‘rnini yanada kuchaytiradi.

References

1. Abdullaev, R. Uzbek Maqoms and the Contemporary Musical System. – Tashkent: Fan, 2015.
2. Hamidov, Sh. Maqom Traditions and Children's Musical Creativity. – Tashkent: Ijod, 2019.
3. Jumaniyozova, D. National Values in the Pedagogy of Children's Music. – Samarkand, 2021.
4. Azimov, Kh. Piano Textbook. – Tashkent: O'qituvchi, 1998.
5. The Future of Maqom Executive: Development, Creativity and the Young Generation. (2025). Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(3), 77–83. Retrieved from <https://brightmindpublishing.com/index.php/EI/article/view/179>
6. Tashpulatova, I. S., & Rajabiy, Y. (2024). The Issues of Continuity in Pedagogical Activity in the Field of Music. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 6(11), 224–226. <https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume06Issue11-15>
7. Muminova, G. I. (2024). Teaching the Performance of Maqam Instrumental Music: Reflections and Suggestions. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 6(11), 220–223. <https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume06Issue11>

КИНО САНЪАТИДА ПРОДЮССЕРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ АСОСЛАРИ

Таджиханов Авазхон Бахадирович

Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирининг биринчи ўринбосари, Тошкент шаҳридаги “С.А.Герасимов номидаги Бутунроссия давлат кинематография университети” филиали “Кинооператорлик маҳорати” кафедраси
доценти, кинопродюсер

Аннотация. Мазкур илмий мақолада кино санъатида продюсерлик фаолиятининг назарий-амалий асослари, унинг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари, замонавий киноиндустрияда продюсернинг ўрни ва вазифалари, фильм ишлаб чиқариш жараёнидаги иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий механизмлар таҳлил қилинади. Шунингдек, жаҳон ва Ўзбекистон кино амалиёти мисолида продюсерлик фаолиятининг долзарб муаммолари ҳамда уларнинг ечимлари илмий жиҳатдан асослаб берилган.

Калит сўзлар: кино санъати, продюсерлик фаолияти, киноиндустрия, фильм ишлаб чиқариш, кино иқтисодиёти, маркетинг, дистрибуция.

THEORETICAL AND PRACTICAL BASES OF PRODUCTION ACTIVITY IN THE FILM ART

Avazkhan Bakhadirovich Tadjikhanov

First Deputy Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan, Associate Professor of the “Cinematography (Camera Operation)” Department of the Tashkent Branch of the S. A. Gerasimov All-Russian State University of Cinematography (VGIK), Film
Producer

Abstract. This scientific article analyzes the theoretical and practical foundations of production activity in the film art, its formation and stages of development, the role and tasks of the producer in the modern film industry, economic, organizational and legal mechanisms in the film production process. Also, the current problems of production activity and their solutions are scientifically substantiated on the example of world and Uzbek film practice.

Keywords: film art, production activity, film industry, film production, film economics, marketing, distribution.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В КИНОИСКУССТВЕ

Таджиханов Авазхон Бахадирович

Первый заместитель министра культуры Республики Узбекистан,
доцент кафедры «Операторское мастерство» Ташкентского филиала
Всероссийского государственного университета кинематографии
имени С. А. Герасимова (ВГИК),
кинопродюсер

Аннотация. В данной научной статье анализируются теоретические и практические основы производственной деятельности в киноискусстве, ее формирование и этапы развития, роль и задачи продюсера в современной киноиндустрии, экономические, организационные и правовые механизмы в процессе кинопроизводства. Также на примере мировой и узбекской кинопрактики научно обосновываются актуальные проблемы производственной деятельности и их решения.

Ключевые слова: киноискусство, производственная деятельность, киноиндустрия, кинопроизводство, экономика кино, маркетинг, дистрибуция.

Кириш

Кино санъати жамият ҳаётида муҳим маънавий-маърифий аҳамиятга эга бўлиб, у инсон дунёқарашилини шакллантириш, миллий ва умуминсоний қадриятларни тарғиб этиш ҳамда ижтимоий онгга таъсир кўрсатишда самарали маданий восита ҳисобланади. Шу билан бирга, кино санъати фақат эстетик феномен сифатида эмас, балки юқори иқтисодий салоҳиятга эга ижтимоий-индустриал тизим сифатида ҳам намоён бўлади. Айниқса, глобаллашув ва рақамли технологиялар шароитида кино соҳаси киноиндустрия сифатида шаклланиб, катта молиявий айланмага эга, инвестицион жозибадор тармоққа айланди.

Замонавий киноиндустриянинг ривожланиш жараёнида фильм ишлаб чиқариш, молиялаштириш, тарқатиш ва истеъмол қилиш механизмлари мураккаб тизимни ташкил этмоқда. Мазкур тизимда продюсерлик фаолияти стратегик аҳамиятга эга бўлиб, у ижодий жараён билан иқтисодий ва ташкилий механизмлар ўртасидаги узвий боғлиқликни таъминловчи асосий институт сифатида майдонга чиқади. Продюсер кино лойиҳасининг ғоявий концепциясини шакллантиришдан бошлаб, сценарийни ривожлантириш, молиялаштириш манбаларини жалб этиш, ижодий жамоани шакллантириш, ишлаб чиқариш жараёнини мувофиқлаштириш ҳамда фильмни бозорга чиқариш ва томошабинга етказишгача бўлган барча босқичларни бошқаради.

Шу нуқтаи назардан, продюсер фаолияти кино асарининг нафақат ижодий қийматини, балки унинг иқтисодий самарадорлиги ва ижтимоий таъсирини ҳам белгилаб берувчи ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Бугунги кунда фильмнинг муваффақияти кўп жиҳатдан продюсерлик қарорларининг илмий асосланганлиги, бозор таҳлили ва стратегик режалаштириш даражасига боғлиқ бўлиб қолмоқда.

Шу боис кино санъатида продюсерлик фаолиятини назарий ва амалий жиҳатдан чуқур ўрганиш, унинг илмий-методологик асосларини таҳлил қилиш ҳамда жаҳон ва миллий кино амалиёти билан боғлиқ ҳолда тадқиқ этиш долзарб илмий масалалардан бири ҳисобланади. Мазкур мақоланинг мақсади продюсерлик фаолиятининг моҳиятини очиқ бериш, унинг асосий функциялари ва бошқарув механизмларини илмий таҳлил қилиш, шунингдек, замонавий

киноиндустрия ва Ўзбекистон кино амалиёти мисолида продюсерлик институтининг ўрни ва аҳамиятини асослаб беришдан иборат.

Продюсерлик йўналиши фаолияти тушунчаси ва назарий асослари

«Продюсер» атамаси инглиз тилидаги *producer* сўзидан келиб чиққан бўлиб, «ишлаб чиқарувчи», «ташқил этувчи» маъноларини англатади. Кино соҳасида продюсер фильм яратиш жараёнининг асосий ташаббускори ва ташкилотчиси ҳисобланади.

Назарий жиҳатдан продюсерлик фаолияти қуйидаги фанлар билан узвий боғлиқ:

- менежмент;
- иқтисодиёт;
- маркетинг;
- ҳуқуқ;
- ижодий бошқарув.

Кино назариясида продюсер режиссёр ва бозор ўртасидаги боғловчи бўғин сифатида қаралади. У ижодий ғояни иқтисодий имкониятлар ва томошабин эҳтиёжи билан уйғунлаштириш вазифасини бажаради.

Кино продюсерлигининг тарихий шаклланиши

Кино продюсерлиги XIX аср охири — XX аср бошларида кино ишлаб чиқаришнинг тижоратлашуви натижасида шаклланган. АҚШда Голливуд студия тизими пайдо бўлиши билан продюсерлар фильм ишлаб чиқаришни марказлашган тарзда бошқара бошлади.

Тарихий факт сифатида таъкидлаш жоизки, 1930–1950 йилларда Голливудда «студия тизими» ҳукмрон бўлиб, MGM, Warner Bros., Paramount, 20th Century Fox каби студиялар продюсерлар раҳбарлигида фаолият юритган. 1939 йилда суратга олинган «Gone with the Wind» фильми (продюсер — Дэвид О. Селзник) катта бюджет ва мураккаб ишлаб чиқариш жараёнига қарамай, жаҳон кино тарихида энг даромадли лойиҳалардан бирига айланган.

Замонавий киноиндустрияда продюсернинг ўрни

Глобал рақобат ва рақамли технологиялар шароитида продюсерлик фаолияти мазмун жиҳатдан янада кенгайди. Замонавий продюсер нафақат фильм ишлаб чиқаришни молиялаштирувчи, балки маркетинг стратегиясини ишлаб чиқувчи, аудитория таҳлилини амалга оширувчи ва фильмнинг халқаро бозордаги рақобатбардошлигини таъминловчи мутахассис сифатида фаолият юритади.

Айниқса, стриминг платформаларнинг ривожланиши продюсерлик қарорларида аналитик маълумотлар ва бозор прогнозларининг аҳамиятини оширди. Бу эса продюсерлик фаолиятининг илмий асосланган қарор қабул қилиш тизимига айланаётганини кўрсатади.

Бугунги кунда продюсер фақат молиявий масалалар билан чекланиб қолмайди. У қуйидаги асосий вазифаларни бажаради:

- сценарийни танлаш ва ривожлантириш;
- молиялаштириш манбаларини излаш;
- режиссёр ва ижодий жамоани шакллантириш;
- ишлаб чиқариш жараёнини назорат қилиш;
- маркетинг ва прокат стратегиясини ишлаб чиқиш.

Масалан, Netflix, Amazon Studios каби рақамли платформаларда продюсерлар томошабин статистикаси ва алгоритмларга асосланган ҳолда қарор қабул қилади. Бу эса продюсерлик фаолиятида рақамли таҳлилнинг аҳамияти ошиб бораётганини кўрсатади.

Фильм ишлаб чиқариш босқичлари ва продюсерлик бошқаруви

Фильм ишлаб чиқариш анъанавий равишда уч босқичга бўлинади:

Препродакшн — ғоя, сценарий, кастинг, жой танлаш ва бюджетлаш;

Продакшн — суратга олиш жараёни; **Постпродакшн** — монтаж, овозлаш, визуал эффектлар.

Ҳар бир босқичда продюсер стратегик қарорлар қабул қилади. Масалан, бюджет чекланган шароитда суратга олиш муддатини оптималлаштириш ёки техник ресурсларни қайта тақсимлаш продюсер ваколатига киради.

Фильм ишлаб чиқариш жараёни анъанавий равишда препродакшн, продакшн ва постпродакшн босқичларига бўлинади. Ҳар бир босқичда продюсер стратегик қарорлар қабул қилиб, ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлайди.

Илмий таҳлиллар шуни кўрсатадики, продюсерлик бошқаруви етарли даражада йўлга қўйилмаган ҳолларда фильмнинг иқтисодий самарадорлиги пасайиб, ижодий салоҳият тўлиқ рўёбга чиқмайди. Шу боис продюсерлик фаолияти кино ишлаб чиқариш тизимининг барқарорлиги учун ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Кино лойиҳаларини молиялаштириш ва бюджет режалаштириш

Кино соҳасида молиялаштиришнинг асосий манбалари қуйидагилардан иборат:

- давлат грантлари ва субсидиялар;
- хусусий инвестициялар;
- продюсерлик компаниялари маблағлари;
- халқаро фондлар ва краудфандинг.

Аниқ статистик маълумотларга кўра, Голливудда ўртача тўлиқ метражли фильм бюджети 60–100 миллион АҚШ долларини ташкил этади, маркетинг харажатлари эса бюджетнинг 30–50 фоизига тенг бўлади. Шу боис продюсер молиявий режалаштириш ва рискларни бошқаришга алоҳида эътибор қаратиши лозим.

Маркетинг, дистрибуция ва фестивал сиёсати

Фильмнинг тижорий муваффақияти кўп жиҳатдан тўғри маркетинг ва дистрибуцияга боғлиқ. Продюсер трейлерлар, реклама кампаниялари, фестивал иштироки ва прокат стратегиясини белгилайди.

Масалан, Канн, Берлин, Венеция кинофестивалларида намоиш этилган фильмлар халқаро дистрибьюторлар эътиборини тортади ва кенг прокат имкониятига эга бўлади.

Ўзбекистон кино санъатида продюсерлик қўналиши

Ўзбекистон кино санъатида продюсерлик институти мустақиллик йилларида шакллана бошлади. «Ўзбеккино» миллий агентлиги давлат буюртмаси асосида фильмлар ишлаб чиқаришни мувофиқлаштиради. Шу билан бирга, хусусий киностудиялар сони ортиб бормокда.

Миллий кино соҳасида продюсерлар учун асосий вазифа — миллий қадриятлар ва замонавий бозор талаблари ўртасида мувозанатни сақлашдан иборат.

Продюсерлик фаолиятидаги муаммолар ва ривожланиш истиқболлари

Асосий муаммолар сифатида молиялаштириш чекланганлиги, мутахассис кадрлар етишмаслиги ва бозор таҳлилининг камлиги кўрсатилади. Ушбу муаммоларни ҳал этиш учун продюсерларни махсус таълим дастурлари асосида тайёрлаш ва халқаро тажриба алмашиш муҳим аҳамиятга эга.

Хулоса

Кино санъатида продюсерлик фаолияти фильмнинг ижодий ва иқтисодий самарадорлигини таъминловчи асосий омил ҳисобланади. Назарий билимлар ва амалий тажрибанинг уйғунлиги замонавий продюсер фаолиятининг муваффақиятини белгилайди. Шу боис продюсерлик фаолиятини илмий жиҳатдан ўрганиш ва ривожлантириш кино санъати тараққиёти учун муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Finney, A. (2014). *The international film business: A market guide beyond Hollywood*. London: Routledge.
2. Vogel, H. L. (2020). *Entertainment industry economics: A guide for financial analysis* (10th ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Cleve, B. (2017). *Film production management* (3rd ed.). New York: Focal Press.
4. Monaco, J. (2009). *How to read a film: Movies, media, and beyond* (4th ed.). Oxford: Oxford University Press.
5. Caves, R. E. (2000). *Creative industries: Contracts between art and commerce*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. De Vany, A. (2004). *Hollywood economics: How extreme uncertainty shapes the film industry*. London: Routledge.
7. Eliashberg, J., Elberse, A., & Leenders, M. (2006). The motion picture industry: Critical issues in practice, current research, and new research directions. *Marketing Science*, 25(6), 638–661.
8. Kerrigan, F. (2017). *Film marketing* (2nd ed.). London: Routledge.
9. Hesmondhalgh, D. (2019). *The cultural industries* (4th ed.). London: SAGE Publications.

10. McDonald, P., & Wasko, J. (2016). *The contemporary Hollywood film industry*. Oxford: Wiley-Blackwell.
11. Scott, A. J. (2005). *On Hollywood: The place, the industry*. Princeton: Princeton University Press.
12. Tryon, C. (2013). *On-demand culture: Digital delivery and the future of movies*. New Brunswick: Rutgers University Press.
13. Lobato, R. (2019). *Netflix nations: The geography of digital distribution*. New York: New York University Press.
14. Cunningham, S., & Craig, D. (2019). *Social media entertainment: The new intersection of Hollywood and Silicon Valley*. New York: NYU Press.
15. The Hollywood Reporter. (2020–2024). Film industry market analysis, production and distribution reviews. Los Angeles.
16. Variety. (2020–2024). Global film industry reports and producer analytics. Los Angeles.
17. UNESCO. (2022). *Re|Shaping policies for creativity: Addressing culture as a global public good*. Paris.
18. European Audiovisual Observatory. (2021–2024). *Film production and distribution statistics in Europe*. Strasbourg.
19. Ўзбеккино миллий агентлиги. (2021–2024). Кино соҳасига оид расмий ҳисоботлар, дастурлар ва меъёрий ҳужжатлар. Тошкент.
20. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги. (2022). *Миллий кино саноатини ривожлантириш стратегияси*. Тошкент.

O‘ZBEK HUJJATLI KINOSIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY PRINSIPLAR

Ismailov Kamolitdin Saidaxmadovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Televizion va media texnologiyalar
kafedrasi dotsenti v.b., O‘zbekiston
E-mail: kismailov285@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston hujjatli kinosining tarixiy va zamonaviy jarayonlari o‘rganiladi. Hujjatli kino o‘tmishi va bugungi kundagi holati haqida so‘z yuritiladi, zamonaviy texnologiyalar va AIning hujjatli filmlar ishlab chiqarishga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, sohada kuzatilayotgan ayrim muammolarga ahamiyat qaratiladi.

Kalit so‘zlar: hujjatli kino, film-portret, rejissyor, an’anaviy, zamonaviy, qahramon.

ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ В ДОКУМЕНТАЛЬНОМ КИНО УЗБЕКИСТАНА

Исмаилов Камолитдин Саидаксмадович

В.б.доцент кафедры Телевизионные и медиа технологий Ташкентского
университета информационных технологий, Узбекистан
E-mail: kismailov285@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются отечественные и современные принципы документального кино в Узбекистане. Обсуждаются прошлые и настоящие процессы документального кинопроизводства, анализируется влияние современных технологий и искусственного интеллекта на производство документальных фильмов, а также освещаются некоторые проблемы, наблюдаемые в отрасли.

Ключевые слова: документальный, кинопортрет, режиссер, традиционный, современный, герой.

HISTORICAL AND CONTEMPORARY PRINCIPLES IN DOCUMENTARY CINEMA OF UZBEKISTAN

Ismailov Kamolitdin Saidaxmadovich

Associate Professor of the Department of Television and Media Technologies,
Tashkent University of Information Technologies, Uzbekistan

E-mail: kismailov285@gmail.com

Abstract: The article explores the long-standing traditions and modern principles of documentary cinema in Uzbekistan. It discusses the past and present processes of documentary filmmaking, analyzes the impact of modern technologies and AI on documentary film production, and highlights some of the problems observed in the industry.

Keywords: documentary, film-portrait, director, traditional, modern, hero.

Kirish

Ekran san'ati taraqqiyotida hujjatli kino badiiy-estetik ta'sirchanligi, tarixiy va hayotiy haqiqatga asoslangani, targ'ibot-tashviqot imkoniyatlari bilan muhim o'ringa ega bo'lib kelmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda shaxsga bag'ishlangan filmlarga talabning ortib borishi film-portret janri doirasini kengayishida, yangi tendensiyalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kinoshunos R. Yurenevning o'tgan asrda keltirib o'tgan quyidagi satrlarini ayni damda eslash o'rinli: "Insonni realistik tasvirlash kino san'atining asl mohiyatiga aylandi. Hayotda bo'lib o'tgan yoki hozirda bor real va konkret inson obrazi "portreti", o'zining maksimal haqqoniyligi, yorqinligi va ruhiy kuchi bilan aynan kino san'atida to'la gavdalandi" [5, 5]. Shu o'rinda kinoshunos L. Djulay ham bu boradagi qarashlarini shunday bildirib o'tgandi: "Hujjatli kino haqida go'yoki "insonshunoslik" san'atidek gapiriladigan bo'ldi" [1, 108].

O‘zbek hujjatli kinosi taraqqiyotini o‘zoq yillar davomida o‘rgangan kinoshunos B. Hasanovning quyidagi satrlari diqqatga sazovordir: “O‘zbek hujjatli kinosi muayyan tarixiy yo‘lni bosib o‘tishi bilan o‘zining milliy an‘analariga ega bo‘ldi, katta ijodiy tajriba orttirdi, inson hayotini realizm metodi asosida aks ettirish yo‘lida hizmat qildi. Bu kabi filmlarda insonlarning ilg‘or tajribalari va tashabbuslari targ‘ib qilindi, hayotning ijobiy faktlari asosida tarbiyaviy masalalar ilgari surildi, eng muhimi, ajoyib zamondoshlarimiz – o‘zbek xalqining obrazlari yaratildi” [4, 85].

So‘nggi yillarda yaratayotgan zamonaviy hujjatli filmlarda buyuk shaxslar taqdiri, xalqimiz o‘tmishi, buguni, inson va jamiyat munosabatlari, yurtimizda kechayotgan islohotlar, madaniy meros, turizm, ekologiya kabi dolzarb muammolar ko‘tarilmoqda. Shuningdek, har yili mashhur shaxslarga bag‘ishlanib qator filmlar yaratilmoqda. Mazkur filmlarda zamonaviy texnologiyalar tufayli mavzularni yangi usullarda yoritish imkonini bermoqda. Intellectual raqamli videokameralar, kompyuter grafikasi, sun‘iy intellekt, animatsiya, videomontaj, arxiv materiallari kabilardan foydalanish filmlarga ta’sirchanlikni bag‘ishlamoqda. Ushbu rivojlanayotgan sohada yutuqlar qatorida kamchiliklar ham uchraydi.

Materiallar va usullar

Tarixga nazar tashlasak o‘zbek hujjatli kinosi faoliyati XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Dastlabki hujjatli filmlar, asosan, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettirgan. O‘zbek hujjatli kinosining poydevorini qurishda kinoxronikachilar X. Devanov, M. Qayumov, A. Saidov, Sh. Zohidov, M. Kovnat, V. Usova, O. Tursunov, O. Rahimov, P. Rasulov, M. Arabov kabi qator kino ustalari katta hissa qo‘shgan. Ayniqsa, kinooperator Malik Qayumovning samarali ijodi o‘zbek hujjatli kinosini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Hujjatli kino ijodkorlari safi yil sayin kengayib bordi. Katta avlod qatoriga N. Ataulloeva, T. Nodirov, T. Ro‘ziev, D. Salimov, B. Muzaffarov, Sh. Mahmudov, J. Is‘hoqov, E. Xachaturov, Sh. Qurbonboev, T. Qalimbetov, M. To‘ychiev, A. Akbarxodjaev, H. Valiyev, U.

Ortiqov va boshqa kinohujjatchilar qo‘shilishdi hamda ular ijodi kelgusi istiqlol davri uchun yana bir maktabga aylandi.

Kinoshunos N. Karimova: “Kino estetikasi o‘zining hujjatlilik tabiati imkoniyatlariga murojaat qildi. Hayot haqiqatlariga xolis munosabat bildirildi, real inson qalbiga ahamiyat qaratildi”, - deb yozadi [2, 141]. Darhaqiqat, istiqlol davrigacha yaratilgan ko‘plab filmlar kino san’ati tarixida a’lohida iz qoldirdi. Xususan, hujjatli ekrandagi qahramonlar obrazlari o‘zining mukammalligi, hayotga, tarixga, kelajakka yangicha qarashi bilan ahamiyatlidir. D. Salimov, B. Muzaffarov, Sh. Maxmudov, E. Xachaturov, J. Is’hakov kabi bir qator kinohujjatchilarning qizg‘in mualliflik ijodiy izlanishlarini kuzatish mumkin. Ular tanlagan mavzularining asosiy g‘oyasi insonparvarlikka, to‘g‘rilikka, mard va baxtli bo‘lishga chorlash edi.

Istiqlol tufayli yangicha qarashlar va talablar vujudga keldi. Milliy an’analar, qadriyatlar, tarix, tarixiy siymolar va yangi davr islohotlari hujjatli kinoning bosh mavzusiga aylandi. Ushbu davrdagi hujjatli kino haqida kinoshunos J. Teshaboev shunday yozadi: “Mustaqillik davrida film-portret janri o‘zining ikkinchi hayotini boshladi, aynan shu davrga kelib ushbu janr yo‘nalishiga yanada ko‘proq ehtiyoj sezildi. Kinohujjatchilar erkin mavzu tanlash huquqiga ega bo‘lishdi. Ko‘pgina filmlar mazmunida ichki obrazli qatlam – inson va vaqt tushunchasi ko‘zga tashlanadi” [3, 29]. “Axmad Yassaviy” (2004), “Muhammad Yusuf” (2014), “Mustaqillik me’mori” (2018) va boshqa qator tarixiy hamda davr qahramonlariga bag‘ishlangan filmlarda milliy qahramonlar obrazlari yaratildi.

O‘zbek hujjatli kinosining so‘nggi davrlaridagi jarayonlar studiya rahbarlari Sh. Rizaev, B. Odilov, F. Usmonov nomlari bilan bog‘liq. Rahbarlar davr islohatlariga monand mavzularni ilgari surilishiga, yaratilayotgan filmlarning badiiy va ma’naviy sifatiga katta e’tibor berib kelishmoqda. Masalan, “Ulug‘ ajdodlar”, “San’atimiz fidoyilari”, “Tilga kirgan hujjatlar”, “Zamonamiz qahramonlari”, “Xalq yuragi”, “Matonat maktabi”, “Inson qadri”, “O‘zbek kino san’ati ustalari” va boshqa turkum filmlaridagi ijodiy va tashkiliy jarayonlar o‘zbek kino san’atidagi katta ko‘lamli ishlardir. Filmlardagi ma’lumotlar va faktlarni keng ko‘lamligi, ularni

to'g'riligi borasida, hujjatli kinoga kirib kelayotgan yosh kadrlarga ijodiy imkoniyatlarni berilishida, shuningdek, davrning yangi mavzularini o'rganilishida Sh. Bo'taev, K. Shamsitdinov, F. Usmonov, A. Turdiev va boshqa ssenariy mualliflari mehnati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda hujjatli kinoda sermahsul ijod qilib kelayotgan M. Odilov, A. Karimov, M. Qoraboev, D. Shokirov, X. Rashidov, I. Haydarov, N. Biynazova, N. Narzullaev, B. Zokirov, A. Salomov, S. Masudxonov, M. Alizoda, K. Binyatova kabi kinoijodkorlar o'z tajribalariga tayanib buyuk ustozlar an'analari davom ettirgan holda faoliyat yuritmoqda. Ular yaratayotgan zamonaviy hujjatli filmlarda buyuk shaxslar taqdiri, xalqimiz o'tmishi, buguni, inson va jamiyat munosabatlari, yurtimizda kechayotgan islohotlar, madaniy meros, turizm, ekologiya kabi dolzarb muammolar ko'tarilmoqda.

Zamonaviy AI texnologiyalar mavzularni yangicha yoritish imkonini bermoqda. Virtual raqamli kameralar, kompyuter grafikasi, sun'iy intellekt, animatsiya materiallaridan foydalanish filmlarga yanada ta'sirchanlikni bag'ishlamoqda. Shuningdek, zamonaviy hujjatli filmlarda intervyu-monolog, badiiy tahlil, ramziy ifoda kabi usullar qo'llanilmoqda. Bu usullar mavzuni chuqurroq o'rganish va tomoshabinga yetkazish imkonini beradi. Misol uchun, tarixiy shaxslar haqidagi filmlarda ularning hayoti va faoliyati zamonaviy nuqtai nazardan suniy intellekt yordami bilan sintezlashgan tarzda vizual tahlil qilinmoqda.

Shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalar filmlarni ishlab chiqarish va tarqatish xarajatlarini kamaytirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar hujjatli filmlarni tarqatishning yangi usullarini taklif qilmoqda. Endilikda filmlarni onlayn platformalarda, kinofestivallarda va internet telekanallarida namoyish qilish yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali tomoshabinlar bilan muloqot qilish va ularning fikrlarini o'rganish imkoniyati mavjud. Zamonaviy texnologiyalar hujjatli filmlarning veb-dokumental, interaktiv kabi janrlarini shakllanishiga yo'l ochmoqda. Bu janrlar tomoshabinga film bilan faol muloqot qilish va o'z fikrini bildirish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

O'zbek hujjatli kinosidagi bir necha muammolarga ahamiyat qaratish lozim. Masalan, mavzuiy jihatdan mashhur shaxslarga bag'ishlangan filmlar ko'plikni tashkil etadi. Bu filmlar tomoshabinni befarq qoldirmaydi, biroq zamonaviy qahramonlarga ham yetarlicha etibor berish zarurati mavjud.

Zamonaviy davrda yaratilayotgan filmlarning aksariyati so'zli ifodalarga asoslangani kuzatiladi. Masalan, filmlardagi real qahramonlarning monologlari va qahramonni yaqindan bilganlarning intervyulari ko'plab filmlarning mazmunini ochib berishida asosiy rol o'ynamoqda. Shu o'rinda, so'zli ifodalar mavzuni yanada tushunarli va oson tarzda tomoshabinga yetkazish sifatiga ega. Biroq buning natijasida tomoshabinda filmdagi voqeaviylikka nisbatan mulohazalarini kamayishi, ekran va tomoshabin o'rtasidagi o'zaro kontakti sustlashishi, salbiy natijalarga olib kelishi kuzatilmoqda.

So'nggi davrda hujjatli ekranda tarixiy shaxslar obrazlarini yaratishda aktyorlar ijrosidagi kadrlardan foydalanish oddiy holga aylanib qoldi. Janr nuqtai nazaridan bu kabi "badiiy-hujjatli" filmlar hujjatli materiallarni va tarixiy faktlarni badiiy vositalar bilan uyg'unlashtirib, tomoshabinga kuchliroq ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Lekin masalaning boshqa tomonida hujjatli ekrandagi haqqoniylik masalasi turadi [6, 54]. Jurnalist M. Maksudovanning xulosalariga ko'ra, "Yaratilayotgan hamma asarlar ham hujjatli film etikasiga — haqiqatga, sodiqlikka mos kelmaydi. Ba'zan noprofessionallik, ba'zan tashqi bosim (homiylar va ish beruvchilar tomonidan) va ba'zan shunchaki insoniy qo'rquv kinoijodkorlarning ijodiy tasavvurini va ekranda haqiqatni yaratishga bo'lgan intilishini cheklab qo'ydi", - deyiladi [7, 6]. Ushbu masalani hisobga olgan holda aktyorlar ijrolarini arxiv materiallari va suniy AI animatsion ko'rinishlar yordamida kamaytirish, hamda ishonchli darajaga yetkazish orqali filmlarning badiiy qiymatini, haqqoniyligini yanada oshirish mumkin.

Sohadagi kadrlarni kreativ ijodiy fikrlay olishida va jahon kinosi tamoyillaridan xabardor bo'lishini doimiy taminlab borish davr talabidir. Buning

uchun kinoijodkorlarni reytingi yuqori bo'lgan jahon kinoinstitutlarida stajirovkadan o'tkazib borish zarurligi kuzatiladi.

Filmlar uchun mavzular tanlanishida hanuzgacha erkin mualliflik mavzulari ustida ishlash, tanlash va erkin ijodiy yondashuvlar yetishmaydi. Studiyaning yillik rejasida erkin mavzularda filmlar yaratishga sharoit yaratilishi, sohaning rivoji va jahondagi reytingi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek hujjatli filmlarining namoyishi bilan bog'liq muammolar hamon mavjud. Filmlar telekanallarda kam namoyish etiladi. Bu muammoni hal qilish uchun filmlarni tarqatishning yangi usullarini ishlab chiqish, onlayn platformalardan foydalanish, aniq biror telekanalda doimiy ravishda hujjatli ruknlar tashkil qilish va xalqaro kinofestivallarda ishtirok etish zarur.

Xulosa

O'zbek hujjatli kinosi tarixiylik va zamonaviylik uyg'unlashgan, rivojlanayotgan ijodiy-texnik sohadir. Biroq yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish orqali yanada katta yutuqlarga erishish mumkin. Zamonaviy internet texnologiyalar davridagi keng ko'lamli ijodiy izlanishlar, yangi texnologiyalardan samarali foydalanish, o'zbek hujjatli kinosining texnik va badiiy sifatini oshiririshga hamda jahon kinosiga integratsiyalashuviga yordam berishi tabiiy. Jumladan, dunyo studiyalari bilan hamkorlikda ishlanayotgan qator hujjatli filmlar, bu boradagi katta qadamdir. Sohaga yangi kirib kelayotgan kinoijodkorlarda izlanish ishtiyoqi va kreativ qarashlari baland ekanligi kuzatilmoqda. Ular yetarli imkoniyatlar va sharoitlar orqali zamonaviy davrning yangicha nafasdagi zamonaviy filmlarini yaratishga qodir. Ayniqsa, erkin mavzudagi mualliflik filmlarni ko'paytirish orqali jahon tomoshabinlarining e'tiborini qozonish va o'zbek hujjatli kinosining nufuzini yanada oshirish mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джулай Л. (2005) Документальный иллюзион: Отечественный кинодокументализм – опыты социального творчества. 2-е изд. – М.: Материк.
2. Каримова Н. (2016) Игровой кинематограф Узбекистана. / Н. Каримова; отв. ред. Д. Тешабаев. – Т.: Изд. журнала “San’at”.
3. Teshabaev J. (2008) Film-portretlar. / O‘zbekiston hujjatli kinosi: Mustaqillik davri. 1991-2007 yillar. – Т.: ART FLEX.
4. Hasanov B. (1972) O‘zbek hujjatli kinosi (tarixiy ocherk). – Т.: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.
5. Юренев Р. (1949) Советский биографический фильм. – М.: Госкиноиздат.
6. Исмаилов, К. С., & Марков, А. В. (2023). Игровые постановки в узбекском документальном кино. *PRAKHMA*, 54.
7. Узбекское кино: из-под груды штампов. М. Максудова. / Вести уз. <https://vesti.uz/uzbekskoe-kino-iz-pod-grudy-shtampov/>

KINO ISHLAB CHIQARISH VA PROKAT TIZIMI TUSHUNCHASI HAMDA UNING KINO SANOATIDAGI O'RNI

Qalandarov Izzat Omonboyevich

O'zDSMI "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrası katta o'qituvchisi

izzatqalandarov88@gmail.com

Annotatsiya Maqolada kino ishlab chiqarish va prokat tizimi tushunchasi hamda uning kino sanoatidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda kino mahsulotini yaratish jarayoni, film ishlab chiqarish bosqichlari va prokat tizimining tashkiliy mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kino mahsulotini tomoshabinga yetkazish jarayonida distribyutsiya va kinoteatrlar tizimining ahamiyati yoritiladi. Natijada kino ishlab chiqarish va prokat tizimining kino industriyasining rivojlanishidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kino ishlab chiqarish, kino prokati, kino distribyutsiyasi, kino sanoati, kino bozori, tomoshabin auditoriyasi, kino infratuzilmasi, film ishlab chiqarish mexanizmi

THE CONCEPT OF FILM PRODUCTION AND DISTRIBUTION SYSTEM AND ITS ROLE IN THE FILM INDUSTRY

Qalandarov Izzat Omonboyevich

Senior Lecturer, Department of Sound

Directing and Cinematography,

Uzbek State Institute of Arts and Culture

izzatqalandarov88@gmail.com

Abstract This article analyzes the concept of film production and distribution systems as well as their role in the film industry. The study examines the process of creating film products, the stages of film production, and the organizational mechanisms of the distribution system. It also highlights the importance of distribution and cinema networks in delivering film products to the audience. As a

result, the role of film production and distribution systems in the development of the film industry is scientifically substantiated.

Keywords: film production, film distribution, film exhibition, film industry, film market, audience, cinema infrastructure, film production mechanism

ПОНЯТИЕ СИСТЕМЫ КИНОПРОИЗВОДСТВА И КИНОПРОКАТА И ЕЁ РОЛЬ В КИНОИНДУСТРИИ

Qalandarov Izzat Omonboyevich

Старший преподаватель кафедры
звуорежиссуры и операторского
мастерства Государственного института
искусств и культуры Узбекистана

izzatqalandarov88@gmail.com

Аннотация В статье анализируются понятие системы кинопроизводства и кинопроката, а также их роль в киноиндустрии. В исследовании рассматриваются процесс создания кинопродукта, этапы производства фильма и организационные механизмы системы проката. Также освещается значение дистрибуции и сети кинотеатров в процессе доведения кинопродукта до зрителя. В результате научно обоснована роль системы кинопроизводства и кинопроката в развитии киноиндустрии.

Ключевые слова: кинопроизводство, кинопрокат, кинодистрибуция, киноиндустрия, кинорынок, зрительская аудитория, киноинфраструктура, механизм производства фильма

Kirish

Bugungi kunda kino sanoati nafaqat badiiy ijod sohasi, balki murakkab iqtisodiy, texnologik va tashkiliy tizim sifatida rivojlanib bormoqda. Kino mahsulotining yaratilishi va uning tomoshabinga yetib borishi kino ishlab chiqarish

hamda prokat tizimining samarali faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Film ishlab chiqarish jarayoni ijodiy g'oyaning kino asariga aylanishini ta'minlasa, prokat tizimi ushbu mahsulotni kino bozori orqali tomoshabinga yetkazish vazifasini bajaradi. Shu sababli kino ishlab chiqarish va prokat tizimining mohiyati hamda uning kino sanoatidagi o'rnini ilmiy jihatdan o'rganish zamonaviy kinematografiya rivoji nuqtai nazaridan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kino sanoatida ishlab chiqarish va prokat tizimi o'zaro bog'liq jarayonlar majmuasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Film ishlab chiqarish bosqichida g'oya, ssenariy, ijodiy jamoa va texnik imkoniyatlar uyg'unlashib, kino mahsuloti yaratiladi. Prokat tizimi esa ushbu mahsulotni kino bozori orqali tomoshabinga yetkazish, uning keng auditoriya orasida namoyish etilishini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorligini belgilash vazifasini bajaradi. Shu sababli ishlab chiqarish va prokat tizimining samarali tashkil etilishi kino sanoatining rivojlanishi, kino mahsulotining ommalashuvi hamda tomoshabin madaniyatining shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi kino ishlab chiqarish va prokat tizimi tushunchasini hamda uning kino sanoatidagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda kino ishlab chiqarish jarayonining nazariy asoslarini o'rganish, prokat va distribyutsiya tizimining tashkiliy mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularning kino mahsulotini tomoshabinga yetkazish jarayonidagi ahamiyatini aniqlash vazifalari belgilangan. Shuningdek, kino sanoatida ishlab chiqarish va prokat tizimining o'zaro bog'liqligini ko'rsatish hamda ularning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini yoritish tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Nazariy asos

Kino ishlab chiqarish jarayonining nazariy asoslari avvalo filmning badiiy va texnologik tabiati bilan bog'liq. Bordwell va Thompson o'zlarining "Film Art: An

Introduction²⁷” asarida kino asarini yaratish jarayonini kompozitsiya, narrativ va texnik elementlarning uygʻun tizimi sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, film ishlab chiqarish ijodiy faoliyat, qatʼiy tashkil etilgan ishlab chiqarish modeli boʻlib, unda har bir bosqich oʻziga xos funksional vazifani bajaradi. Caldwell esa “Production Culture²⁸” tadqiqotida kino ishlab chiqarishni institutsional muhit sifatida koʻrib, unda ijodiy va iqtisodiy manfaatlar oʻzaro kesishishini taʼkidlaydi.

Kino sanoatining iqtisodiy jihatlari ham ushbu tizimni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Vogelning “Entertainment Industry Economics²⁹” asarida kino industriyasi daromad shakllanishi, investitsiya va risk tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. De Vany³⁰ esa kino bozorini noaniqlik yuqori boʻlgan iqtisodiy tizim sifatida tavsiflab, film muvaffaqiyati koʻp omillarga bogʻliq ekanligini asoslab beradi. Litman³¹ tadqiqotlarida esa kino sanoati “mega-industriya” sifatida koʻrib chiqilib, ishlab chiqarish va prokat tizimining iqtisodiy integratsiyasi muhimligi qayd etiladi.

Kino prokati va distribyutsiya tizimi alohida ilmiy yoʻnalish sifatida media iqtisodiyoti doirasida keng oʻrganilgan. Hoskins, McFadyen va Finn³² media mahsulotlarini tarqatish mexanizmlarini iqtisodiy qonuniyatlar asosida tahlil qilib, kino distribyutsiyasi bozor talab va taklifiga bevosita bogʻliqligini koʻrsatadi. Wasko³³ esa Hollywood tizimi misolida kino industriyasining tashkiliy tuzilmasi va distribyutsiya strategiyalarini yoritadi. Ulin³⁴ning tadqiqotlarida esa zamonaviy media muhitida raqamli platformalar orqali film tarqatishning yangi modellari tahlil qilinadi.

Film marketingi va tomoshabin auditoriyasini shakllantirish masalalari ham mazkur tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kerrigan³⁵ film marketingini

²⁷ D.Bordwell, K.Thompson. *Film Art: An Introduction*. – New York.: McGraw-Hill. 2019. P-546

²⁸ J.Caldwell. *Production Culture: Industrial Reflexivity and Critical Practice in Film and Television*. – London.:Duke University Press,2008.P-448.

²⁹ H.Vogel. *Entertainment Industry Economics: A Guide for Financial Analysis*.– Cambridge University Press, 2020. P- 671.

³⁰ De Vany. *Hollywood Economics: How Extreme Uncertainty Shapes the Film Industry*. – Routledge, 2004. P-332.

³¹ Litman, B. R. *The Motion Picture Mega-Industry*.– Allyn & Bacon, 1998. P-340.

³² Hoskins, C., McFadyen, S., Finn, A. *Media Economics: Applying Economics to New and Traditional Media*. – SAGE Publications, 2004. P- 368.

³³ Wasko, J. *How Hollywood Works*.– SAGE Publications, 2003. P-257.

³⁴ Ulin, J. C. *The Business of Media Distribution: Monetizing Film, TV and Video Content*. – Routledge, 2019. P-398.

³⁵ Kerrigan, F. *Film Marketing*. – Britaniya.:Routledge, 2017. P-265.

kompleks strategik jarayon sifatida baholab, unda reklama, brending va auditoriya segmentatsiyasi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Epstein³⁶ esa zamonaviy Hollywood tizimida moliyaviy va marketing mexanizmlarining ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, kino ishlab chiqarish va prokat tizimi o'zaro bog'liq bo'lgan ijodiy, iqtisodiy va tashkiliy jarayonlar majmuasidan iborat. Film ishlab chiqarish jarayoni badiiy mahsulot yaratishga xizmat qilsa, prokat va distribyutsiya tizimi ushbu mahsulotni bozorga olib chiqish va tomoshabinga yetkazishni ta'minlaydi. Shu bois ushbu tizimlarni kompleks tarzda o'rganish kino sanoatining zamonaviy rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kino ishlab chiqarish tizimi tushunchasi

Kino ishlab chiqarish tizimi kino asarini yaratishga qaratilgan murakkab ijodiy, texnologik va tashkiliy jarayonlar majmuasini ifodalaydi. Ushbu tizim film g'oyasining paydo bo'lishidan boshlab ssenariy yozish, tayyorgarlik ishlari, suratga olish hamda montaj va postproduksiya bosqichlarigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kino ishlab chiqarish jarayonining nazariy asoslari esa kinematografiya san'ati, madaniyatshunoslik va kino industriyasining iqtisodiy tamoyillari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Shu bois kino ishlab chiqarish tizimi nafaqat badiiy ijod jarayoni, balki turli mutaxassislar hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab ishlab chiqarish modeli sifatida qaraladi.

Film yaratish jarayoni bir necha izchil bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri kino mahsulotining sifatli shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Avvalo, film g'oyasini ishlab chiqish va ssenariy yozish bosqichi amalga oshiriladi, bunda asarning dramaturgik asoslari shakllanadi. Keyingi bosqichda tayyorgarlik ishlari olib borilib, suratga olish jarayoni tashkil etiladi hamda ijodiy jamoa faoliyati muvofiqlashtiriladi. Suratga olish tugagach, montaj, ovoz ishlari va boshqa postproduksiya jarayonlari bajarilib, film yakuniy ko'rinishga keltiriladi. Shu tariqa

³⁶ Epstein, E. J. *The Big Picture: The New Logic of Money and Power in Hollywood.* – New York.: Random House, 2006. P-424.

film yaratish bosqichlarining izchil amalga oshirilishi kino asarining badiiy va texnik sifatini ta'minlaydi.

Kino ishlab chiqarish jarayonida produserlik faoliyati va ishlab chiqarish boshqaruvi muhim o'rin tutadi. Produser film loyihasining umumiy konsepsiyasini ishlab chiqish, moliyaviy manbalarni jalb etish, ijodiy jamoani shakllantirish hamda ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish boshqaruvi suratga olish jarayonining texnik, tashkiliy va iqtisodiy jihatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Natijada produserlik va samarali boshqaruv tizimi filmning o'z vaqtida va sifatli yaratilishini ta'minlab, uning keyingi prokat jarayoniga tayyor holga keltirilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kino prokati va distribyutsiya tizimi

Kino prokati kino mahsulotini ishlab chiqarish jarayonidan so'ng uni kino bozori orqali tomoshabinga yetkazishga qaratilgan iqtisodiy va tashkiliy faoliyat tizimini anglatadi. Prokat jarayonida film turli namoyish maydonlari – kinoteatrlar, televideniye kanallari va raqamli platformalar orqali auditoriyaga taqdim etiladi. Uning iqtisodiy mohiyati esa film namoyishi orqali daromad olish, kino mahsulotining bozor qiymatini shakllantirish hamda kino industriyasining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Shu sababli kino prokati kino sanoatida film ishlab chiqarish jarayonining mantiqiy davomi sifatida muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Filmni tomoshabinga yetkazish mexanizmlari kino prokati va distribyutsiya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayon filmni bozorga chiqarish strategiyasini ishlab chiqish, reklama va marketing faoliyatini tashkil etish hamda uni turli namoyish platformalari orqali auditoriyaga taqdim etishni o'z ichiga oladi. Distribyutorlar filmning namoyish hududlari, prokat muddati va kinoteatrlar bilan hamkorlik shartlarini belgilab, uning keng auditoriyaga yetib borishini ta'minlaydi. Natijada ushbu mexanizmlar film mahsulotining kino bozori orqali samarali tarqatilishiga hamda tomoshabin auditoriyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy kino sanoatida film prokati turli namoyish shakllari va platformalar orqali amalga oshiriladi. An'anaviy ravishda kinoteatrlar film namoyishining asosiy maydoni hisoblangan bo'lsa-da, bugungi kunda televideniye kanallari va raqamli platformalar ham kino mahsulotini tarqatishda muhim o'rin egallamoqda. Internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida onlayn streaming xizmatlari filmni keng va global auditoriyaga tezkor yetkazish imkoniyatini yaratdi. Natijada zamonaviy prokat tizimi ko'p platformali modelga aylanishi bilan kino mahsulotining namoyish shakllari va tomoshabin bilan aloqasi yangi bosqichga ko'tarildi.

Kino ishlab chiqarish va prokat tizimining o'zaro bog'liqligi

Kino mahsulotining bozorga chiqish jarayoni film ishlab chiqarish va prokat tizimining o'zaro bog'liq faoliyati orqali amalga oshiriladi. Film ishlab chiqarish bosqichida yaratilgan kino asari keyingi jarayonda distribyutsiya va prokat tizimi orqali kino bozoriga olib chiqiladi hamda tomoshabinga taqdim etiladi. Ushbu jarayonda marketing strategiyalari, reklama faoliyati va namoyish platformalarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada kino mahsulotining bozorga muvaffaqiyatli kirib borishi ishlab chiqarish va prokat tizimining samarali hamkorligi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish va prokat tizimining integratsiyasi kino sanoatining samarali faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Film ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan kino mahsuloti prokat tizimi orqali kino bozoriga olib chiqilib, turli namoyish platformalari orqali tomoshabinga yetkaziladi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish bosqichidan boshlab marketing strategiyasi, distribyutsiya rejalari va namoyish infratuzilmasi bilan uzviy bog'liq holda tashkil etiladi. Natijada ishlab chiqarish va prokat tizimining o'zaro integratsiyasi kino mahsulotining muvaffaqiyatli namoyishi hamda kino sanoatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi.

Kino ishlab chiqarish va prokat tizimining o'zaro bog'liqligi kino bozorining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Film ishlab chiqarish jarayonida

yaratilgan kino mahsuloti prokat va distribyutsiya tizimi orqali kino bozorida muomalaga kiradi hamda tomoshabin auditoriyasiga taqdim etiladi. Ushbu jarayon kino mahsulotiga bo'lgan talab va taklifning shakllanishiga, shuningdek, kino sanoatining iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ishlab chiqarish va prokat tizimining uyg'un faoliyati kino bozorining barqaror shakllanishi hamda uning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Kino sanoatida ishlab chiqarish va prokat tizimining ahamiyati

Kino sanoatida ishlab chiqarish va prokat tizimining samarali faoliyati kino industriyasining iqtisodiy rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Film ishlab chiqarish jarayoni yangi ish o'rinlarini yaratish, texnik infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsiya jarayonlarini faollashtirish orqali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Prokat tizimi esa kino mahsulotining bozor orqali tarqatilishini ta'minlab, film namoyishi orqali daromad shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada ishlab chiqarish va prokat tizimining uyg'un faoliyati kino industriyasining iqtisodiy barqarorligi hamda uning rivojlanish salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tomoshabin auditoriyasining shakllanishi kino sanoatining rivojlanishida muhim ijtimoiy va madaniy omillardan biri hisoblanadi. Film ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan kino mahsulotining mazmuni, janri va badiiy yechimlari tomoshabin qiziqishlari hamda ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllanadi. Prokat tizimi esa ushbu mahsulotni keng auditoriyaga yetkazish orqali tomoshabinlarning estetik didi, kino madaniyati va kino tomosha qilish an'alarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa ishlab chiqarish va prokat tizimining uyg'un faoliyati tomoshabin auditoriyasining kengayishi hamda kino sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kino sanoatida ishlab chiqarish va prokat tizimining samarali tashkil etilishi milliy kinematografiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Film ishlab chiqarish jarayoni milliy madaniyat, tarixiy meros va ijtimoiy hayot voqeliklarini badiiy talqin orqali aks ettirish imkonini yaratadi. Prokat tizimi esa yaratilgan kino

mahsulotini keng tomoshabin auditoriyasiga yetkazib, uning jamiyatdagi madaniy ta'sirini kuchaytiradi hamda milliy filmlarning ommalashuviga xizmat qiladi. Natijada ishlab chiqarish va prokat tizimining uyg'un faoliyati milliy kino industriyasining rivojlanishi, uning madaniy ahamiyati va xalqaro kino makonida raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kino ishlab chiqarish va prokat tizimi kino sanoatining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Film ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan kino mahsuloti prokat va distribyutsiya mexanizmlari orqali kino bozoriga olib chiqilib, tomoshabinga yetkaziladi. Ushbu tizimlarning uyg'un faoliyati kino mahsulotining samarali namoyish etilishi, tomoshabin auditoriyasining kengayishi hamda kino sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois kino ishlab chiqarish va prokat tizimini ilmiy jihatdan o'rganish kino industriyasining zamonaviy rivojlanish jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kino sanoatini rivojlantirish nuqtai nazaridan ishlab chiqarish va prokat tizimining samarali faoliyatini ta'minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Film ishlab chiqarish jarayonining zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilishi, prokat va distribyutsiya mexanizmlarining takomillashtirilishi kino mahsulotining sifatini oshirish hamda uning keng auditoriyaga yetib borishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, kino bozori infratuzilmasini rivojlantirish, kinoteatrlar tarmog'ini kengaytirish va raqamli platformalardan samarali foydalanish kino sanoatining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada ushbu tizimlarni ilmiy asosda rivojlantirish kino sanoatining raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy kinematografiyaning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga imkon yaratadi.

Kelajakda kino ishlab chiqarish va prokat tizimining rivojlanishi zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar hamda global media muhitining kengayishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Raqamli ishlab chiqarish texnologiyalari, onlayn

namoyish xizmatlari va zamonaviy distribyutsiya mexanizmlarining rivojlanishi kino mahsulotini yaratish va tarqatish jarayonlarini yanada takomillashtiradi. Shu bilan birga, kino bozori infratuzilmasining rivojlanishi hamda yangi prokat shakllarining paydo bo'lishi milliy kino ishlab chiqarish hajmining ortishi va tomoshabin auditoriyasining kengayishiga xizmat qiladi. Natijada kino ishlab chiqarish va prokat tizimini modernizatsiya qilish kino sanoatining barqaror rivojlanishi hamda uning xalqaro kino makonida raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Bordwell, K.Thompson. *Film Art: An Introduction*. – New York.: McGraw-Hill. 2019. P-546
2. J.Caldwell. *Production Culture: Industrial Reflexivity and Critical Practice in Film and Television*. – London.:Duke University Press,2008.P-448.
3. H.Vogel. *Entertainment Industry Economics: A Guide for Financial Analysis*.– Cambridge University Press, 2020. P-671.
4. De Vany. *Hollywood Economics: How Extreme Uncertainty Shapes the Film Industry*. – Routledge, 2004. P-332.
5. **Litman, B. R.** *The Motion Picture Mega-Industry*.– Allyn & Bacon, 1998. P-340.
6. **Hoskins, C., McFadyen, S., Finn, A.** *Media Economics: Applying Economics to New and Traditional Media*. – SAGE Publications, 2004. P- 368.
7. **Wasko, J.** *How Hollywood Works*.– SAGE Publications, 2003. P-257.
8. **Ulin, J. C.** *The Business of Media Distribution: Monetizing Film, TV and Video Content*. – Routledge, 2019. P-398.
9. **Kerrigan, F.** *Film Marketing*. – Britaniya.:Routledge, 2017. P-265.
10. **Epstein, E. J.** *The Big Picture: The New Logic of Money and Power in Hollywood*.– New York.:Random House, 2006. P-424.

SHAXS MADANIY EHTIYOJLARI SHAKLLANISHIDA MILLIY QO'SHIQCHILIK SAN'ATINING MADANIYATSHUNOSLIK TALQINI

Sobirov Samandar Sobir o'g'li

O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik"

kafedrasi o'qituvchisi

samandarsobirov117@gmail.com

Annotatsiya Maqolada shaxs madaniy ehtiyojlari kategoriyasi madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning shakllanishida milliy qo'shiqchilik san'atining o'rni nazariy jihatdan asoslanadi. "Madaniy ehtiyoj" tushunchasining ilmiy mazmunini aniqlashtirish hamda milliy qo'shiqchilik san'atini shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida talqin qilish maqsad qilinadi. Madaniy ehtiyojlar nazariyasi va madaniy fenomenologiya metodologik asos sifatida qo'llanilib, shaxs madaniy ehtiyojlarining estetik, ma'naviy, identifikatsion va kommunikativ komponentlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: madaniy ehtiyoj, shaxs madaniyati, milliy qo'shiqchilik san'ati, madaniyatshunoslik talqini, madaniy identitet, estetik ong.

КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РОЛИ НАЦИОНАЛЬНОГО ПЕВЧЕСКОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ

Собиров Самандар Собир ўғли

Преподаватель кафедры «Национальное

певческое искусство» Государственного

института искусств и культуры Узбекистана

samandarsobirov117@gmail.com

Аннотация

В статье категория культурных потребностей личности анализируется с точки зрения культурологии, а также теоретически обосновывается роль национального вокального искусства в их формировании. Целью исследования является уточнение научного содержания понятия «культурная потребность» и интерпретация национального вокального искусства как социокультурного механизма формирования культурных потребностей личности. В качестве методологической основы используются теория культурных потребностей и культурная феноменология, в рамках которых раскрываются эстетические, духовные, идентификационные и коммуникативные компоненты культурных потребностей личности.

Ключевые слова: культурная потребность, культура личности, национальное вокальное искусство, культурологическая интерпретация, культурная идентичность, эстетическое сознание.

A CULTURAL STUDIES INTERPRETATION OF THE ROLE OF NATIONAL SINGING ART IN THE FORMATION OF PERSONAL CULTURAL NEEDS

Sobirov Samandar Sobir o'g'li

Lecturer of the Department of
National Singing Art at the Uzbekistan
State Institute of Arts and Culture.

samandarsobirov117@gmail.com

Abstract

The article analyzes the category of individual cultural needs from the perspective of cultural studies and theoretically substantiates the role of national vocal art in their formation. The study aims to clarify the scientific content of the concept of “cultural need” and to interpret national vocal art as a socio-cultural mechanism for shaping individual cultural needs. The theory of cultural needs and cultural phenomenology are applied as methodological foundations, within which the aesthetic, spiritual, identificational, and communicative components of individual cultural needs are examined.

Keywords: cultural need, personal culture, national vocal art, cultural studies interpretation, cultural identity, aesthetic consciousness.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda shaxs madaniy ehtiyojlarining shakllanishi va rivojlanishi madaniyatshunoslik fanining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Madaniy ehtiyojlar shaxsning estetik didi, ma'naviy qadriyatlari, ijtimoiy faolligi va madaniy identiteti bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatning madaniy taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, madaniy ehtiyojlarni shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy mexanizmlarni aniqlash va ularning faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida maydonga chiqadi.

Yangi O'zbekistonda shaxsning ma'naviy va madaniy kamolotini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish, jamiyat ma'naviy muhitini monitoring qilish va madaniy qadriyatlarni mustahkamlash zarurati normativ-huquqiy hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 340-son qarori³⁷ bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatining tashkil etilishi jamiyatda kechayotgan ma'naviy jarayonlarni tizimli tahlil qilish va ilmiy asosda o'rganish vazifasini belgilab berdi. Mazkur normativ asos shaxs madaniy ehtiyojlarini nazariy jihatdan tadqiq etish va ularning shakllanish mexanizmlarini konseptual izohlash dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Milliy qo'shiqchilik san'ati xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va qadriyatlar tizimini mujassam etgan madaniy fenomen bo'lib, uning shaxs madaniy ehtiyojlariga ta'siri masalasi madaniyatshunoslik doirasida yetarli darajada konseptual tadqiq etilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda milliy qo'shiqchilik asosan badiiy yoki musiqashunoslik jihatidan yoritilgan bo'lib, uning shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantiruvchi omil sifatidagi funksional jihatlari chetda qolgan. Maqolaning maqsadi "madaniy ehtiyoj" tushunchasini madaniyatshunoslik

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 340-son qarori.

kategoriyasi sifatida aniqlashtirish hamda milliy qo‘shiqchilik san’atining shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantirishdagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Madaniy ehtiyojlar nazariyasi va madaniy fenomenologiya yondashuvi asosida mazkur jarayonni ilmiy muammo sifatida belgilash va uning konseptual doirasini aniqlash vazifalari qo‘yiladi.

Nazariy-metodologik asoslar

Madaniyatshunoslikda “madaniy ehtiyoj” tushunchasi shaxsning madaniy muhit bilan o‘zaro munosabatini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha biologik yoki utilitar ehtiyojlardan farqli ravishda, ijtimoiy-tarixiy tajriba, qadriyatlar tizimi va madaniy me’yorlar asosida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisani ifodalaydi. Madaniy ehtiyoj shaxsning estetik idroki, ma’naviy izlanishi, kommunikativ faolligi va madaniy identifikatsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u madaniyatni iste’mol qilish emas, balki uni anglash va qayta ishlab chiqish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Madaniyat nazariyasida ehtiyoj kategoriyasi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi madaniy aloqalarni tushuntiruvchi muhim tushunchaviy vosita hisoblanadi. Ehtiyoj madaniyatda nafaqat mavjud qadriyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan ichki turtki, balki yangi madaniy ma’nolarni shakllantirishga xizmat qiluvchi faol jarayon sifatida qaraladi. Shu bois madaniy ehtiyojlar shaxs madaniy ongining tarkibiy elementi bo‘lib, ularning rivojlanishi jamiyat madaniy taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Madaniy ehtiyojlar masalasi madaniyatshunoslikda A.Mavrulov³⁸, M.Mavrulova³⁹, Q.Nazarov⁴⁰ tadqiqotlarida shaxs madaniy ongining tarkibiy unsuri sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvlarda madaniy ehtiyojlar san’at orqali ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni o‘zlashtirish mexanizmi sifatida izohlanadi.

³⁸ Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi. – Toshkent.: Fan ziyosi. 2022. – 359 b.

³⁹ Mavrulova M. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent.: Zarvaraq nashriyoti, 2022. – 56 b.

⁴⁰ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. – Toshkent.: Ma’naviyat. 2023. – 750 b.

Shaxs madaniy ehtiyojlari masalasi xorijiy ijtimoiy-gumanitar tafakkurda ham keng tadqiq etilgan. Xususan, A.Maslow⁴¹ ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida insonning estetik va o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyojlarini yuqori bosqich sifatida asoslaydi; P.Bourdieu⁴² madaniy kapital va habitus konsepsiyasi orqali estetik did hamda madaniy tanlovlarning ijtimoiy shartlanganligini ko'rsatadi; C.Geertz⁴³ madaniyatni ma'nolar tizimi sifatida talqin qilib, shaxsning madaniy tajriba orqali ma'no yaratish jarayonini yoritadi; E.Fromm⁴⁴ insonning ma'naviy ehtiyojlarini mavjudlik va ma'no bilan bog'laydi. Mazkur nazariy yondashuvlar shaxs madaniy ehtiyojlarini motivatsion, aksiologik va sotsiokulturniy omillar uyg'unligida shakllanadigan murakkab tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi hamda milliy qo'shiqchilik san'atining ushbu jarayondagi funksional rolini ilmiy asosda tushuntirishga metodologik zamin yaratadi.

Shaxs madaniy ehtiyojlarining tarkibiy komponentlari

Shaxs madaniy ehtiyojlari murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, u madaniy ong, ijtimoiy tajriba va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Madaniyatshunoslikda ushbu ehtiyojlar shaxsning madaniy muhit bilan o'zaro aloqasini ta'minlovchi va madaniy tajribani o'zlashtirish jarayonini faollashtiruvchi tarkibiy komponentlar majmui sifatida talqin etiladi. Mazkur komponentlar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lib, shaxs madaniy ehtiyojlarining yaxlit tizimini tashkil etadi.

Estetik ehtiyoj shaxsning go'zallikni idrok etish, badiiy obrazlarni anglash va estetik qadriyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki intilishini ifodalaydi. Bu ehtiyoj san'at asarlari, jumladan, milliy qo'shiqchilik orqali shakllanib, shaxs estetik didining rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik ehtiyoj madaniy tajribaning hissiy-idrokiy darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

⁴¹ Abraham H.Maslow. Motivation and personality. – U.S.A.:Harper-Row publishers. 1954. P.394.

⁴² P.Bourdieu. Distinction: A social critique of the judgement of taste. – U.S.A.:Harvar University press Cambridge – P.632.

⁴³ C.Geertz. The interpretation of cultures. – New York.:Basic books. 1972. P.15.

⁴⁴ E.Fromm. To have or to be? – London.: Continuum.1997. P.203.

Ma'naviy ehtiyoj shaxsning ma'no izlash, qadriyatlarni anglash va ichki ruhiy muvozanatni ta'minlashga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi. Madaniy fenomen sifatida san'at, xususan, milliy qo'shiqchilik ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda madaniy xotira va axloqiy me'yorlarni uzatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kommunikativ ehtiyoj shaxsning madaniy muloqotga kirishish, umumiy ramzlar va ma'nolar orqali boshqalar bilan bog'lanish istagini anglatadi. Ushbu ehtiyoj madaniy tajribani jamoaviy idrok etish va almashish jarayonida shakllanadi hamda ijtimoiy-madaniy integratsiyani ta'minlaydi.

Identifikatsion ehtiyoj shaxsning o'zini muayyan madaniy makon, an'ana va qadriyatlar tizimi bilan bog'lash ehtiyoji bilan tavsiflanadi. Milliy qo'shiqchilik san'ati bu ehtiyojni qondirishda madaniy identitetni mustahkamlovchi ramziy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy ehtiyoj shaxsning jamiyat madaniy hayotida faol ishtirok etish, madaniy me'yor va an'analarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi. Ushbu ehtiyoj boshqa komponentlarni umumlashtiruvchi integrativ xarakterga ega bo'lib, shaxsning madaniy moslashuvi va ijtimoiy faolligini belgilaydi. Mazkur tarkibiy komponentlar shaxs madaniy ehtiyojlarining tizimli xarakterini ochib beradi va milliy qo'shiqchilik san'atini ularning shakllanishida muhim ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida talqin qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Milliy qo'shiqchilik san'atining shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantiruvchi roli

Milliy qo'shiqchilik san'ati madaniyatshunoslikda shaxs va jamiyat o'rtasidagi madaniy aloqalarni ta'minlovchi murakkab madaniy fenomen sifatida talqin etiladi. U nafaqat badiiy ifoda shakli, balki tarixiy xotira, estetik qarashlar va ijtimoiy qadriyatlarni uzatish vositasi bo'lib, shaxs madaniy ehtiyojlarining shakllanishida muhim ijtimoiy-madaniy mexanizm vazifasini bajaradi. O'zbek milliy qo'shiqchilik san'ati doirasida, xususan, maqom san'ati shaxs madaniy ehtiyojlarini

shakllantiruvchi muhim madaniy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Shashmaqom hamda Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarida mujassam bo'lgan musiqiy ohang va badiiy matn uyg'unligi shaxs estetik va ma'naviy ehtiyojlarini faollashtirib, madaniy idrokning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ushbu an'anaviy musiqiy meros orqali shaxs nafaqat estetik tajriba orttiradi, balki milliy qadriyatlar tizimini mazmunli anglash jarayoniga kiradi.

Ma'naviy ta'sir mexanizmlari esa milliy qo'shiqchilik san'atining mazmuniy qatlamlari orqali namoyon bo'ladi. Qo'shiqlarda mujassam bo'lgan axloqiy me'yorlar, hayotiy tajriba va qadriyatlar shaxs ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda milliy qo'shiqchilik san'ati madaniy xotira tashuvchisi sifatida shaxs ongida ma'no yaratish funksiyasini bajaradi. An'ana, meros, ong va qadriyatlar uzviyligi milliy qo'shiqchilik san'atining ijtimoiy-madaniy ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omillardan biridir. An'anaviy qo'shiqchilik shakllari madaniy merosni avloddan avlodga uzatish orqali shaxs madaniy ongining tarixiy davomiyligini ta'minlaydi. Ushbu uzviylik shaxsning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlab, uni muayyan madaniy makon bilan bog'laydi. Natijada milliy qo'shiqchilik san'ati shaxs madaniy ongiga estetik va ma'naviy darajalarda ta'sir ko'rsatib, madaniy ehtiyojlarni shakllantiruvchi barqaror ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv milliy qo'shiqchilik san'atini idealizatsiya qilmasdan, balki uning shaxs kamolotidagi funksional ahamiyatini madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tushuntirish imkonini beradi.

Muhokama

Mazkur tadqiqotda olingan nazariy xulosalar shaxs madaniy ehtiyojlarini madaniyatshunoslik kategoriyasi sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi. Xususan, madaniy ehtiyojlar biologik yoki utilitar ehtiyojlardan farqli ravishda ijtimoiy-madaniy tajriba, qadriyatlar tizimi va madaniy ong bilan uzviy bog'liq holda shakllanishi aniqlanadi. Ushbu yondashuv madaniy ehtiyojlarni shaxsning madaniy muhitga moslashuvi va faol ishtiroki bilan bog'lovchi jarayon sifatida tushuntirishga

xizmat qiladi. Mavjud ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim tadqiqotlarda madaniy ehtiyojlar asosan sotsiologik yoki psixologik kontekstda talqin qilinadi. Bunday yondashuvlarda san'atning shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantiruvchi funksiyasi ikkilamchi omil sifatida ko'riladi. Mazkur maqolada esa madaniy ehtiyojlar madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan, san'atni faol ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida ko'ruvchi yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bu holat milliy qo'shiqchilik san'atining faqat estetik hodisa emas, balki madaniy ong va identitetni shakllantiruvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Madaniy fenomenologiya yondashuvi milliy qo'shiqchilik san'atining shaxs tajribasida qanday idrok etilishini ochib berish imkonini yaratadi. Ushbu yondashuv doirasida qo'shiqchilik san'ati tashqi madaniy ta'sir emas, balki shaxs tomonidan mazmunli anglanadigan va ichki ehtiyojga aylanuvchi madaniy tajriba sifatida talqin qilinadi. Bu esa madaniy ehtiyojlarning shakllanish jarayonini statik emas, balki dinamik jarayon sifatida ko'rsatadi. Muallifning ilmiy pozitsiyasi shundan iboratki, milliy qo'shiqchilik san'ati idealizatsiya qilinmasdan, uning shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantirishdagi funksional imkoniyatlari madaniyatshunoslik yondashuvi asosida ochib berilishi lozim. Ushbu pozitsiya madaniy ehtiyojlar va milliy san'at o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni konseptual darajada tushuntirishga hamda mavjud nazariy qarashlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Maqola natijalari shaxs madaniy ehtiyojlari kategoriyasini madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tizimli qayta talqin qilish imkonini beradi. Olingan nazariy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Shaxs madaniy ehtiyojlari biologik yoki utilitar ehtiyojlardan farqli ravishda ijtimoiy-madaniy tajriba, qadriyatlar tizimi va madaniy ong bilan uzviy bog'liq holda shakllanadigan murakkab madaniy hodisa ekanligi asoslandi.

2. “Madaniy ehtiyoj” tushunchasi madaniyat nazariyasida shaxs va jamiyat oʻrtasidagi madaniy aloqalarni tushuntiruvchi muhim kategoriyaviy vosita sifatida aniqlashtirildi.

3. Shaxs madaniy ehtiyojlarining estetik, maʼnaviy, kommunikativ, identifikatsion va ijtimoiy-madaniy komponentlardan iborat yaxlit tizim ekanligi koʻrsatildi.

4. Milliy qoʻshiqchilik sanʼati badiiy-estetik hodisa bilan cheklanmay, shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantiruvchi barqaror ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida talqin qilindi.

5. Oʻzbek milliy qoʻshiqchilik sanʼatida maqom va anʼanaviy xalq qoʻshiqlari shaxs madaniy ehtiyojlarini shakllantirishda uzluksiz madaniy reproduksiya mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu jarayon madaniy ehtiyojlarning tarixiy davomiylik, identifikatsiya va ijtimoiy xotira bilan uzviy bogʻliqligini koʻrsatadi.

6. Madaniy fenomenologiya yondashuvi milliy qoʻshiqchilik sanʼatining shaxs tajribasida mazmunli anglanishini va ichki madaniy ehtiyojga aylanish jarayonini ochib berish imkonini yaratdi.

7. Milliy qoʻshiqchilik sanʼati shaxs madaniy ongini shakllantirish, madaniy xotira va identitetni mustahkamlashda funksional ahamiyatga ega ekani asoslab berildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shaxs madaniy ehtiyojlari va milliy qoʻshiqchilik sanʼati oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikning madaniyatshunoslik va fenomenologik yondashuvlar asosida konseptual darajada yoritilganida namoyon boʻladi. Kelgusidagi tadqiqotlar doirasida milliy qoʻshiqchilik sanʼatining turli ijtimoiy guruhlar madaniy ehtiyojlariga taʼsiri, shuningdek, zamonaviy madaniy jarayonlar sharoitida uning transformatsiyasi masalalarini empirik tadqiqotlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 340-son qarori.
- 2.Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi. – Toshkent.:Fan ziyosi. 2022. – 359 b.
- 3.Mavrulova M.Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot.–Toshkent.: Zarvaraq nashriyoti,2022. – 56 b.
4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. – Toshkent.:Ma'naviyat.2023. – 750 b.
- 5.Abraham H.Maslow. Motivation and personality. – U.S.A.:Harper-Row publishers.1954.P.394.
- 6.P.Bourdieu. Distinction: A social critique of the judgement of taste. – U.S.A.:Harvar University press Cambridge – P.632.
- 7.C.Geertz. The interpretation of cultures. – New York.:Basic books. 1972. P.15.
- 8.E.Fromm. To have or to be?. – London.: Continuum.1997. P.203.

**ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ САНЪАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР ВА УНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ
АСОСЛАРИ**

Арипов Хуршид Қобирович

Ю. Ражабий номидаги Ўзбекистон давлат миллий музыка санъати институти
доценти

Аннотация

Мазкур мақолада Марказий Осиёда музыка илми ва чолғу созларининг шаклланиши ҳамда ривожланиши илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Чолғу ижрочилиги санъатига оид назарий қарашларнинг пайдо бўлиши ва тараққиёт босқичлари ёритиб берилган. Муסיқашунос олимлар асарларига қисқача шарҳ берилиб, улардаги ижрочиликка оид фикрлар таҳлил қилинган. Мақола кириш, асосий ва хулоса қисмларидан иборат бўлиб, музыка илмининг тарихий ва назарий асослари умумлаштирилган.

Калит сўзлар: чолғу ижрочилиги, ритм, най, дамли ва зарбли чолғулар, органология, музыка илми, рисола.

**Инновационные подходы к развитию искусства инструментального
исполнения и его научные и теоретические основы.**

Арипов Хуршид Қобирович

Доцент Узбекского государственного института национального музыкального
искусства имени Ю. Ражаби

Аннотация

В данной статье рассматриваются процессы формирования и развития музыкальной науки и музыкальных инструментов в Центральной Азии. Освещаются этапы становления научно-теоретических взглядов на инструментальное исполнительство. Приводится краткий анализ трудов музыковедов, в которых рассматриваются вопросы исполнительского искусства. Статья состоит из трёх частей: введения, основной части и заключения, где обобщаются основные научные положения.

Ключевые слова: инструментальное исполнительство, ритм, флейта, духовые и ударные инструменты, органология, музыкальная наука.

INNOVATIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF THE ART OF INSTRUMENT PERFORMANCE AND ITS SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS

Aripov Khurshid Kobilovich

Associate Professor, Uzbek State Institute of National Music Art named after Yu.

Rajabi

Annotation

This article examines the formation and development of musical science and musical instruments in Central Asia. It highlights the emergence and evolution of scientific and theoretical views on instrumental performance. The study provides a brief analysis of musicological works discussing issues of performance practice. The article is structured into three parts: introduction, main body, and conclusion, summarizing key scientific findings.

Keywords: instrumental performance, rhythm, flute (nay), wind and percussion instruments, organology, music science.

Муסיқа санъати инсон маънавий оламида бойитувчи ва унинг рухий ҳолатига чуқур таъсир кўрсатувчи муҳим маданий омиллардан бири ҳисобланади. Айниқса, чолғу ижрочилиги музиканинг амалий ифодаси сифатида унинг мазмун-моҳиятини очиқ беришда асосий восита бўлиб хизмат қилади. Шу боис, мазкур соҳанинг илмий-назарий асосларини ўрганиш ва уни замонавий ёндашувлар билан бойитиш бугунги кун музикашунослигининг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.

Миллий чолғу созлар асрлар давомида шаклланиб, халқларнинг маданий меросини ўзида мужассам этган. Улар нафақат музикий асарларни ижро этиш воситаси, балки миллий дунёқараш, эстетик қадрият ва ижодий тафаккурни акс эттирувчи муҳим маданий феномен сифатида намоён бўлади. Ҳар бир халқнинг

чолғу созлари унинг ўзига хос оҳангдорлик тизими, ижро услуби ва бадиий ифодасини намоён қилади.

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида маданият ва санъат соҳасига, жумладан муסיқа таълимига алоҳида эътибор қаратилди. Замонавий педагогик технологияларни жорий этиш, таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашга қаратилган ислохотлар чолғу ижрочилиги санъатининг ривожланишига катта туртки берди. Бу жараёнда анъанавий ижрочилик мактаблари сақланиб қолинган ҳолда, улар замонавий инновацион ёндашувлар билан уйғунлаштирилди.

Тарихий манбалар муסיқа ва чолғу ижрочилиги инсоният тараққиётининг илк босқичлариданоқ мавжуд бўлганини кўрсатади. Археологик топилмалар ва деворий тасвирларда турли чолғу созларда ижро этаётган муסיқачилар акс эттирилган. Дастлабки чолғу асбоблари содда тузилишга эга бўлган бўлса, вақт ўтиши билан уларнинг конструкцияси ва ижро имкониятлари такомиллашиб борган.

Марказий Осиёда муסיқа илмининг назарий асослари IX асрдан бошлаб илмий рисоаларда кенг ёритила бошлади. Буюк мутафаккирлар томонидан яратилган асарларда муסיқа назарияси, товуш тизими, ритм ва ижрочилик услублари чуқур таҳлил қилинган. Бу илмий мерос нафақат ўз даври учун, балки ҳозирги замон муסיқашунослиги учун ҳам муҳим манба ҳисобланади.

Чолғу ижрочилигида ритм муסיқий асарнинг ички тузилишини белгилайдиган асосий омиллардан бири ҳисобланади. Айниқса, доира усуллари орқали муסיқий асарларнинг мазмуни ва ифодаси янада бойийди. Илгари ритмик шакллар махсус бўғинлар орқали ифода этилган бўлса, бугунги кунда улар замонавий нота тизими ва рақамли технологиялар ёрдамида ўрганилмоқда ва таҳлил қилинмоқда.

Ҳозирги кунда чолғу ижрочилигини ўқитиш жараёнида инновацион ёндашувлар муҳим аҳамият касб этмоқда. Жумладан, мультимедиа воситаларидан фойдаланиш, аудио ва видео таҳлиллар ўтказиш, онлайн таълим

платформаларини жорий этиш ва рақамли дастурлар орқали ижрони таҳлил қилиш таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Бу усуллар талабаларнинг назарий билимларини мустаҳкамлаш билан бирга, амалий кўникмаларини ҳам ривожлантиради.

Шунингдек, миллий ижрочилик мактаблари чолғу санъатининг ривожланишида муҳим ўрин тутди. Турли ҳудудларда шаклланган ижрочилик анъаналари ўзига хос услуб ва бадиий ифодага эга бўлиб, улар мусиқий мероснинг бойлиги ва ранг-баранглигини таъминлайди.

Анъанавий най ижрочилиги ўзбек мусиқа маданиятининг энг қадимий ва ниҳоятда нафис қатламларидан бирини ташкил этади. Асрлар давомида у халқнинг маънавий дунёқараши, эстетик тамойиллари ва мусиқий тафаккури билан узвий боғлиқ ҳолда ривожланиб келган. Най фақат мусиқий чолғу сифатида эмас, балки ички ҳис-туйғулар ва руҳий ҳолатларни ифодалашнинг нозик воситаси сифатида ҳам қаралади. Шу боис анъанавий най ижрочилиги ўзига хос услубий хусусиятлар ҳамда ижрочидан юқори профессионал маҳорат ва чуқур эмоционал сезгирликни талаб этувчи мураккаб техник-бадиий талаблар тизими билан ажралиб туради.

Анъанавий най ижрочилигида нафас техникаси марказий ўринни эгаллайди. Найда товуш ҳосил қилиш бевосита нафасни бошқаришга боғлиқ бўлиб, ижрочидан чуқур, барқарор ва аниқ тартибга солинган нафас олишни эгаллашни талаб этади. Нафаснинг давомийлиги, кучи ва тақсимланиши куй ифодасининг характери ва бадиий таъсирчанлигини белгилайди. Узоқ давом этувчи товушлар ҳамда сокин, ғамгин мусиқий иборалар айнан тўғри нафас бошқаруви орқали тўлиқ намоён бўлади. Шу жиҳатдан най ижрочиси нафақат мусиқачи, балки нафасни нозик бошқариш орқали мусиқий шакл ва ифодани яратувчи маҳорат эгасидир.

Анъанавий ижрочиликнинг яна бир муҳим хусусияти — товушнинг табиийлиги ва юмшоқлигидир. Найдан чиқадиган товуш сунъий кучайтирилмайди; аксинча, унинг табиий тембри, тиниқлиги ва майин

резонанси эҳтиёткорлик билан сақланади. Бу ёндашув чолғуга ўзига хос илиқлик, эмоционал чуқурлик ва тафаккурий руҳ бағишлайди. Айниқса, мақом туркумлари ва лирик куйлар ижросида товушнинг юмшоқлиги бадиий ифодавийликни сезиларли даражада ошириб, нозик эмоционал рангларни етказишга имкон беради.

Анъанавий най ижрочилиги миллий лад тизими ва мақом анъаналари билан чамбарчас боғлиқ. Ушбу чолғу Шашмақом, Фарғона–Тошкент мақом йўллари ҳамда турли халқ куй ва кўшиқларини ижро этишда кенг қўлланилади. Бу жараёнда ижрочи миллий лад тузилмалари, интонацион нозикликлар ва хос мелодик бурилишларни чуқур билиши лозим. Мақом ижрочилигида най кўпинча етакчи ва ниҳоятда ифодали чолғу сифатида хизмат қилиб, мусиқий асарнинг маънавий-фалсафий мазмунини очиб беришда муҳим рол ўйнайди.

Анъанавий най ижрочилигининг яна бир ўзига хос жиҳати — безакли ва ифодавий ижро усулларида фойдаланишдир. Глиссандо, нозик мелодик безаклар ҳамда майин тебранишга ўхшаш товуш ўзгаришлари мусиқий тўқимани бойитиб, ифодавийликни кучайтиради. Бу безаклар тасодифий қўлланилмайди, балки асрлар давомида шаклланган ижрочилик анъаналари асосида ва ҳар бир асарнинг эмоционал мазмунига мос ҳолда қўлланилади.

Най ижрочилигининг ривожланиши ва сақланиб қолишида устоз–шогирд анъанаси муҳим ўрин тутди. Авлоддан авлодга ушбу чолғунинг сир-асрорлари оғзаки ва амалий тарзда етказиб келинган. Нафас тақсимоти, товуш ҳосил қилиш, безаклар ва ифодавий фразалаш каби муҳим жиҳатлар тўлиқ ёзма шаклда ифодаланмайди, балки бевосита кўрсатма ва тақлид орқали ўзлаштирилади. Ушбу жонли анъана най ижрочилигининг узлуксизлигини таъминлаб, унинг доимий ривожланиб бораётган санъат тури сифатида шаклланишига хизмат қилган.

Ижрочининг ички руҳий ҳолати анъанавий най ижрочилигида алоҳида аҳамиятга эга. Най кўпинча соғинч, сокинлик, тафаккур ва маънавий поклик туйғулари билан боғланади. Ижро жараёнида мусиқачи ўзининг шахсий

эмоционал кечинмаларини мусиқага сингдиради ва натижада техник ижро чуқур бадий ифодага айланади. Шу тариқа тингловчи фақат мусиқий тузилмани эмас, балки ижрочининг ички руҳий оламини ҳам идрок этади.

Хулоса қилиб айтганда, чолғу ижрочилиги санъати кўп асрлик тарихга эга бўлиб, у Марказий Осиё халқларининг маданий ва маънавий ҳаётида муҳим ўрин тутди. Ушбу санъат тури асрлар давомида такомиллашиб, мураккаб ижрочилик мактаблари ва назарий асосларга эга бўлган илмий йўналиш сифатида шаклланган.

Мусиқа илмининг ривож, буюк мутафаккирлар томонидан яратилган рисоалар ҳамда замонавий тадқиқотлар чолғу ижрочилиги назариясининг илмий асосларини мустаҳкамлаган. Айниқса, ритм, усул ва чолғу созлар тузилиши каби масалалар бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Замонавий таълим тизимида инновацион ёндашувларнинг жорий этилиши чолғу ижрочилигини ўқитишда янги имкониятлар яратиб, талабаларнинг ижодий ва касбий салоҳиятини ривожлантиришга хизмат қилмоқда. Шу жиҳатдан, анъана ва инновация уйғунлиги чолғу ижрочилиги санъатининг барқарор ривожланишида асосий омил бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ражабов И. – “Мақомлар масаласига доир”, Тошкент, 1963.
2. Шодмонов Н. – “Темурийлар даврида мусиқашунослик”, Тошкент, 1995.
3. Бегматов С., Матёкубов М. – “Ўзбек анъанавий чолғулари”, Тошкент, 2008.
4. Орипов З. – “Шарқ мусиқа манбашунослиги (IX–XI асрлар)”, Тошкент, 2008.
5. Иброҳимов О. – “Ўзбек халқ мусиқа ижоди”, Тошкент, 1994.
6. Соломонова Т. – “Ўзбек мусиқа тарихи”, Тошкент, 1981.
7. Фаробий Абу Наср – “Китоб ал-мусиқа ал-кабир”.
8. Ибн Сино – “Китоб аш-шифо”, мусиқага оид бўлим.
9. Мароғий Абдулқодир – “Мақосид ул-алҳон”.

DOIRA USULLARINI NOTATSIYALASH MUAMMOLARI VA ANʻANAVIY RITMIK FORMULALARNI YOZMA QAYD ETISH TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Samadov Rahmatulla Sunatullayevich

Yunus Rajabiy nomidagi Oʻz.MMSI “Maqom cholgʻu ijrochilik kafedrası”
dotsenti

Annotatsiya. Maqolada oʻzbek anʻnaviy musiqasida doira usullari (ritmik formulalar) ni yozma qayd etish — notatsiyalash muammosi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda usulning ogʻzaki anʻana orqali uzatilishi, uni yozma belgilarda aks ettirishning tarixiy tajribasi (V. Uspenskiy, V. Beliaev), shuningdek mavjud notatsiya tizimlari — ovoz hijolari (“bum”, “bak”) tizimi, Yevropa nota yozuvi va sxematik (harfli) yozuv qiyosiy oʻrganiladi. Har bir tizimning afzalliklari va cheklovlari aniqlanib, anʻnaviy ijroning nozik jihatlarini saqlovchi mukammalroq usul-yozuv yondashuvini ishlab chiqish zarurati asoslanadi.

Kalit soʻzlar: *doira, usul, notatsiya, ritmik formula, maqom, Shashmaqom, ogʻzaki anʻana, metro-ritmika, cholgʻushunoslik, aruz.*

**Сравнительный анализ проблем нотации круговых методов и систем
письменной нотации традиционных ритмических формул**

Самадов Рахматулла Сунатуллаевич

Доцент кафедры макомского инструментального исполнительства
Узбекского государственного музыкального института им. Юнуса
Раджабия

Аннотация. В статье научно анализируется проблема нотации круговых методов (ритмических формул) в узбекской традиционной музыке. В исследовании сравнивается передача метода через устную традицию,

исторический опыт его отражения в письменных символах (В. Успенский, В. Беляев), а также существующие системы нотации – система голосовых хийос («бум», «бак»), европейская нотация и схематическое (буквенное) письмо. Выявлены преимущества и ограничения каждой системы, а также обоснована необходимость разработки более совершенного методо-письменного подхода, сохраняющего тонкости традиционного исполнения.

Ключевые слова: круг, метод, нотация, ритмическая формула, маком, шашмаком, устная традиция, метроритм, инструментальные исследования, аруз.

COMPARATIVE ANALYSIS OF NOTATION PROBLEMS OF CIRCLE METHODS AND SYSTEMS OF WRITTEN NOTATION OF TRADITIONAL RHYTHMIC FORMULAS

Samadov Rahmatulla Sunatullayevich

**Associate Professor of the Department of Maqom Instrument
Performance of the Yunus Rajabiy Uzbek State Musical Institute**

Abstract. The article scientifically analyzes the problem of notation of circle methods (rhythmic formulas) in Uzbek traditional music. The study compares the transmission of the method through oral tradition, the historical experience of its reflection in written symbols (V. Uspensky, V. Beliaev), as well as the existing notation systems - the system of voice hijos ("bum", "bak"), European notation and schematic (letter) writing. The advantages and limitations of each system are identified, and the need to develop a more perfect method-writing approach that preserves the subtleties of traditional performance is substantiated.

Keywords: circle, method, notation, rhythmic formula, maqom, Shashmaqom, oral tradition, metro-rhythm, instrumental studies, aruz.

O'zbek an'anaviy musiqasining metro-ritmik asosini tashkil etuvchi usul tushunchasi — maqom va xalq cholg'u ijrochiligining markaziy kategoriyasidir. Usul takrorlanuvchi ritmik formula bo'lib, u doira yordamida ovozli tarzda namoyon etiladi va butun ijro jarayonining ritmik intizomini belgilaydi [4, 71-b]. Asrlar davomida usullar bevosita ustoz-shogird an'anasi orqali og'zaki yo'l bilan uzatib kelingan, ya'ni ular yozma matnga emas, balki jonli ijro xotirasiga tayangan [9, 245-b].

Biroq XX asr boshlaridan e'tiboran an'anaviy musiqani ilmiy o'rganish va saqlash zarurati usulning yozma qayd etilishi — notatsiyalash masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirdi. Usulni yozma belgilarda aks ettirish nazariy jihatdan murakkab vazifa bo'lib, u faqat ritmik davomiylikni emas, balki tovush sifati (tembri), ifoda va ijro nozikliklarini ham qamrab olishi lozim. Ushbu maqolaning maqsadi — doira usullarini notatsiyalashning mavjud tizimlarini qiyosiy tahlil etish, ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash hamda muammoning ilmiy yechimi yo'llarini belgilashdir.

Tadqiqotda tarixiy-manbashunoslik, qiyosiy-tipologik va analitik usullardan foydalanildi. Manbaviy asos sifatida V. Uspenskiy va V. Beliaevning notatsiya bo'yicha klassik ishlari, F. Karomatov, I. Rajabov, O. Matyoqubovning maqomshunoslik tadqiqotlari hamda zamonaviy ilmiy nashrlar olindi.

Usulni yozma qayd etishga bo'lgan dastlabki ilmiy urinishlar o'rta asr Sharq musiqa risolalariga borib taqaladi. Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy va Abdulqodir Marog'iy asarlarida ritmik davrlar (iyqo") nazariy jihatdan tavsiflangan bo'lib, ular zamonaviy usul tushunchasining ilk nazariy ildizlarini tashkil etadi [10, 205-b]. Ushbu an'anada ritm bo'g'in-hijo (tan-tananan) tizimi orqali ifoda etilgan.

XX asrning 20-yillarida o'zbek-tojik maqomini ilmiy notatsiyalashning yangi davri boshlandi. 1923-yilda V. Uspenskiy Buxoroda Shashmaqomning birinchi nota yozuvini — tanbur partiyasi va doira usullari bilan birgalikda amalga oshirdi; ushbu

yozuv 1924-yilda nashr etildi [1, 18-b]. Bu hodisa ogʻzaki anʻanani yevropacha nota tizimiga koʻchirishning ilk yirik tajribasi boʻldi. Keyinchalik V. Beliaev Markaziy Osiyo xalqlari musiqasining metro-ritmik tuzilishini nazariy jihatdan tahlil qilib, usul notatsiyasining ilmiy asoslarini ishlab chiqdi [3, 198-b].

Sovet davrida Yu. Rajabiy rahbarligida tayyorlangan olti jildlik “Shashmaqom” nashri usullarni yevropacha nota tizimida muntazam qayd etishning eng yirik amaliy natijasi boʻldi [7, 9-b]. Shu bilan birga, anʻanaviy “ustoz-shogird” tizimida usullar avvalgidek ogʻzaki tarzda, koʻpincha qisqa sxematik (harfli) ishoralar yordamida oʻzlashtirilishda davom etdi [15, 1-b].

Mavjud amaliyotni umumlashtirgan holda, doira usullarini yozma qayd etishning uchta asosiy tizimini ajratish mumkin. Quyida ularning har biri tahlil etiladi.

Ovoz hijolari (silliblik) tizimi. Ushbu eng qadimiy va anʻanaviy tizim usulni ogʻzaki boʻgʻinlar orqali ifoda etishga asoslanadi. Doiraning ikki asosiy tovushi — past “bum” (yoki “bam”) va baland “bak” (yoki “tak”) maxsus hijolar bilan aytib oʻrgatiladi [12, 1-b]. Bu tizim ijroning jonli, ogʻzaki tabiatiga eng yaqin boʻlib, ustoz-shogird anʻanasida bevosita qoʻllaniladi. Uning afzalligi — soddalik va tovush sifatini aniq koʻrsatishi; cheklovi esa — aniq ritmik davomiylik va surʻtni qatʻiy qayd eta olmasligidir.

Yevropacha nota yozuvi tizimi. Yevropa nota yozuvi usulni besh chiziqli nota stani (notный стан) da, zarb cholgʻulari uchun moslangan belgilar yordamida qayd etadi. Bu tizim ritmik davomiylik, metr va surʻtni aniq koʻrsatish imkonini beradi va ilmiy nashrlarda keng qoʻllaniladi [7, 9-b]. Biroq u doiraning tembr boyligini (“bum” va “bak” oʻrtasidagi nozik oʻtishlar, jaranglovchi halqalar taʼsiri) hamda anʻanaviy ijroning erkin ifodaviy nuanslarini toʻliq aks ettira olmaydi. Natijada yozma matn jonli ijroning soddalashtirilgan “skeleti”ga aylanib qolish xavfi mavjud [13, 7-b].

Sxematik (harfli-grafik) tizim. Sxematik tizimda usul harflar, raqamlar yoki shartli grafik belgilar orqali qisqa formulada qayd etiladi. Tarixan maqom matnlarida usul nomi va uning sxematik yozuvi qisqacha ishoralar (“uzelok”lar) tarzida keltirilgan [15, 1-b]. Ushbu tizimning afzalligi — ixchamlilik va usul strukturasini yaqqol ko‘rsatishi; cheklovi esa — standartlashtirilmaganligi va turli maktablarda turlicha qo‘llanilishidir. Zamonaviy tadqiqotlarda harfli-grafik va nota tizimlarini birlashtirgan kombinatsiyalashgan yondashuvlar taklif etilmoqda.

Tizimlarning qiyosiy tahlili va asosiy muammolar. Uchala tizimni qiyosiy o‘rganish ularning hech biri usulni mukammal, ya‘ni barcha jihatlarini bir vaqtda aks ettira oladigan tarzda qayd eta olmasligini ko‘rsatadi. Asosiy muammolarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:


Tembr muammosi. Hech bir keng tarqalgan tizim doiraning tovush boyligini “bum”, “bak” va oraliq tovushlar, halqalar jarangini — to‘liq qamrab olmaydi.

Ifoda (agogika) muammosi. An‘anaviy ijrodagi erkin tezlashish-sekinlashish, dinamik nuanslar yozma matnda yo‘qoladi yoki soddalashadi.

Standartlashtirish muammosi. Sxematik va hijo tizimlari yagona, umume‘tirof etilgan me‘yorga ega emas; turli maktab va mualliflar turlicha belgilardan foydalanadi.

Aruz bilan bog‘liqlik muammosi. Usul ko‘pincha she‘riy matn vazni (aruz) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mavjud notatsiya tizimlari ushbu bog‘liqlikni etarlicha aks ettirmaydi [15, 1-b].

Tembr, Ifoda, Standartlashtirish va Aruz bilan Bog'liqlik Muammolari



Ushbu muammolar usul notatsiyasi sohasida hali yagona, ilmiy asoslangan va amaliy qulay tizim shakllanmaganligini ko'rsatadi. Bu esa an'anaviy ritmik merosni to'liq hujjatlashtirish va kelajak avlodga uzatishni qiyinlashtiradi.

Muammoning yechimi va istiqbolli yo'nalishlar. Tahlil natijalari doira usullarini notatsiyalash muammosini hal etishda kompleks (birlashgan) yondashuv eng samarali ekanligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv quyidagi tarkibiy qismlarni o'zida birlashtirishi maqsadga muvofiq: yevropacha nota yozuvining ritmik aniqligi, hijo tizimining tovush-sifat ko'rsatkichlari hamda sxematik belgilarning ixchamligi. Bunda har bir tovush turi ("bum", "bak") uchun standartlashtirilgan grafik belgi joriy etilishi zarur.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar ushbu muammoni hal etishda yangi imkoniyatlar ochadi. Audio va video yozuvlarni nota matni bilan sinxronlashtirish, ustozlar ijrosini raqamli arxivlash hamda kompyuter dasturlari yordamida usullarni

avtomatik tahlil qilish an'anaviy yozma notatsiyaning cheklovlarini to'ldirishi mumkin. Shu tariqa yozma matn jonli ijro yozuvi bilan uyg'unlikda saqlanadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, doira usullarini notatsiyalash o'zbek an'anaviy musiqashunosligining dolzarb va hali to'liq hal etilmagan ilmiy muammosi bo'lib qolmoqda. Mavjud uchta asosiy tizim — ovoz hijolari, yevropacha nota yozuvi va sxematik yozuv — ning har biri ma'lum afzalliklarga ega bo'lsa-da, ularning hech biri usulni barcha jihatlar bilan mukammal qayd eta olmaydi.

Muammoning samarali yechimi turli tizimlarning kuchli tomonlarini birlashtirgan kompleks yondashuv hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishda ko'rinadi. Usul notatsiyasining yagona, ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish an'anaviy ritmik merosni to'liq hujjatlashtirish, ilmiy o'rganish va kelajak avlodga uzatish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishdagi kelgusi tadqiqotlar usul va aruz vazni o'rtasidagi bog'liqlikni hamda mintaqaviy maktablar yozuv an'alarini chuqurroq o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Успенский В. А. *Шашмаком: Бухарский классический репертуар*. — Ташкент: Госиздат, 1924. — 1-нашр; танбур партияси ва усуллар билан.
2. Успенский В. А., Беляев В. М. *Туркменская музыка. Статьи и 115 песен туркменской музыки* / под общ. ред. В. М. Беляева. — Москва: Музгиз, 1928. — 377 с.
3. Беляев В. М. *Очерки по истории музыки народов СССР*. Вып. 1: *Музыкальная культура Киргизии, Казахстана, Туркмении, Таджикистана и Узбекистана*. — Москва: Музгиз, 1962. — 340 с.
4. Matyoqubov O. *Maqomot*. — Toshkent: Musiq, 2004. — 320 b.
5. Rajabov I. *Maqomlar masalasiga doir*. — Toshkent: O'zdavnashr, 1963. — 212 b.

6. Кароматов Ф. М. *Узбекская инструментальная музыка: Наследие.* — Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1972. — 360 с.
7. *Shashmaqom* / tahr. hay'ati: Yu. Rajabiy va boshq. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1966–1975. — 1–6-jildlar.
8. Вызго Т. С. *Музыкальные инструменты Средней Азии: Исторические очерки.* — Москва: Музыка, 1980. — 232 с.
9. Петросянц А. И. *Инструментоведение: Узбекский оркестр народных инструментов.* — Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1980. — 224 с.
10. Абдурашидов А. А. *Танбур и его функция в изучении ладовой системы Шашмакома:* автореф. дис. ... канд. искусствоведения. — Ташкент, 1990. — 24 с.
11. Кароматлы Ф. М., Нурджанов Н. *Таджикско-узбекский Шашмаком: вопросы музыкальной текстологии.* — Душанбе; Ташкент: Дониш, 1978. — 286 с.
12. Ibrohimov O. *Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari.* — Toshkent: San'at, 2006. — 168 b.

ACTIVITIES OF KARAKALPAK DANCE ENSEMBLES AND CREATIVE-METHODOLOGICAL RESEARCH OF BALLET MASTERS

M. Shukurlayev

Academy of Sciences of the
Republic of Uzbekistan Researcher
at the Institute of Art Studies

Abstract This article explores the historical formation, preservation, and modern development of Karakalpak national dance as an integral part of the cultural heritage of the region. Rooted in ancient religious rituals, everyday customs, seasonal festivals, and military exercises, Karakalpak dance has survived through complex historical stages. The research highlights the pivotal role of professional dance ensembles in Karakalpakstan, specifically focusing on the renowned "Ayqulash juldúzlarí" and "Xurliman" groups. The study provides a detailed analysis of the creative and methodological contributions of prominent ballet masters, notably Oringul Muradova and Polat Madreymov, who have significantly enriched the choreographic repertoire by staging over seventy national and modern dances. Furthermore, the article classifies the dance repertoire into specific categories based on performers (men's, women's, and joint mass dances) and thematic structures (plot-driven and plotless dances). Through the synthesis of traditional folklore and professional stage choreography, Karakalpak dance maintains its unique regional characteristics, distinct from other Central Asian cultures. The author concludes that the continuous methodological research of choreographers and the integration of traditional heritage into contemporary ensemble performances are essential for promoting Karakalpak dance art on both national and global stages.

Keywords: Karakalpak dance, Choreographic art, Dance ensembles, Ballet master, Cultural heritage, National traditions, Stage performance, Folklore.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАРАКАЛПАКСКИХ ТАНЦЕВАЛЬНЫХ АНСАМБЛЕЙ И ТВОРЧЕСКО-УСЛУБНЫЕ ИЗЫСКАНИЯ БАЛЕТМЕЙСТЕРОВ (ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАРАКАЛПАКСКИХ ТАНЦЕВАЛЬНЫХ АНСАМБЛЕЙ И ТВОРЧЕСКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ИЗЫСКАНИЯ БАЛЕТМЕЙСТЕРОВ)

М. Шукурлаев

Академия Наук
Республики Узбекистан
Исследователь Института искусствознания

Аннотация Данная статья посвящена историческому становлению, сохранению и современному развитию каракалпакского национального танца как неотъемлемой части культурного наследия. Каракалпакское танцевальное

искусство, берущее свое начало в древних религиозных обрядах, бытовых традициях, сезонных праздниках и военных играх, прошло сложный путь исторического развития. В исследовании особо подчеркивается ключевая роль профессиональных танцевальных ансамблей Каракалпакстана, в частности «Айкулаш жулдузлари» и «Хурлиман», в сохранении преемственности поколений. Автор проводит детальный анализ творческих и методологических поисков выдающихся балетмейстеров, таких как Орингуль Мурадова и Полат Мадреймов, которые внесли значительный вклад в обогащение хореографического репертуара, поставив более семидесяти национальных и современных танцев. Кроме того, в статье представлена классификация танцевального репертуара по составу исполнителей (мужские, женские и совместные массовые танцы) и тематической структуре (сюжетные и бессюжетные постановки). Благодаря синтезу традиционного фольклора и профессиональной сценической хореографии, каракалпакский танец сохраняет свою самобытность, отличаясь от танцев других родственных народов. Делается вывод о том, что непрерывные методологические исследования балетмейстеров и интеграция традиционного наследия в современные ансамблевые программы имеют решающее значение для популяризации каракалпакского танцевального искусства как на национальной, так и на мировой арене.

Ключевые слова: каракалпакский танец, хореографическое искусство, танцевальные ансамбли, балетмейстер, культурное наследие, национальные традиции, сценическое исполнение, фольклор.

QORAQALPOQ RAQS ANSAMBLARI FAOLIYATI VA BALETMEYSTERLARNING IJODIY-USLUBIY IZLANISHLARI

M.Shukurlayev

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

San'atshunoslik instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya Ushbu maqola qoraqalpoq milliy raqs san'atining tarixiy shakllanishi, saqlanib qolishi va zamonaviy rivojlanishini madaniy merosning ajralmas qismi sifatida o'rganadi. Qadimiy diniy marosimlar, maishiy urf-odatlar, mavsumiy bayramlar va harbiy mashqlarga asoslangan qoraqalpoq raqs san'ati murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Tadqiqotda Qoraqalpog'istondagi professional raqs ansambllari, xususan, "Ayuqlash julduzlari" va "Xurliyman" jamoalarining avlodlar vorisligini saqlashdagi asosiy roli ta'kidlanadi. Muallif O'ringul Muradova va Po'lat Madreymov kabi yetuk baletmeysterlarning ijodiy va uslubiy izlanishlarini chuqur tahlil qilib, ularning yetmishdan ortiq milliy va zamonaviy raqslarni sahnalashtirish orqali xoreografik repertuarni boyitishdagi hissasini ochib beradi. Shuningdek, maqolada raqs repertuari ijrochilar tarkibi (erkaklar, ayollar va ommaviy raqslar) hamda tematik tuzilishi (syujetli va syujetsiz raqslar) bo'yicha tasniflanadi. An'anaviy folklor va professional sahna xoreografiyasining uyg'unligi tufayli

qoraqalpoq raqsi boshqa qardosh xalqlar madaniyatidan ajralib turuvchi o'ziga xosligini saqlab qolgan. Xulosa o'rnida, baletmeysterlarning uzluksiz uslubiy izlanishlari va an'anaviy merosni zamonaviy ansambl dasturlariga joriy etish qoraqalpoq raqs san'atini milliy va jahon miqyosida targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Калит сўзлар: қорақалпоқ рақси, хореография санъати, рақс ансамбллари, балетмейстер, маданий мерос, миллий анъаналар, сахна ижроси, фольклор.

Qoraqalpoq raqsi o'zbek xalqining madaniy merosi sifatida uzoq o'tmishdan diniy marosimlar, maishiy urf-odatlar, mavsumiy bayramlar, harbiy mashqlar, rang-barang tomoshalar bilan bevosita bog'liq holda rivojlanib kelgan. Qoraqalpoq vohalariga xos raqs maktablarida murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tib, turli to'siq va muammolarni yengib, bugungi kungacha saqlanib keldi, ayrimlari esa afsuski, o'tmishda qolib ketdi. Shu bois, Qoraqalpoq raqs san'ati an'analari, o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda uni keyingi avlodga qoldirish dolzarb masala sanaladi. Qoraqalpoq raqlari va ularda saqlangan vorislik an'analari Qoraqalpog'istonda tashkil qilingan raqs ansambili faoliyati bilan bog'liq. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi "Aygulash julduzlari", "Xurliman", "To'maris" ansamblarining so'nggi yillarda erishgan yutuqlari bilan ajralib turadi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida talabalar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari maqsadida Qoraqalpog'iston xalq artisti, taniqli baletmeyster O'ringul Muradova rahbarligidagi "Xurliman" ansambli tashkil etildi. "Xurliman" ansamblining ijodiy o'sishida Najmatdin Muhammaddinov, Qurbonboy Zaretdinov, Roza Qutekeeva, Zibash Pirlepesova, Azat Elmuradov va boshqa san'atkorlarning hissasi katta.

"Xurliman" ansamblining repertuarida bugun ellikdan ortiq milliy va boshqa xalqlarning raqlari, yakkaxon va xor qo'shiqlari mavjud. Baletmeyster O'ringul Muradova saxnalashtirgan "Bir kosa choy", "To'maris", "Qizlar sayli", "Olti qiz", "Qirq qiz" va Pulat Madreymov saxnalashtirgan "Aygulash", "Ayol raqsi", "Orol yigitlari", "Ang'alaq", hazilomuz ommaviy erkaklar raqsi, shiddatli "Chavandoz"

raqsi va boshqa xalqlarning raqlari o'ziga xosligi, ijro san'atining yuqori professional darajasi, milliyligi bilan ajralib turadi.

“Ayqulash” ashula va raqs ansambli qoraqalpoq xoreografiya san'atini 1956-yilda yaratilgan qaldirg'ochi (to'ng'ichi) hisoblanadi. “Ayqulash” Berdaq nomidagi Davlat filarmoniyasining tarkibidagi “Qoraqalpoq qo'shiq va raqs ansambli” degan nom bilan, keyinchalik 2003-yildan “Ayqulash julduzlari” nomi bilan ansambl juda ko'p shaharlar, turli davlatlarga ijodiy safarga borib O'zbekiston Respublikasini rang barang raqs san'atini targ'ibot etib kelmoqda. “Ayqulash” ashula va raqs ansambli yarim asrdar ortiq davr mobaynida nafaqat O'zbekistonda, Markaziy Osiyo, MDH davlatlarida, balki butun jahon miqyosida mashhur ansamblga aylandi. Ansambl borgan davlatlar, shaharlar tarkibida Moskva, Ufa, Qozon, Kishinyov, Odessa, Yalta, Simferopol, Sochi, Baku, Olma-ota, Bishkek, Dushanba, Ashxabad va boshqa 400 dan ortiq shaharlarda bo'lgan.

Ansambl tarkibida balet va vokalni ajoyib solistlari voyaga yetdilar. Ular orasida O'zbekiston xalq artisti, Qoraqalpog'iston xalq artisti va Hamza nomidagi Respublika mukofoti sovrindori Gulparshin Srimbetova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston xalq artisti va Hamza nomidagi Respublika mukofoti sovrindori Bayram Matchanov, Qoraqalpog'iston xalq artisti, Hamza nomidagi Respublika mukofoti sovrindori Otajon Xudoyshukurov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tamara Doshumova, balet solistlari – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston xalq artisti va Hamza nomidagi Respublika mukofoti sovrindori Bayramgeldi Murodov, O'zbekiston xalq artisti, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist, Berdaq nomidagi Respublika mukofoti sovrindori Zulayxo Saparova, Qoraqalpog'iston xalq artisti Urazgul Allamberganova, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Orinbay Baltibayev, Polat Nadirbayev, Orinbike Muradova, Amina Nazarova va boshqalar yetishib chiqdi.

“Ayqulash julduzlari” ashula va raqs ansambli yangi ifodaviy vositalar, turli mavzularni topish, dasturlarda milliylik va baynalminallikni uyg'unligini ta'minlash, balet va vokal solistlarini professional mahoratini doimiy oshirish yo'nalishida

muntazam ravishda ish olib bormoqda. Ansambl faoliyatida dastlabki paytlardan oq “Yigitlar raqsi” bo‘limi bilan ish boshlagan. Hozir esa estrada qo‘shiqchiligi, an’anaviy ijrochilik va folklor yo‘nalishlari bo‘yicha ham bo‘limlar ishlab turibdi. Iqtidorli kompozitor Hudoybergan Turdiqulovdan, Vladimir Mikulik, Baxit Turdimuratov, Vladimir Gorskix, Orinbay Mamashiv, Sultan Abdumalikov, Yuldash Zaripov, Farxod Bazarbekovlar ansambl tarixidan o‘ziga munosib o‘rin oldi. Qo‘shiqchilar Bayram Matchanov, Ataman Hudoyshukurov, Gulbarchin Sarimbetova, Tamara Do‘shumovalar davri boshlandi.

1970-yilga kelib bosh baletmeyster sifatida xalqqa tanila boshlagan Polat Madreymov qo‘shiq va raqs ansamblining raqqosalar gurihiga yetakchilik qila boshlaydi. Ustozi Y.A.Petrosova boshlagan qoraqolpoq xalq sahna raqslaridan doimiy ravishda dars olib borishni yo‘lga qo‘ydi. Qoraqalpoq raqsining O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti “Shuhrat” ko‘krak nishoni sovrindori baletmeyster Polat Madreymovning “Besh barmoq”, “Shabandaz”, “Olti qiz”, “Orol jigitlari”, “Qirmizi”, “Yoshlar syuitasi” folklorlik turidagi “Pashshayi ko‘ylagim” va “Jigitlar” raqslari mashxur.

Zamonaviy qoraqalpoq raqsining rivojlanishida boshqa raqs jamoalari yakka ijrochilar qatorida “Ayqulash julduzlari” milliy raqs ansambli ishtirokchilarining ham alohida hissasi bor. Ansambl a‘zolari qadimiy milliy raqslarga qayta umr bag‘ishlash bilan birga zamonaviy raqlarni, ham ma‘romiga yetkazib ijro etmoqda. “Ayqulash julduzlari” ansamblida iste’dodli yosh yigit-qizlar faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Qoraqalpog‘iston xalq artisti Polat Madreymov ansamblni badiiy rahbari sifatida repertuarining originalligi, o‘ziga xosligi, ijro san‘atini yuqori professional darajasi, dasturlardagi raqs mavzularining milliyliigi, rang-barangligi va estetik ahamiyati kengligiga e‘tibor berib kelmoqda.

“Ayqulash julduzlari” ashula va raqs ansamblining Polat Madreymov tomonidan sahnalashtirilgan milliy raqlari tomoshabinlarni, mutaxassislarni keng ma‘noda mamnun etib kelmoqda. Ko‘p yillar mobaynida u sahnalashtirgan “Lirik ayol raqsi”, “Jilua”, ommaviy erkaklar raqsi “Orol yigitlari”, o‘tkir hazilomuz

“Angalak”, shiddatli, temperamentli “Chavandoz”, ijro etish va chizgilari (shakllarini) xashamatli go‘zalligi bilan ajralib turadigan “Oq oltin” deb nomlanuvchi raqs suitasi “Ayqulash julduzlari” konsert dasturlarining asosiy raqslari sanaladi.

Qoraqalpoq milliy raqs san’atining rivojlanishiga Polat Madreymovning qo‘shgan hissasi katta. Polat Madreymov 70 tadan ortiq raqslarni sahnalashtirgan. Qoraqalpog‘istonda raqs san’atini rivojlantirishda “Chavandozlar”, “Shag‘ala”, “olti qiz”, “Yigitlar”, “Qora yo‘rg‘a”, “Lazzat”, “Oulda to‘y” va boshqalar shular jumlasidandir. Bu raqslar Qoraqalpog‘iston milliy xoreografiyasining mumtoz raqslariga aylandi.

“Ayqulash” ansambli repertuaridan o‘rin egallagan raqslar ham ijrochilariga qarab quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

1) Erkaklar ansamblli raqslari: “Chavandoz”, “Baliqchilar”, “Orol yigitlari”.

2) Ayollar raqslari: A) ansablli - “Olti qiz”, “Besh parda”, “Qirq qiz”, “Amudaryo”, , “Oq oltin”. B) yakkaxon - “Nozli”, “Quvonish”, “Quvnoq qiz”

3) Erkak va ayollar birgalikda ijro etiladigan ommaviy raqslari: “Ayqulash”, “Ovulda to‘y”.

Tahlil qilingan barcha qoraqalpoq raqslarini mazmun jihatdan ikki guruhga bo‘lsa bo‘ladi:

1) syujetli – “Qirq qiz”, “Olti qiz”, “Ayqulash”, “Baliqchilar” “Ovulda to‘y”, “Nozli”, “Oq oltin” va xokazo;

2) syujetsiz - “Orol yigitlari”, “Go‘zallar”, “Birga kel”, “Qirmizi qizlar”, “Kel, yigitlar o‘ynaylik”. Ko‘p syujetli raqslar bir necha qismlardan iborat bo‘lib, syuitali shaklgi ega bo‘lib qoladi. Ulardan mumtoz “Ayqulash”, “Ovulda to‘y” raqslari va “Aykulash julduzlari” ansablining hozirgi repertuaridan joy olgan “Xalqlar do‘stligi”, “Bayram bugun” va boshqa syuitalarni keltirish mumkin.

Qoraqalpoq xalqi milliy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan raqs san’ati bugungi kunda o‘z jilo va nafosati bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo raqs san’atining nodir namunasi hisoblanadi. Mazkur xalq raqslari “Ayqulash”,

“Hurliman”, “Amu to‘lqini”, “Gulzor” singari folklor-etnografik dastalar bilan dunyo madaniyati va san’ati taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Qoraqalpoq xalq raqsi faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ko‘pgina elementlar bilan qardosh xalqlar raqslaridan farq qiladi. Qoraqalpoq xalqining o‘zga hos madaniy-ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘lash mumkin. Qoraqalpoq raqs san’ati rivojlanish tamoyillarini aniq bir tizimga solishda xalq an’anaviy madanitidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abipov B.D. Qoraqalpoq milliy o‘yinlarida yigitlar raqsining o‘ziga xos xususiyatlari // Международный научный журнал «Новостиобразования: исследование XXI века». – 2024. – № 18(100), част 1.
2. Алланазаров Т. Қароқалпоқ театрида миллий режиссуранинг шаклланиши (1920-1959). – Нукус: Билим, 1996 й., 65 бет.
3. Жданко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса // Тр. Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. М., 1952. Т. 1.;
4. Литвинова Т.Г. Формирование каракалпакского народно-сценического танца. дисс... канд. иск. н. Т.: 1987.
5. Петросова Е. Каракалпакский танец. – Т.: 1976. – 227 –стр.



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
1 МАХСУС СОН

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО
СЛОВА**

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART
SPECIAL ISSUE 1
2026